

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



## **MUSIQA TA'LIMI**

**Musiqa ta'limi fanlarining innovatsion  
taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari**

**MODULI BO'YICHA**

## **O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi: san.f.n., dos. Q.B.Panjiyev**

**Taqrizchi: PhD doktori Frank Laper - Pontre de Parij №10 universiteti (Parij).**

*O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>29</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>126</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>154</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>158</b>



## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashtirishning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashtirish o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalar (OTM)ida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish tizimida "Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari" o'quv modulining o'qitilayotganligi pedagog kadrlarni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatleri va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikma-malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

Ayni vaqtda "Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari" moduli oliy ta'lim pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetentlik sifatlerini yanada rivojlantirish,



keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlarni olib borish, kuchli raqobat mavjud bo'lgan mehnat bozorida o'z o'rinlarini saqlab qolishlariga yordam beradi.

O'quv moduli doirasida tinglovchilar Musiq ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari fanining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari, samarali shakl, metod va vositalari bilan tanishadi, kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalarni samarali, maqsadli qo'llash malakalariga ega bo'ladi, ta'lim jarayonini oqilona loyihalashtirishga doir tajribalarini yanada boyitadi. Shuningdek, tinglovchilar pedagogik innovatsiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tatbiq etish yo'llaridan xabardor bo'ladi, innovatsion xarakterga ega mualliflik dasturlarini ishlab chiqish malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida o'qitish jarayonida tinglovchilarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Musiq ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari” **modulining maqsadi:** ta'lim tizimining isloh qilinishi tufayli uning mazmunini tubdan yangilashga va ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish hamda sifat samaradorligini ko'tarish zarur bo'lib qoldi.

Musiq ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari fanlarini o'qitishda bilim zahiralari yaratish jahon amaliyoti saviyasida tashkil etish, kadrlar tayyorlashda o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish, pedagogik ta'lim oluvchi shaxsda mustaqil fikrlovchi, bilimlarni mustaqil ravishda qidiruvchi, axborotlar to'plovchi va ulardan foydalana oluvchi mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini orttirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish kabi zarur nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini tinglovchilarda shakllantirish lozim bo'ladi.

“Musiq ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari” **modulining vazifalari:**

- zamonaviy fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq eta olishi, muammoni yechishga ijodiy yondashishi;
- mutaxassisligining ilmiy muammolarini yechishda mustaqil qarorlar qabul qila olishi hamda undan kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;
- fazoviy, obrazli-siyimli, mantiqiy tasavvur va tafakkurni rivojlantirishi;
- mustaqillik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik va boshqa xislatlarga ega bo'lishi;
- ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar va hisobotlar tuzishni;
- kasbiy-ijodiy masalalarni yechishda avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan modellashtirish metodlarini egallashi;
- ilmiy asoslarda ilmiy jamoani boshqara olishi;
- o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlarini egallashi lozim.



## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi**:

“Mashg'ulot turlari (leksiya, amaliy mashg'ulotlar va boshqalar) ni o'tkazish va nazorat qilishning faol shakllarini”, “o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini to'la oshirish metodlarini”, “talabalar bilimini, ko'nikma va malakasini nazorat qilish va baholash tizimini”, “o'qitish sifati va kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga ta'sir etuvchi faktorlarni”, “pedagogik muloqot asoslarini”, “ilmiy tadqiqot ishining asosiy tushunchalari va metodlarini” kabilarga oid **bilimlarga ega bo'lishi**;

“Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari” fanini o'qitishda o'quv va bilim olish faoliyatini oshirishni tashkil etish”, “Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari” fanini o'qitishda talaba va o'quvchilarning bilimi va mustaqil ta'limini boshqarish hamda nazorat qilishning tashkiliy va o'quv-metodik ta'minoti”, “O'quv-metodik tarbiya jarayonini loyihalash va amalga oshirish”, “Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari”dan topshiriqlar, tarqatma kartochkalar va modellar, ko'rgazmali elektron slaydlar kabi o'qitish vositalari (o'quv-metodik materiallar)ni ishlab chiqish”, “Yangi pedagogik texnologiyalar, ularni Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari fanini o'qitishda qo'llash kabilarga doir **ko'nikmalarini egallashi**;

- Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini “jonli”, ijodiy tashkil etish;

- Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalarini o'qitishda innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- innovatsion tafakkur yuritish orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlab olish;

- Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari bilan bog'liqlikda innovatsion ta'lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg'unlashtirishga erishish;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish **malakalarini egallashi**;

- pedagogik innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish;

- ta'lim jarayonining innovatsion xarakter kasb etishini ta'minlash;

- innovatsion ta'lim texnologiyalari (innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, case study (keys stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalari)ga asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

- tinglovchilarni izlanishli-ijodiy faoliyatga yo'naltirish **kompetensiyalarni egallashi lozim**.



**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari” modulini o'qitish jarayonida:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejadagi “Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar”, “Elektron pedagogika asoslari va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash”, “Virtual ta'lim texnologiyasi”, “Kasbiy faoliyatni modellashtirish texnologiyasi”, “Pedagogik takt va texnika”, “Musiqqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari”, “Kreativ pedagogika asoslari” submodullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar “Musiqiy ta'lim fanlarining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari”ni o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llash malakalari, pedagogik kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyatga ega bo'ladi.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Musiqqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari. Musiqqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari	4	2	2
2.	Metodologiya va zamonaviy metodologik yondashuvlarni tanqidiy tahlil va tasniflash. Musiqqa ta'limi fanlari integrasiyasi natijasida shakllangan soha tarmoqlari va ularning ilmiy-tadqiqot metodlari va ularni rivojlantirish strategiyalari.	2		2



3.	Musiqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-tadqiqot masalalari. Musiqa ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.	4	2	2
4.	O'zbekiston Respublikasida musiqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari. Musiqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, "Ustoz-shogird" maktablari.	4	2	2
5.	O'zbek musiqa merosi qatlamlari, folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari.	6	2	4
<b>Jami</b>		<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: Musiqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari. Musiqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.**

Musiqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari. Musiqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.

**2-mavzu. Musiqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-tadqiqot masalalari. Musiqa ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.**

Musiqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-tadqiqot masalalari. Musiqa ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

**3-mavzu. O'zbekiston Respublikasida musiqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari. Musiqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, "Ustoz-shogird" maktablari.**

O'zbekiston Respublikasida musiqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari.

Musiqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish.

"Ustoz-shogird" maktablari.

**4-mavzu: O'zbek musiqa merosi qatlamlari, og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa, dostonchilik ijodiyoti, folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari.**

1. O'zbek xalq musiqasi

2. Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa

3. Dostonchilik ijodiyoti

4. Folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari





## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: Musiqqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari. Musiqqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.**

Musiqqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari.

Musiqqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.

**2-mavzu: Metodologiya va zamonaviy metodologik yondashuvlarni tanqidiy tahlil va tasniflash. Musiqqa ta'limi fanlari integratsiyasi natijasida shakllangan soha tarmoqlari va ularning ilmiy-tadqiqot metodlari va ularni rivojlantirish strategiyalari.**

Metodologiya va zamonaviy metodologik yondashuvlarni tanqidiy tahlil va tasniflash.

Musiqqa ta'limi fanlari integratsiyasi natijasida shakllangan soha tarmoqlari va ularning ilmiy-tadqiqot metodlari va ularni rivojlantirish strategiyalari.

**3-mavzu: O'zbekiston Respublikasida musiqqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari. Musiqqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, "Ustoz-shogird" maktablari.**

O'zbekiston Respublikasida musiqqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari.

Musiqqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish.

"Ustoz-shogird" maktablari.

**4-mavzu: O'zbekiston Respublikasida musiqqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari. Musiqqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, "Ustoz-shogird" maktablari.**

Ta'lim tizimida xorijiy davlatlarda musiqqa ta'limi maktablari; ijrochilik san'atida artistik mahorat va sahna madaniyatini o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**5-mavzu. O'zbek musiqqa merosi qatlamlari, og'zaki an'anadagi kasbiy musiqqa, dostonchilik ijodiyoti, folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari.**

O'zbek xalq musiqasi

Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqqa

Dostonchilik ijodiyoti



Folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Bugungi kunda o'qitishning zamonaviy metodlari ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.


**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki



ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida "Kichik guruhlarda ishlash" metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;



- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Davra stoli tuzilmasi**


Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.



5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI** - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;



- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



**Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“FSMU” – (fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonining bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o‘rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, o‘zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.



**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** "Tasviriy san'at fanidan davlat ta'lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta'lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir".

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?



**“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar,





muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg'ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namuna:

Tasviriy san'at fanidan Davlat ta'lim standarti			
Sobiq standart		Yangi standart	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

**Xulosa:**



### "SWOT" tahlil metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil



qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Namuna:** Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda "Xulosalash" metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
<b>W</b>	Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
<b>O</b>	Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda "Xulosalash" metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	

**Namuna:** An'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarini "SWOT-tahlil" metodida tahlil qiling.

<b>S</b>	Oddiy darsda o'qituvchi, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
<b>W</b>	O'qituvchi asosan a'lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'limda darsda ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
<b>O</b>	Oddiy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tug'ilishi mumkin
<b>T</b>	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari



## "Insert" metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

**“PINBORD” metodi**

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O'qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog'oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;



- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;
- 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

**Madaniyat**


<b>moddiy madaniyat</b>	<b>ma'naviy madaniyat</b>



**“Konseptual jadval” metodi**

Konseptual jadval metodi - turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlar bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:



O'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

**Namuna:**

Tasviriy san'at darslarida interfaol ta'lim usullaridan foydalanishning jihatlari	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
“Assesment”			
“Insert”			
“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			

**“Tushunchalar” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”.

Tushunchalar	Sizingcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Perspektiva		
Konstruksiya		
Hajmlar		
Kompozitsiya		
Shakl hajmdorligi		




Rang gammasi		
Psixologik portret		
Rang koloriti		

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

**“Muammoli vaziyat” metodi**

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.



2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



## “T-jadval” metodi

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo'shilsalar, birinchi ustunda “+“ aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo'yadilar.

**Izoh: O'qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

**Tinglovchi:** - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;

- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

- yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi

**“T-jadval” texnologiyasi**

O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)	
+ (ha, ijobiy) afzalligi (yutug‘i)	- (yo‘q, salbiy) kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

**“Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish”**

Afzalliklari	Kamchiliklari
“Qaytar aloqa”ning ta‘minlanishi	ko‘p vaqt talab etilishi
motivasiyaning yuqori darajada bo‘lishi	tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o‘tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob‘ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi	o‘qituvchining o‘zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishining talab etilishi
o‘z-o‘zini va boshqalarni baholash ko‘nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo‘lishi
mustaqil fikrlash qobiliyatining oshishi	qaytar aloqaning ta‘minlanmasligi
<b>XULOSA</b>	

**“Blits-o‘yin” texnologiyasi**

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – .....asrlar.

Tasvirlashga nisbatan bo‘lgan qiziqish insonlarni qadimdan o‘ziga jalb etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o‘zaro muloqot qilish, so‘zlashish uchun zarur bo‘lgan. Tarixdan ma‘lumki, tasvirlarning aksariyati ovchilik bilan shug‘ullanib kelgan qadimgi odamlarning hayvonlarni qanday ov qilganliklariga asoslangan. Ular hayvonlarning yurgan yo‘llarini kuzatib, qoya va g‘orlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt o‘tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari o‘ziga hos dastlabki kompozitsiya yechimiga ega tarzda aks eta boshlagan.

Yil, sana	Sodir bo‘lgan voqealik

**“Venn diagrammasi” strategiyasi**





Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



## “Hamkorlikda o`qitish” metodi

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, tinglovchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o'qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;



- axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi;

- o‘rtoqlari bergan ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘shishga olib keladi;

- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;

- tinglovchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;

- bir-biriga ta’sir etadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari o‘rtoqlariga ta’sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o‘z navbatida ta’sir uchun ochiqlar;

- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

- o‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a’zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o‘qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;

- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;

- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati;

- hamkorlikdagi faoliyat: guruh muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### **Guruhda ishlash qoidalari:**

Har kim o‘z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi zarur;



Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;  
Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.  
Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!  
Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

**Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:**

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.
3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o'tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

**1-bosqich**

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlanadigan bo'lsin, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

**2-Asosiy bosqich**

**1.** Ta'lim oluvchilarni guruhlariga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlariga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlariga bo'ladi.

**2.** O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

**3.** O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

**4.** Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

**5.** Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash,vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.



6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

#### **Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.



### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu: Musiq ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari. Musiq ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.**

#### Reja

1. Musiq ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari.

2. Musiq ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.

**Tayanch tushunchalar:** g'oya, nazariya, taraqqiyot tendensiyalari, tamoyil, konsepsiya, qonuniyatlar, taraqqiyot, tarix, musiqiy taraqqiyot.

**1. Musiq ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar, yangilanishlar o'zining ko'lami va ahamiyati bilan muhim voqea sifatida tarixda muhirlanib qolmoqda. Ayniqsa, Respublikamizni mustaqil hayot kechirishi, tenglar ichra tengligi, o'zining kelajagini qurishda ildam qadam tashlab borayotganligi bugungi globallashuv jarayonida o'zining mustaqil rivojlanish yo'lidan sobit qadam tashlab, butun dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizning 130 yil mustabid tuzum iskanjasidagi hayotidan so'ng ozod davlat sifatidagi ilk faoliyatida kadrlar tayyorlash masalasiga asosiy e'tiborini qaratdi. 1992 yilda mustaqil davlat sifatida "Ta'lim to'g'risida"gi birinchi Qonun qabul qilindi<sup>2</sup>. Mazkur qonun O'zbekistonda ilgari erishilgan yutuqlarni saqlab qolish barobarida, eski tizimdan yangisiga o'tishda ko'prik vazifasini o'tagan bo'lsa, 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlarni amalga kiritilishi MDH Respublikalari orasida birinchilardan bo'lib, ta'lim tizimi va uning mazmun - mohiyatini bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqqan holda mutloqo yangicha dunyoqarash va talabni, qolaversa, yangi bosqichni boshlab berdi. 2020 yil 23 sentyabrda 3-bor O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun g'oyaviy mavkuraviy jihatdan milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan juda qadrlidir. Musiq ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. 2009. 128-129 b.



maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning "O'zbek modeli" hayotga tadbiiq etildi.

Respublikamizda inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyat qurilmoqda. Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti etib belgilangan<sup>3</sup>ligi fikrimiz dalilidir.

Bugungi kunda mamlakatimiz barcha sohalarda keng islohotlar maydoniga aylanib bormoqda. Mazkur islohatlar zaminida zamon va taraqqiyot talabiga to'la javob beradigan malakali kadrlar va ularni tayyorlash masalasi turibdi. Bu o'rinda oliy ta'limi tizimining o'rni va ahamiyati juda kattadir. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida 2012 yildan 6 ta bilim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlashning keng yo'lga qo'yilishi bugungi kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash tizimini sifat va samaradorligini ta'minlashda poydevor zamin yaratdi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida o'quv-uslubiy faoliyatni tashkil etish va ularni samaradorligini oshirish masalasi eng dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. O'quv va uslubiy faoliyatni tashkil etish va bu faoliyatni samarali olib borish ishlarini yanada takomillashtirish ushbu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Musiqqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari inson ruhiy olami, nozik his – to'yg'ulari, ichki kechinmalari uning ijtimoiy faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Yuksak ruhiy ko'tarinkilik, ajib his-tuyg'ular ichki kechinmalarini mutanosiblashtirishda jozibali musiqaning sehri ta'siri beqiyos ulkandir.

Ajdodlarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga tahsinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo'lganlar. Ezgu niyatlarini amalga oshirganlar.

Endilikda musiqaning jozibali, husnkor ko'lami, uning mavqei yanada kengaydi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlandi. Musiqqa mamlakatimizda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil sohadir. O'quv tarbiya jarayonida

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 150-modda.



musiqqa yosh avlodga ahloqiy-estetik tarbiya berishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi, ta'lim jarayonining bir qadar jadallashuvi samaradorligi unga bog'liq.

Musiqaviy jihatdan savodxonlikka ega bo'lishning aniq maqsad hamda vazifalari mavjud. Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda mavjud ilmiy va uslubiy yondashuv muayyan yo'nalishni belgilaydi. Musiqani o'zlashtirish, tinglash, ijro etish va undan hayotda manfaatdor bo'lish insoniy madaniylik bilan uyg'unlashib ketadi.

Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri hisoblangan musiqqa har sohada, chunonchi, ta'lim – tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, san'at ne'matlaridan bahramand bo'ladi, ertangi kunning yanada porloq bo'lishi uchun kurashadi.

Shunday ekan, musiqqa ongli faoliyat, samarali mehnat, samimiy munosabat hamda mo'tadil kayfiyat garovi bo'la oladi. Musiqqa kundalik hayotimizga qanchalik singib borsa, hayotimiz shunchalik zavqli va mazmunli o'tadi.

Mustaqillik yillarida an'anaviy qo'shiqlar va uning tarixi, ildizini o'rganar ekanmiz eng avvalo “an'ana”, an'anaviylik”, “qo'shiq”, “ashula”, “katta ashula” “an'anaviy qo'shiq” tushunchalariga izoh berib o'tishni joiz.

An'ana tushunchasi “O'zbek tilining izohli lug'atida”<sup>4</sup> “nasldan naslga o'tuvchi qoida”, ya'ni, hayotda qaror topgan va topayotgan urf-odat, udum va boshqa amallarni an'ana tarzda takrorlanib kelishi deb e'tirof etiladi. An'anaviylik esa o'z-o'zidan ushbu jarayonni doimiy ravishda, yillar mobaynida o'ziga xos shaklda takrorlanib kelishi demakdir. Shu nuqtai nazardan biz tadqiq etayotgan an'anaviy qo'shiqlar ham hayotda, kundalik turmush tarzimizda qaror topgan va topayotgan urf-odat, udum va boshqa amallarni avloddan-avlodga yillar mobaynida o'tib klishi va bu jarayonni doimiy ravishda takrorlanishidir. Yana ham oydiroq aytadigan bo'lsak, an'ana – avloddan-avlodga o'tib boradigan, odamlar va keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilib, doimiy o'tkaziladigan ijtimoiy axloq munosabatlarning umumlashgan norma va prinsiplaridir. Shu o'rinda qo'shiq<sup>5</sup> tushunchasi keng qo'llanilgan. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, qo'shiq atamasi “shlok”, “takshut”, “ir” (yir), “kug” kabi nomlar bilan qadimdan atalib kelgan. Dastlab, Mahmud Koshg'ariyning asarlarida “qoshug'” - qo'shiq, qasida, she'r tarzida atalib, so'zning ma'nosini sharhlashdagi to'rtlik ma'nosida ishlatiladi. An'anaviy qo'shiqlar haqida gap ketganda bu iboraga mutaxassislar fikriga tayanib xulosa chiqarish lozim bo'ladi. Atoqli musiqashunos olim R.Yunusov qo'shiq haqida ta'rif berib, musiqiy atama, iboralardan foydalanish amaliyotida tegishli nuqsonlar borligi haqida fikr bildirib shunday deydi – “kundalik muomilada tez-tez uchraydigan “qo'shiq” bilan “ashula”ni farqlamaslik, farqlay olmaslik ko'zga yaqqol tashlanadi<sup>6</sup>. Darhaqiqat ushbu fikrlar ayni haqiqat. Qo'shiq atamasi haqida

<sup>4</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 107 b.

<sup>5</sup> “qo'shiq” so'zi musiqashunoslikda qabul qilingan ikki xil ma'no (1-so'z va kuyning birlashuvidan hosil bo'lgan aytim namunolari, 2-band shaklli aytim janri).

<sup>6</sup> R.Yunusov. An'anaviy o'zbek musiqqa asoslari”. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2000 y., 4 b.



ma'lumot berib o'tdik. Ashula bu bir oz qo'shiqqa nisbatan murakkab janr. Qo'shiqni kundalik hayotimizdagi turli toifadagi odamlar ijro etishlari mumkin. Biroq, ashula ijrochisi ma'lum tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi yoki ustoz saboqlarini olgan bo'lishi lozim.

Tadqiqotimizning o'ziga xos o'rganishili lozim bo'lgan jihati sifatida shuni ham a'lohida ta'kidlab o'tishni joiz deb topdik. Jumladan, bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda ko'p uchraydigan "an'anaviy xonandalik", "an'anaviy qo'shiq", "an'anaviy ashulachilik", "an'anaviy mumtoz musiqa" iboralariga oydinlik kiritib, tadqiqot davomida qo'llashimiz uchun oson bo'ladigan atamani tavsif etsak. Ya'ni, aslida qanday yuritishimiz lozimligi xususida ham tadqiqot doirasida o'z firkmulohazalarni bayon etamiz.

Yuqorida "qo'shiq", "ashula" iboralarga mutaxassislar tomonidan keltirib o'tilgan ta'riflarni bayon etdik. Qo'shiq janrini hech qanday musiqiy tayyorgarligi bo'lmagan, oddiy kasb egasi bo'lgan, musiqa va san'atga qiziqishi bo'lgan fuqarolar ixtiyoriy ravishda ijro eta oladi. Chunki, qo'shiq ijro qilish uchun maxsus tayyorgarlik shart emas. Ma'lum ritmga tayanilgan holda kichik diapazonda kuylash mumkin. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, ashula janrini ijro etish uchun ma'lum ko'nikma va malaka talab etiladi. Ashula janridagi asarlarning juda ko'pchiligi asosan aruz vazndagi she'riy misralardan tashkil topadi va albatta ashulani avj pardalarda kuylash shart bo'ladi. Bu o'rinda musiqashunos olim R.Yunusovning fikrlariga tayanamiz: - "o'zbek an'anaviy musiqasiga xos ichki qonuniyatlarning eng muhim qirralaridan biri – avj masalasidir. Uni ilmiy jihatdan to'g'ri idrok etib olish ko'p chalkashliklarni oldini oladi<sup>7</sup>. Avj atamasi xususida atoqli olim I.Akbarov o'zining "Muzika lug'ati" kitobida shunday ta'rif beradi<sup>8</sup>. Avj arabcha bo'lib "cho'qqi, musiqa bayoni va rivojida eng yuqori nuqta" degan ma'noni anglatadi deb ta'rif beradi. Bu o'rinda yana musiqashunos olim R.Yunusovning avj atamasi xususidagi fikrlariga qaytamiz. O'zbek milliy musiqachilar iste'molida bu avj so'zini asosan uch toifaga bo'lib, izohlaydi. Birinchidan, avj – har qanday musiqa asarning eng baland, cho'qqi pardasining lo'nda ifodasi. Bunday keng ma'noli avj atamasidan xonandalik san'atida cheklanmagan miqyosda foydalanishni aytadi. Ikkinchidan, o'zbek an'anaviy musiqasida rivojlangan shaklning yuqori pardalaridagi maxsus tuzilma tushunilishini hamda hajmada katta, baland pardalarda bayon etiluvchi kuy tuzilmalari asosan bastakorlik ijodiyotining mahsuli ashala, katta ashula, suvora, maqom janrlarga xolsligi va uchinchidan, bir juft kuy avj so'zini qo'shilganligi holda yuritilishini, bunga misol tariqasida "Zebo pari avj", "Turk avji" kabi asarlarni keltirib o'tadi<sup>9</sup>. Demak, ashulada avj pardalar asosiy rol o'ynaydi. Ushbu tafsilotlarni e'tiborga olgan holda aytish joizki tadqiqotimiz mavzusi hisoblangan an'anaviy xonandalik masalasini bayon etishda faqat ashula, katta ashula ijrochilarini o'rganish masalasi yotadi. Shu o'rinda atoqli musiqashunos olimlar

<sup>7</sup> Yunusov R. An'anaviy o'zbek musiqa asoslari". Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2000 y., 7 b.

<sup>8</sup> Akbarov I. Muzika lug'ati. Toshkent. 1987 y., 5 b.)

<sup>9</sup> Юнусов Р. Анъанавий ўзбек музика асослари". Маърузалар матни. Тошкент. 2000 й., 8 б.





F.Karamotli<sup>10</sup> va O.Ibrohimov<sup>11</sup> tadqiqotlarida o'zbek musiqqa merosini ikki qatlamga ajratgan holda tasnif etadilar va aynan, ikkinchi qism musiqqa an'analariga an'anaviy xonandalik aytimlarini ashula, katta ashula deb kiritadilar.

Bastakor so'zi tojikcha ("basta" - bog'langan, "kor" - ish, ishlovchi ma'nolarida) kuyni tashkil etadigan unsurlarni bir-biriga bog'lovchi – demakdir; hozirda "kompozitor" (kompozitsiya etuvchi, kuy yaratuvchi) ma'nosida ishlatiladi.

**San'at haqida tushuncha.** San'at – ijtimoiy ong shakli, insoniyatning ma'naviy boyligi. Ko'p qirrali va olamni badiiy-estetik anglashning o'ziga xos vositasi. Yaratuvchilik, anglash va baholash xususiyatlari. Estetik ahamiyatga ega badiiy ijod. Hodisalar, xarakterlarni obrazli anglash. Obraz – san'atning asosiy ifoda vositasi. Ijodiy saralash. Tipiklashtirish. Umumlashtirish. Bular asosida ijodiy g'oyani, his-tuyg'ularni ifodalash.

**San'at mutaxassisligi.** Badiiy anglash ob'ekti sifatida. Inson – shaxsiy va ijtimoiy manfaatlari birligi sifatida. Kishilar, inson va tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Ham inson, ham voqelikni badiiy-estetik baholash.

San'atning yaxlitligi va ko'p qirraligi. Kompozitsiya va shakl. Mazmun va mohiyat mushtarakligi.

**San'at funksiyalari.** Asosiy funksiyalar. Ijtimoiy. Ma'rifiy. Tarbiyaviy. Etik. Kommunikativ. Tomoshaviy. Estetik. Obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. San'atning g'oyaviyligi va badiiyligi. San'atda tarixiylik va zamonaviylik masalalari.

**San'at turlari.** Asosiy strukturaviy-tasnifiy birligi. Teatr va kinoda so'z, dramatik konflikt va personajlar xatti-harakati. Musiqada ovoz va ohang. Xoreografiyada harakat va ritmika. Tasviriy san'atda: rangtasvirda rang va nur; haykaltaroshlikda plastik yechim; grafikada chiziq, shtrix, nur va soya va h.k.

**San'at janrlari.** Janr – san'at turi tarkibidagi ichki bo'linishi va nisbatan barqaror, shakllangan xislatlariga, ifodaviy-tasviriy vositalarga ega ekani.

Janrlarning modifikatsiyasi, transformatsiyasi.

Janrlar. Mavzu bo'yicha – tarixiy, zamonaviy, psixologik, ilmiy-fantastik va boshqa. G'oyaviy-emotsional xususiyatlari bo'yicha – lirik, yumoristik va boshqa.

Tuzilmasi, shakli va ijro usuliga ko'ra bo'linishi. Vokal-cholg'u, kamer-simfonik, xor, akademik, xalq, estrada ijrochiligi va boshqa.

**San'atda sintez.** Sintez tushunchasi, tarixiy ildizlari, tabiati. Ichki va tashqi shakllari.

Sintez strukturasi, komponentlari. Komponent tushunchasi. Ifoda vositalarining uyg'unlashuvi.

## **Pedagogik kadrlar tayyorlashning o'quv-me'yoriy hamda uslubiy hujjatlarini takomillashtirish**

<sup>10</sup> Кароматов Ф. Ўзбек халқи музика мероси (Йигирманчи асрда) 1 том. 1-китоб. Қўшиқ. Тошкент, 1978.

<sup>11</sup> Иброхимов О. Ўзбек халқ музика ижоди (методик тавсияновма). Тошкент. 1994 йил. 1-қисм.



## KONSEPSIYASI

“Musiqa ta'limi” ta'lim yo'nalishi mazmuni respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fani o'qituvchisi va musiqa rahbari lavozimlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydi.

Mazkur Konsepsiyani ishlash chiqishda:

1. Maktabgacha ta'lim tizimida musiqa ta'lim yo'nalishga oid mazmun “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi (2018 y.) ga muvofiq “.2.5.Ijodiy rivojlanish sohasi”

2. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishiga oid mazmun umumiy o'rta ta'lim “Musiqa madaniyati” fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar hamda fan dasturlari

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishiga oid mazmunida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoq ta'lim standarti 3141001-Musiqa xodimi kasbi bo'yicha kichik mutaxassislarining tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar (2015 y.).

Kasbiy faoliyat mazmuni quyidagi ikki ixtisoslik bo'yicha amalga oshiriladi:

1.Maktabgacha ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari musiqa xodimi.

2.Musiqa to'garagi rahbari ixtisosliklari malaka talablari hamda o'quv dasturlari tahlili qilindi.

Maktabgacha ta'lim tizimida musiqa ta'lim yo'nalishga oid mazmun “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi (2018 y.) ga muvofiq “.2.5.Ijodiy rivojlanish sohasi” sentyabrdan – may oyi oxiriga qadar 72 ta musiqa mashg'uloti o'tkazish rejalashtirilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida 1-7 sinflarda “Musiqa madaniyati” fani o'qitiladi. Haftasiga 1 soat, bir yilda 34 soatni tashkil etadi.

Umumiy o'rta maxsus kasb-hunar kollejida kasbiy faoliyat mazmunidagi (yuqorida ta'kidlanganidek) ikki ixtisoslik bo'yicha amalga oshirilmoqda. Ushbu ixtisosliklarda 6-7 tadan musiqiy fanlar o'qitish rejalashtirilgan. Ularning hech biri Oliy ta'lim pedagogika sohasidagi “Musiqa ta'limi” yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni takrorlamaydi.

Ushbu tahlil yuzasidan quyidagi taklif va xulosalarni bayon etamiz:

1. Klassifikatorida “5111100-Musiqa ta'limi” ta'lim yo'nalishi nomini “Musiqa o'qituvchisi” deb nomlash tavsiya etiladi. Sabab uzluksiz ta'lim tizimida bitiruvchi borganda bitiruvchilarga byurtmachi muassasa rahbarlari “o'qituvchi” kerak. Sizlarni diplomlaringizda “musiqa ta'limi” deb yozilgan ekan degan fikrni bildirmoqda.

2. 5111100-Musiqa ta'limi o'quv rejasi 1-Blokdagi “1.09.Matematika” fan mazmunini musiqiy matematik bilimlar asosida soddalashtirish va “Musiqiy matematika” nomi mazmuniga o'zgartirish;

3. O'quv rejada “Musiqa to'garaklarini tashkil etish” yoki “Musiqiy tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanini kiritish;



4. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat yashishini e'tiborga olib, o'quv rejadagi "Cholg'i ijrochiligi va ansambli" fani nomiin "Milliy cholg'ular ijrochiligi ansambli" nomiga o'zgartirish;

Bunda har bir talaba o'zi ijro etib kelgan musiqa cholg'usi bo'yicha ansamblda ijro etish va mahoratini oshirish bo'yicha sharoit yaratiladi.

5. Butun dunyoda fortepianoni asosiy cholg'usi sifatida keng qo'llanilishini e'tiborga olib, o'quv rejadagi "Qo'shimcha cholg'u" fanini "Fortepiano va ikkinchi cholg'u" nomiga o'zgartirish;

Ma'lumki Respublikamizdagi barcha maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida asosiy choldg'u sifatida fortepiano qo'llaniladi. Shu cholg'uni jiddiy o'rganish uchun mazkur fan kiritilayapti. Qolaversa, fortepianoni tugatgan talabalar qo'shimcha cholg'u sifatida boshqa cholg'uni ijro etish mahoratini egallaydi.

O'quv rejadagi qolgan fanlar maktabgacha ta'lim muassasasi, umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda pedagogika o'rta maxsus kasb-hunar kolejlari uchun tayyorlanayotgan kadrlarni kasbiy jihatdan bilim, ko'nikma va tajribasini oshirishga xizmat qiladi.

## **2. Musiqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.**

"Musiqa ta'limi" ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning aqliy imkoniyatlarini o'stirish, ularda badiiy estetik borliqni butun tarovati va jozibasi bilan his etishni tarbiyalash muhim pedagogik-psixologik vazifa bo'lib, ustoz-murabbiylardan tinimsiz mehnat va tashabbuskorlikni talab etadi.

Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan musiqiy fanlarning izchillik va mantiqiylik asosida rejalashtirilgan bo'lib, bakalavriat bosqichi talabalarida aqliy imkoniyatlarni ma'lum tizim asosida rivojlantirib borishga yo'naltirilgan.

Mutaxassislik fanlari qatoriga kiruvchi "Maqom asoslari", "An'anaviy xonandalik", "Cholg'u ijrochiligi va ansambli", "Vokal va zamonaviy musiqa", "O'zbek xalq musiqa ijodi", "Xor va xorshunoslik", "Cholg'ushunoslik" va qolaversa "Musiqa nazariyasi", "Garmoniya", "Musiqa asarlari tahlili", "Solfedjio" kabi fanlar talabalarning musiqiy bilim va tafakkurini, idrokini o'stirishda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Keyingi yillarda xalqimizning madaniy merosini, jumladan musiqiy qadriyatlarni o'rganish, tiklash va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, san'at oliygohlari talabalar orasida mumtoz musiqa namunalari - maqomlarni, xalq ashulalari va kuylarini o'rganish, milliy sozlarimizda chalish istagi ortib bormoqda. Ana shular e'tiborga olinib, Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasi ham takomillashtirilib, musiqiy fanlarga ajratilgan soatlar ko'pytirilmoqda.

Mazkur fanlar sarasiga "Cholg'ushunoslik" fanini ham kiritish joizdir. Ushbu fan asosan milliy sozlarimizning paydo bo'lishi tarixi, shakllanishi, tuzilishi va ularning hozirgi musiqa ijrochiligidagi o'rni haqida ma'lumot berishga yo'naltirildi.



Fan orqali talabalarda milliy cholg'ularning an'anaviy va ta'mirlangan nusxalari, tuzilishi va ijro etish mahoratini shakllantirish, shuningdek, ularda xalqimizning boy musiqiy ijodi haqida bilim va tasavvurlarni oshirishdan iborat.

Darslar jarayonida milliy sozlarning guruhlarga bo'linishi kamonli sozlar, noxun bilan chalinadigan, puflab chalinadigan hamda zarbli sozlar haqida talabalarga keng ma'lumot beriladi. Shuningdek, guruhlardagi har bir cholg'u asbobining tuzilishi, parda xususiyatlari (applikaturasi) an'anaviy va akademik (ta'mirlangan) turlarini taqqoslash yo'li bilan ularning ijro xususiyatlari tahlil etiladi.

Shuningdek, milliy sozlarimizning bastakorlik ijodiyoti bilan o'zaro munosabati, ularni yakka va ansambl (jamoaga bo'lib) chalish imkoniyatlari hamda cholg'ularimizning o'tmishi va hozirgi zamon ustoz ijrochilari ijodi bilan bakalavrlarni tanishtirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga milliy sozlarning umumta'lim maktablarida musiqqa madaniyati darsini o'tishdagi imkoniyatlari borasida ham keng ma'lumot beriladi.

Shuni aytish joizki, "Cholg'ushunoslik" fani musiqqa mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning kasbiy bilimlari va dunyoqarashini boyitish bilan birga, ularning milliy musiqiy merosimiz, maqomlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, o'z kasblariga bo'lgan muhabbat va e'tiqodlarini yanada mustahkamlaydi va shu orqali tafakkur hamda idrokni tarbiyalashga olib keladi.

Mazkur dars jarayonida talabalar jamoaga bo'lib musiqiy asarlarni chaladilar va cholg'ushunoslik fani bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni amalga tadbiiq etadilar.

Milliy sozlarimizning paydo bo'lish tarixi o'zbek milliy davlatchiligining shakllanishi tarixi bilan mushtarakdir. Manbalardan ma'lumki, milliy musiqqa cholg'u asboblarimizning tarixi olis zamonlarga borib taqalar ekan, ya'ni, eramizdan avvalgi XIII ming yillikdayoq, dastlab urma zarbli cholg'ular so'ngra shovqinli sozlar paydo bo'la boshlagan. Nega aynan urma zarbli sozlar ilk bor kashf etilishini buyuk olimlar eng qadimgi mehnat qo'shiqlari - ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liqlikda yuzaga kelganidan, deya izohlaydilar<sup>12</sup>. Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, nay, hushtak, shaqildoq va chiltor (arfa) singari cholg'ular yasaladi. Ma'lum muddatdan so'ng torli mezrobli va torli kamonli musiqqa cholg'ulari yaratiladi. Keyinchalik ko'p asrlik madaniy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos tuzilish va jarangdorlikka ega bo'lgan dutor, tanbur, rubob, g'ijjak, chang singari an'anaviy sozlar ijod qilingan. Dunyo endigina ohangni kashf eta boshlaganida Turon zaminida anchagina yutuqlar qo'lga kiritilganining o'ziyoq musiqiy merosimizning shajarasi juda uzoqligiga ishonch hosil qilish mumkinligini izohloydi.

Jamiyatning evolyusion rivojlanishi jarayonida xalq cholg'uchilari Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari xalqlarining turmushi va mehnat faoliyatiga singib inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib qoldi va bu cholg'ulardan xalqlar o'z milliy marosim hamda oilaviy bayramlarida keng

---

<sup>12</sup> Абдуллаева С. Современные азербайджанские музыкальные инструменты. Баку. 1984 г., С.5.



foydalanib kelishgan. Shubhasiz, bu davrda cholg'u ijrochiligi san'ati ham ma'lum darajada rivojlanish bosqichiga ko'tarilib, xalq orasidan mohir va iste'dodli yakkanavoz sozandalar yetishib chiqadi. Shundan so'ng yakkanavozlik ijrochiligi bilan bir qatorda asta-sekin jo'rnavozlik ijrochiligi ham shakllanib omma orasida tarqala boshladi.

Umumta'lim maktabi o'quv dasturlarida ham maqom musiqasini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab bolalar ongiga maqom musiqasini singdirish, ularda qiziqishni tarbiyalashga yo'naltirilgan kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlar o'sib kelayotgan yosh avlodda ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim omil bo'lishi, shubhasiz.

O'zbek xalqining qadimiy musiqqa merosi hisoblanmish maqomlar musiqasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish asosida bo'lajak musiqqa o'qituvchisida ijodiy tafakkurni boyitish masalasi ko'p jihatdan oliy pedagogika o'quv dargohlarining "Musiqqa ta'limi" yo'nalishida o'qitiladigan bir qancha fanlar ("Cholg'u ijrochiligi", "An'anaviy xonandalik", "Musiqqa to'garaklarini tashkil etish", "O'zbek xalq musiqqa ijodi", "Musiqqa tarixi", "Musiqqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari") ning maqsad vazifalaridan sanaladi.

Bu o'rinda dunyo xalqlari musiqqa adabiyoti va tarixi, ayniqsa o'zbek milliy musiqqa uslublari, shuningdek musiqiy nazariy qonuniyatlarni puxta o'rgatish kabi muhim masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy musiqamiz tarixini va maqom asarlarini puxta o'zlashtirish nuqtai-nazaridan yondashadigan bo'lsak, bajarilishi lozim bo'lgan ishlar hali anchaginadir. Jumladan; maqomlar tarixi va rivojlanish bosqichlari, ustoz-shogird an'analari asosida maqom asarlarini o'rgatishning metodik tomonlari, maqomlarni o'rganishdagi zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi, maqomlarning o'zaro aloqalari va ijro uslublari, shuningdek ashula va cholg'u turkumlaridan ko'plab asarlarni o'z ichiga oluvchi maxsus o'quv fanlarini joriy qilish, o'z navbatida ularning yangilangan o'quv dasturlari, qo'llanmalar, darsliklar bilan ta'minlab borish dolzarb masaladir.

Shu ma'noda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek maqomlari" maxsus kursini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Taqdim qilinayotgan maxsus o'quv fani tarixiga qisqacha nazar soladigan bo'lsak, 1991 yildan avval oliy o'quv yurtlarining musiqqa- pedagogika fakultetlari talabalari uchun tuzilgan o'quv reja va dasturlari asosan chet el hamda rus musiqqa tarixini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, qardosh-ittifoqdosh respublikalarning milliy musiqqa merosini o'rganishi uchun juda kam miqdorda o'quv soatlari ajratilardi.

Mazkur fan 80-yillarda nazariy fan sifatida fakultativ soatlar hisobida 20 soat miqdorida o'qitilgan bo'lsa, keyinchalik 26 soat ma'ruza va 34 soat amaliy mashg'ulot sifatida (VII-VIII-semestrlar) IVkurs talabalari uchun rejalashtirildi.

Respublikamizning o'z mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng, 80-yillargacha hatto o'quv rejasiga kiritilmagan maqom sinfi faniga xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini tiklash, uning chuqur ildizlarini o'rganish va ommalashtirishning muhim vositasi sifatida qaralib, maqom sinfi miqdori ancha ko'paytirildi. Mazkur



fan musiqa fakultetlarida 1999-2000-o'quv yilidan boshlab yetakchi nazariy fanlar qatoriga o'tib I-kursdan IV-kursga qadar 250 soatga yaqin o'tiladigan bo'ldi. (Shundan 26 soat ma'ruza va 222 soat amaliy mashg'ulotdir). 2005-yilga kelib, "An'anaviy xonandalik" fani o'quv rejaga kiritilib, maqom asarlari yakka mashg'ulot tarzida o'qitilib kelindi. Maqom asoslari fanining shu kunlardagi ma'ruza soatlari 46 soatga yetkazildi. 2010-yildan e'tiboran yakka tartibdagi darslar guruh darslariga aylantirilib, negadir "Maqom asoslari" fani o'quv rejadan chiqib ketdi.

Bugungi kunga kelib, maqomlar tarixi va nazariyasi, cholg'u va ashula yo'llariga oid asarlarni o'rganish masalasi "Musiqqa ta'limi" yo'nalishida olib borilayotgan bir qator fanlar tarkibida ("Cholg'u ijrochiligi", "An'anaviy xonandalik", "Musiqqa to'garaklarini tashkil etish", "O'zbek xalq musiqa ijodi", "Musiqqa tarixi", "Maktab repertuari") sochilgan holatda nazariy, amaliy, laboratoriya va mustaqil ta'lim soatlarida o'rgatilib kelinmoqda. Lekin, ushbu fanlarning o'quv dasturlarini tahlil qilganda shu jihatga e'tiborni qaratish lozimki, maqomlar tarixi va nazariyasi, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlari, namudlar, ashula va cholg'u kuylarini o'rgatishga qaratilgan mavzular to'raligicha o'z aksini topmagan, jumladan "Cholg'u ijrochiligi" fanining ishchi dasturi 1, 2 va 3-kurslarga mo'ljallangan bo'lib, unda soatlar kuyidagicha aks etadi:

Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr					
		I	II	III	IV	V	VI
<b>Laboratoriya</b>	<b>236</b>	38	38	38	30	36	56
<b>Mustaqil ta'lim</b>	<b>167</b>	28	28	28	27	22	34
<b>Jami auditoriya saotlari:</b>	<b>236</b>	<b>38</b>	<b>38</b>	<b>38</b>	<b>30</b>	<b>36</b>	<b>56</b>
<b>Umumiy o'quv soati:</b>	<b>404</b>	<b>66</b>	<b>66</b>	<b>66</b>	<b>57</b>	<b>58</b>	<b>91</b>

Ushbu jadvalda o'quv fanining kurslar kesimidagi mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar miqdorining umumiy ko'rinishi ifodalandi.

№	I-kurs		II-kurs		III-kurs	
	Mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar		Mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar		Mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar	
1	"Yallama-yorim" M.Mirzaev	3	"Shuxi janonim mening" Jo'raxon Sultonovkuyi	2	Shuxi janonim mening Jo'raxon Sultonovkuyi	2
2	"Do'loncha" O'zbek xalq kuyi	3	Qoraqalpoq xalq kuyi "Elpassalandi"	4	Qoraqalpoq xalq kuyi "Elpassalandi"	2



3	O'zbek xalq kuyi "Qari navo"	3	Farg'ona- ToshkentSegoh maqomidanNasri segoh	4	Farg'ona-Toshkent Segoh maqomidanNasri segoh	4
4	O'zbek xalq kuyi "Qashqarcha"	3	Navo maqomidan "Muxammasi bayot"	4	Navo maqomidan "Muxammasi bayot"	4
5	M.Mirzaev Yangi tanovar	3	M.Mirzaev Zavqim kelur	4	M.Mirzaev Zavqim kelur	4
6	M.Mirzaev "Bahor valsi"	3	M.Mirzaev "Bahor valsi"	4	M.Mirzaev Bahor valsi	4
7	O'zbek xalq kuyi "Norim-norim"	3	O'zbek xalq kuyi "Dilxiroj"	4	O'zbek xalq kuyi "Dilxiroj"	4
8	N.Xasanov mus. A.Odilov qayta ishlagan. "Gilos"	3	N.Porpora Prelyudiya va fugalar	4	N.Porpora Prelyudiya va fugalar	4
9	O'zbek xalq kuyi "Sharob-I"	3	O'zbek xalq kuyi "O'zganacha"	4	O'zbek xalq kuyi "O'zganacha"	4
10	M.Mirzaev musiqasi "Janon"	3	Xorazm "Dugoh" maqomidan "Peshrav"	4	Xorazm "Dugoh" maqomidan "Peshrav"	
11	O'zbek xalq kuyi "Dilxiroj"	3				
12	Sh.Raximov q. i. Ko'ngil guldastasi	3				
13	Q. Qurbonov qayta ishlagan"Qarotegini y"	2				
	<b>Jami I-semestr</b>	<b>38</b>	<b>III-semestr</b>	<b>38</b>	<b>V-semestr</b>	<b>36</b>
14	O'zbek xalq kuyi "Andijon polkasi"	3	O'zbek xalq kuyi "Norim-norim"	2	O'zbek xalq kuyi "Norim-norim"	4
15	Uyg'ur xalq raqsi "Otush"	3	O'zbek xalq kuyi "Farg'onacha"	2	O'zbek xalq kuyi "Farg'onacha"	4
16	M.Leviev musiqasi "Ohangaron"	3	"Navo" maqomidan Mo'g'ulchai navo	2	"Navo" maqomidan Mo'g'ulchai navo	4
17	M.Leviev musiqasi "G'ayratli qiz"	3	Farg'ona-Toshkent maqomidanDutor bayoti	2	Farg'ona-Toshkent maqomidanDutor bayoti	4
18	M.Mirzaev musiqasi "Zavqim kelur"	3	O'zbek xalq kuyi "Usmoniya"	2	O'zbek xalq kuyi "Usmoniya"	4
19	M.Mirzaev musiqasi "Intizor etma"	3	O'zbek xalq kuyi "Aliqambar"	2	O'zbek xalq kuyi "Aliqambar"	4



20	P. Xoliqov musiqasi “Quvnoq kuy”	3	“Rost” maqomidan Q ashqarchai savti kalon	3	“Rost” maqomidan Q ashqarchai savti kalon	4
21	G'. Qodirov musiqasi “May”	3	“Rost” maqomidan “Soqinomial savti kalon”	3	“Rost” maqomidan Soqino mai savti kalon	4
22	O‘zbek xalq kuyi “Oq terakmi ko‘k terak”	3	A. Boboxonov musiqasi “Xurram”	2	A. Boboxonov musiqasi “Xurram”	4
23	I. Hamroev “Kulcha non”	3	G'. Toshmatov musiqasi “Guljamol”	2	G'. Toshmatov musiqasi “Guljamol”	4
24	F. Nazarov musiqasi “Paxtaoy”	3	D. Zokirov qayta ishlagan “Tanovar II”	2	D. Zokirov qayta ishlagan “Tanovar II”	4
25	S. Jalilov musiqasi So‘zsiz qo‘shiq- Azizaxon	3	A. Muhamedov qayta ishlagan “Rohat”	2	A. Muhamedov qayta ishlagan “Rohat”	4
26	T. Jalilov musiqasi “Otmagay tong”	2	M. Mirzaev musiqasi “Ey gul”	2	M. Mirzaev musiqasi “Ey gul”	4
27			O‘zbek xalq kuyi “Gulbahor va tanovar”	2	O‘zbek xalq kuyi “Gulbahor va tanovar”	4
	<b>Jami II-semestr</b>	<b>38</b>	<b>IV-semestr</b>	<b>30</b>	<b>VI-semestr</b>	<b>56</b>
	<b>Jami:</b>	<b>76</b>	<b>Jami:</b>	<b>68</b>	<b>Jami:</b>	<b>92</b>

Ushbu jadvalda ko‘rinib turganidek, cholg‘u asarlaridan aynan maqomlar turkumiga kiruvchi kuylar juda ham ozchilikni tashkil etadi. Mustaqil ta’lim soatlari uchun belgilangan asarlar laboratoriya mashg‘ulotlari bilan aynan bir xilda bo‘lganligi sababli ushbu dars turi jadvalini ko‘rib o‘tmadik. I va II-kursda, ayniqsa II- va III-kursda olib boriladigan mashg‘ulot mavzulariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ikkala kursda ham, ba’zan uchta kursda ham aynan bir xildagi asarlar berilgan. Oliy pedagogika o‘quv yurtida “Cholg‘u ijrochiligi va ansambli” fani doirasida, ikkala kursda ham aynan bir xildagi asarlar ikki yil mobaynida takror va takror o‘tilgani holda milliy musiqamiz gultoji bo‘lgan maqomlarning cholg‘u turkumiga kiradigan asarlardan sanoqli asarlarning kiritilishini ijobiy baholash mumkin emas.

Taklifimiz: III-kursda maqomlarning cholg‘u turkumiga kiruvchi asarlaridan (Buzruk maqomidan; Tasnifi buzruk, Muxammasi Nasrullovi, Saqili sulton. Rost maqomidan; Garduni rost, Saqili vazmin, Saqili rag-rag. Navo maqomidan; Tarjei navo, Garduni navo, Nag‘mai oraz. Dugoh maqomidan; Peshravi dugoh, Samoi dugoh, Muxammasi Hoji Xo‘ja, Saqili Ashqullo. Segoh maqomidan; Hafifi segoh,





Garduni segoh, Muxammasi ajam, Iroq maqomidan; Muxammasi iroq, Saqili avval, Saqili kalon kabilar) kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

“Musiqiy ta’lim” yo‘nalishining “Musiqqa tarixi” fanini tahlil qilamiz. Mazkur fanga ajratilgan soatlar quyidagicha aks etadi:

№	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	
			VI	VII
1.	<b>Ma’ruza</b>	<b>72</b>	40	32
2.	<b>Seminar</b>	<b>56</b>	32	24
3.	<b>Auditori soatlari</b>	<b>128</b>	72	56
5.	<b>Mustaqil ta’lim</b>	<b>106</b>	66	40
6.	<b>Jami</b>	<b>362</b>	<b>212</b>	<b>152</b>

Ushbu fanda mavzular chet el, rus va o‘zbek musiqasi tarixi bo‘yicha bayon qilingan bo‘lib, talabalarga asosan VI-VII-semestrlarda ma’ruza, seminar va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari shaklida o‘tib boriladi. Bundan 3-kursda (VI-semestr) “Chet el musiqqa tarixi” va “Rus musiqasi tarixi” o‘tilsa, 4-kursda (VII-semestr) “O‘zbek musiqasi tarixi” rejalashtirilgan. Biz esa faqat 4-kursda olib boriladigan mashg‘ulotlar mavzulariga to‘xtaldik. Quyidagi jadvalda ma’ruza va mustaqil ta’lim mavzulari bayon qilingan. Seminar mavzulari ma’ruza mashg‘ulotida olib boriladigan mavzular bilan bir xilda bo‘lganligi sababli uning jadval ko‘rinishini keltirmadik.

Ma’ruza mashg‘uloti mavzulari va ularga ajratilgan soatlar

<b>7- Semestr</b>		
1	O‘rta Osiyoning qadimiy musiqqa madaniyati.	2
2	Ilk o‘rta asrlar san’ati.	2
3	Somoniylar davrida musiqiy hayot (IX-X asrlar).	2
4	O‘zbek xalqining shakllanish davrida musiqqa madaniyati (XI-XV asrlar).	2
5	XVI-XIX asrlarda o‘zbek xalq musiqqa madaniyati.	2
6	XIX asr oxiri - XX asr boshlarida o‘zbek musiqqa madaniyati.	2
7	O‘rta osiy musiqiy nazariy merosi.	2
8	Maqom asoslari.	2
9	O‘zbek xalq mahalliy musiqiy uslublari.	2
10	O‘zbek xalq folklor musiqqa janrlari.	2
11	O‘zbek kompozitorlar ijodida vokal musiqqa janrlari.	2
12	O‘zbek kompozitorlari ijodida cholg‘u musiqasi janrlari.	2
13	O‘zbek kompozitorlari ijodida musiqali drama janri.	2
14	O‘zbek kompozitorlari ijodida opera janri.	2
15	O‘zbek kompozitorlari ijodida balet janri.	2
16	O‘zbek kompozitorlari ijodida simfoniya janri.	2
	<b>Jami:</b>	<b>32</b>



## Mustaqil ta'lim mavzulari bayoni va ularga ajratilgan soatlar

7-semestr		
1	O'zbek hofizlari	4
2	O'zbek bastakorlari	4
3	O'zbekiston orkestrlari	2
4	V.Uspenskiy, R.Glier. A.Kozlovskiy, G.Mushel ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish	5
5	T.Sodiqov, D.Zokirov, S.Yudakov ijodiy faoliyatlari	4
6	M.Ashrafiy, M.Leviev, M.Burxonov, I.Akbarov ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish	6
7	M.Bafoev, M.Tojiev, U.Musaev ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish	5
8	A.Mansurov, N.Norxo'jaev, D.Omonullaeva. Asarlaridan parchalar ijro etish	4
9	E.Salixov va o'zbek estrada yulduzlari ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish	4
10	O'zbekiston musiqiy festivallari	2
	<b>Jami:</b>	<b>40</b>

Bundan ko'rinib turibdiki, Musiqqa tarixi fanining ma'ruza mashg'uloti jadvalidagi mavzular ro'yxatining 8-bandida faqatgina "Maqom asoslari" nomli mavzuning 2-soat hajmida berilganligiga guvoh bo'lamiz. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida kompozitorlar ijodi asarlarlaridan parchalar chalib o'rganish kerakligi ta'kidlangan, lekin o'zbek maqomlari turkumiga kiradigan kuy yoki ashulalar o'rin olmagan. Boshqa mavzularga ham O'zbek musiqasi tarixida o'rganilishi ahamiyatli ekanligini ta'kidlagan holda, maqomlarning tarixiga o'rganish 2-soat ma'ruza soati ajratilishiga qo'shilmagan bo'lar edik.

Oliy pedagogika o'quv yurtlarining "Musiqqa ta'limi" yo'nalishida o'quv rejasidagi "O'zbek xalq musiqasi ijodi" fani tahliliga to'xtalib o'tsak:

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr				
			III	IV	V	VI	VII
1	Ma'ruza	98	24	24	10	16	24
2	Amaliy	92	20	22	14	18	18
3	Seminar	96	26	20	14	18	18
4	Mustaqil ta'lim	244	69	69	28	28	50
5	Jami auditoriya soati	286	70	66	38	52	60
6	Umumiy o'quv soati	530	139	135	66	80	110

"O'zbek xalq musiqasi ijodi" fanini o'zlashtirish shatijasida talaba quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan:

- o'zbek xalqi hayotining turli tarixiy davrlaridagi eng muhim musiqiy-tarixiy jarayonlari;



- rang-barang cholg'ularini, boy ijrochilik an'analari;
- og'zaki kasbiy mumtoz musiqasi hamda hozirgi zamon O'zbekiston kompozitorlik ijodiyoti;
- o'zbek an'anaviy ashula va cholg'u janrlari, nota yozuvlari;
- an'anaviy musiqani o'rganish o'slubiyatini, janrlari va uslubiy tizimi;
- an'anaviy musiqani o'rganishga oid zamonaviy uslublari;
- og'zaki kasbiy mumtoz musiqqa va kompozitorlik ijodiyoti asarlarini tahlil etish asosiy uslublari;
- milliy musiqqa an'alarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarini aniqlash;
- akustik, ritmik, ohang, lad, tuzilish, bezak va ijroviy tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kabilar.

O'quv fanining VI va VII-semestrlarida o'qitilishi rejalashtirilgan mavzulariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu semestrda maqomlar masalasiga ma'lum darajada to'xtalib o'tilgan:

<b>VI-semestr</b>		
<b>1</b>	An'ana va uslub. Ijrochilik maktablari.	4
<b>2</b>	O'zbek mumtoz musiqasining tarixiy taraqqiyoti.	4
<b>3</b>	Maqom tushunchasining tariflari, uning turli mahalliy variantlari	4
<b>4</b>	"O'n ikki maqom" tizimi	
<b>Jami</b>		<b>16</b>

<b>VII-semestr</b>		
<b>1.</b>	Maqomlar. Buxoro shashmaqomi.	4
<b>2.</b>	Xorazm maqomlari	8
<b>3.</b>	Farg'ona-Toshkent maqom turkumlari	4
<b>4.</b>	An'anaviy musiqqa ijrochiligi	4
<b>5.</b>	Mustaqillik yillarida mumtoz musiqqa rivoji	4
<b>Jami</b>		<b>24</b>

Shunisi ma'lumki, bu kursda maqomlarga har holda nisbatan kengroq o'rin berilgan.

Amaliy, seminar va mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlarda ma'ruza mavzularini chuqur tahlil qilish hamda o'zlashtirish rejalashtirilgan.

Ushbu fan talabalarining maqomlarni o'rganishlariga asos bo'la oladi.

Ammo, taklifimiz shuki;

- maqomlarning o'zaro munosabatlari,
- maqomlarni o'rgatishda ustoz - shogird munosabatlari,
- maqomlar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar,
- maqomlar targ'iboti masalalari,
- maqomlarning tarkibiy tuzilishlari,
- maqomlarning qadimiy va zamonaviy yozuvlari,



- maqom asarlari asosida yoshlarning ijodiy tafakkurini yuksaltirish masalalari,
- maqomlarni o'rgatishda zamonaviy metod va texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash masalasi,
- maqom sho'balarining ijrolari,
- maqom ustozlari va ularning ijro uslublari kabi mavzular berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

“Musiqqa to'garaklarini tashkil etish” o'quv fani ham pedagogika oliy o'quv yurtlarining 2-kursi (III-semestr)da o'qitilishi rejalashtirilgan bo'lib, fanga ajratilgan soatlar hajmini quyidagi jadvalda keltirib o'tdik:

Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
		III
Ma'ruza	36	36
Amaliy	40	40
Mustaqil ta'lim	40	40
Jami auditoriya soati	76	76
Umumiy o'quv soati	116	116

Jami 116 umumiy soatni o'z ichiga olgan fanning 76 soati auditoriya mashg'ulotlarini tashkil etadi. Mazkur fan bo'yicha talabalarga umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv jarayonidan tashqari mustaqil ta'lim sifatida musiqiy to'garaklarni tashkil etish va ushbu to'garaklarda talabalar sozandalik va xonandalikdan olingan bilimlarini shakllantirish bo'yicha nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.

Shuningdek; fanning vazifalaridan kelib chiqib, talabalarga 36 soat ma'ruza mashg'ulotlari jarayonida o'zbek xonandaligi, xor ijrochiligi, vokal, an'anaviy xonandalik, estrada hamda cholg'u ijrochiligi, (san'at turlari bo'yicha) mashg'ulotlarini olib borish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalarning mazmun-mohiyatini o'z ichiga olgan mavzularni bayon etishdan iborat. 40 soatni o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlarda esa talabalarga hammasi bo'lib 7ta ko'shiq o'rgatiladi.

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Ajratilgan soat
<b>3- Semestr</b>		
1	So'lim. I.Ikromov musiqasi. G'.Saotiy she'ri.	4
2	Dilxiroj. Muqimiy g'azali.	6
3	Rost maqomidan. Qashqarchai rost.	6
4.	Ulkun jonon. Muqimiy g'azali.	6
5	Duo qiling. D.Qodirov musiqasi. N.Hamidova sheri.	6
6	Ayol. D.Qodirov musiqasi. N.Holmirzaeva she'ri	6
7.	Laziz. Huvaydo g'azali. A.Abdurasulov musiqasi.	6
	<b>Jami:</b>	<b>40</b>



Mustaqil ta'lim mashg'uloti uchun ajratilgan 40 soatning mavzular jadvalini keltirib o'tmadik, chunki ushbu mavzular ma'ruza mavzulari bilan aynan bir xil, ya'ni to'garaklar tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar xususida boradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida aynan maqomlar ijrosini o'rganish bo'yicha ham o'quv fani mashg'uloti olib boriladi. Avvalgi "Maqom asoslari" fani o'rnida joriy o'quv rejasida "An'anaviy xonandalik" kiritilgan.

Ushbu fanning o'quv soatlarini tahlil qilamiz:

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr			
			IV	V	VI	VII
1	Ma'ruza	-	-	-	-	-
2	Amaliy	162	60	38	36	28
3	Mustaqil ta'lim	130	50	27	27	26
Jami auditoriya soatlari:		162	60	38	36	28
Umumiy o'quv soati:		292	110	65	63	54

Demak, o'quv fani 2; 3; 4-kurslarda olib boriladi. Bulardan ma'ruza mashg'uloti uchun soatlar ajratilmagan, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun esa har bir semestrda 27 soatdan 60 soatgacha mashg'ulotlar olib borilishi mo'ljallangan.

Quyidagi jadval asosida o'quv fanida o'rganilishi lozim bo'lgan asarlar va ularga ajratilgan soatlar miqdori bilan tanishib chiqsak:

№	II -kurs		III-kurs		IV-kurs	
	Mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar		Mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar		Mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar	
1	D.Zokirov – "Ko'rmadim" A.Navoiy	4	Yor mehri. O'zbek xalq qo'shig'i.- A.Navoiy.	4	Oromijon. Bobur g'azali.	4
2	Ey sarviravon. S.Kalonov musiqasi, Nodira g'azali	4	Sharob-1 . Bobur g'azali. O'zbek xalq qo'shig'i	6	O'ynasin. Uyg'un she'ri. T.Jalilov musiqasi.	6
3	Otmagay tong. T.Jalilov musiqasi.	4	O'zing. Chokar g'azali. O'zbek xalq qo'shig'i.	4	Aylagach. A.Navoiy g'azali. H.To'xtasinov musiqasi.	4
4	"Saraxbori Dugoh" taronalari	4	Mubtalo bo'ldim senga. A.Navoiy g'azali. K.Jabborov musiqasi	6	Qo'shchinor. A.Navoiy g'azali	6
5	Sallamno. N.Hasanov musiqasi. Vasfiy	4	To'lqin. A.Navoiy g'azali. O'zbek xalq qo'shig'i.	6	O'zing. Chokar g'azali. O'zbek xalq qo'shig'i.	6



	g'azali					
6	“Segoh” Xurshid g'azali	4	Bayot-2. A.Navoiy g'azali. O'zbek xalq kuyi.	6	Nasrullo. A.Navoiy g'azali.	6
7	So'lim. S.G'.Soatiy ijro yo'li. I.Ikromov musiqasi.	4	Andijon samosi. Muqimiy g'azali.	6	Guluzorim. A.Navoiy A.Abdurasulov mus.	6
			<b>Jami: V-semestr</b>	<b>38</b>	<b>Jami: VII-semestr</b>	<b>28</b>
8	Ey nozanin. J.Sultonov musiqasi. Muqimiy g'azali.	4	Dugoh husayn-4. O'zbek xalq qo'nig'i.	6		
9	Qo'shchinor. A.Navoiy g'azali.	6	Qashqarchai mustahzodi navo. Furqat g'azali.	6	-	-
10	Ulkun jonon. Muqimiy g'azali.	4	Soqinomai mustahzodi navo. Nishotiy g'azali.	6	-	-
11	“Farg'onacha jonon-2” Muqumiy g'azali.	4	Ul parivash. Muqimiy g'azali.	6	-	-
12	Xanuz. A.Navoiy g'azali.	4	Sayyora. Hamza g'azali.	6	-	-
13	Judo. A.Navoiy g'azali Yu.Rajabiy musiqasi.	4	Nazzora qil. K.Jabborov musiqasi. A.Navoiy g'azali	8	-	-
14	“Dilxoroj” – Fuzuliy g'azali.	6	Qo'qon ushshog'i.- Yu.Saryomiy g'azali.	8	-	-
	<b>Jami: IV -semestr</b>	<b>60</b>	<b>Jami: VI –semestr</b>	<b>36</b>	-	-

Asarlarni tanlashda o'quv fani dasturi muallifi D.Qodirov milliy musiqamiz asoschilaridan biri bo'lgan Yu.Rajabiy tomonidan chop etilgan “O'zbek xalq musiqasi” kitobining 2, 3, va 4 tomlaridagi asarlardan foydalangan. Garchi ushbu asarlarning ba'zilar maqomlar tarkibiga kirsada, Shashmaqom asarlari to'g'risida talabada to'liq fikr shakllanmaydi. Maqomlar parda, usul va lادلarning o'zaro munosabatlar tizimida qaror topganini hisobga oladigan bo'lsak, Shashmaqomda, Xorazm maqomlarida hamda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarida uchraydigan turli xildagi usul va lادلarda keladigan maqom asarlarini talabalarga o'rgatib borish muhimdir. Afsuski, muzkur fan Shashmaqom hamda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan ba'zi bir ashulalar (Soqinomai mustahzodi navo, Segoh, Bayot-2, Dugoh husayn, Qarqarchai mustahzodi navo, Saraxbori dugoh) ni o'z ichiga



olgan va qolgan barcha ashulalar bastakorlar tomonidan maqomlar asosida yaratilgan asarlar bo'lib, ularning barchasi Farg'ona – Toshkent uslubida ishlanganidir. 2ta asarni Buxoro Shashmaqomidan ekanligini inobatga olamiz, xolos. Bunday fikr yuritishimizga sabab shuki, Shashmaqom tarkibida cholg'u yo'llari bilan qo'shib hisoblaganda 250 dan ziyod bir-biridan go'zal o'lmas asarlar mavjud. Shulardan aaytaylik 20ta asardasturga kiritilganda ham talabalarda maqomlar to'g'risida to'liq tasavvur hosil bo'lmaydi. Xorazm maqomlari yoki shu uslubda ishlangan asarlardan ham namunalar yo'q.

O'sib kelayotgan yoshlarga Vatanimiz hududlariga mansub bo'lgan an'anaviy mumtoz asarlarimiz, "Shashmaqom"dagi ladlar va usullarning farqli xususiyatlarini namoyon etuvchi asarlardan dasturga kiritmasak ularda qanday qilib musiqiy-estetik qobiliyatni yoki mustaqil ijodiy tafakkurni shakllantiramiz?

Talabalarining musiqiy tafakkuri va idrokini yuksaltirishning axborot texnologiyalari yana bir vositadir. Milliy qadriyatlar, ayniqsa mumtoz musiqqa asosida oliy musiqqa ta'limida tahsil olayotgan bakalavrlarning aqliy imkoniyatlarini, ularda musiqiy tafakkur va idrokni yuksaltirish uchun barcha mavjud ish usullarini qo'llash taqozo etilmoqda. Shu jumladan, hozirgi sharoitda ta'lim sohasiga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarning jadal kirib kelayotganligi sababli, maqomlarning jozibali, maftunkor, o'ziga jalb etuvchi, tinglovchining hissiyotlariga ta'sir etib, unda turli kayfiyat va kechinmalarni uyg'otuvchi kuchini bakalavrlarga ushbu vositalar orqali yaqqol ko'rsatish, ularda mumtoz musiqamizga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otish o'ta muhimdir.

Musiqqa ta'limi tizimida talabalar bilan ishlab, ularda musiqiy tafakkur va idrokni yuksaltirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin.

Yaqin vaqtlargacha o'quv mashg'ulotlarida qo'llanib kelingan audio va videotexnika vositalari faqatgina berilgan musiqiy material: maqom sho'balari hamda turli musiqqa janrlariga xos asarlarni eshittirish va ko'rsatish imkoniga ega, xolos. Biroq, bugungi kunda ushbu vositalar izlanuvchan o'qituvchi va talabalarni qoniqtirmaydi.

Bugungi kun talabi darajasida yondashib, oliy musiqqa ta'limida musiqiy fanlarni amaliy mashg'ulotini o'qitish jarayonida talabalar bilan ishlash faoliyatini olib ko'radigan bo'lsak, fan doirasida berilgan maqom asarining nota matnini tahliliy o'rganish, notalarni nomlari bilan aniq intonatsiyada kuylash, asarda uchraydigan turli intervallar, dinamika va ijro sur'atini aniq tasavvur etgan holda kuylash, shuningdek, notalarni solfedjio qilib kuylash talab etiladi.

Bundan tashqari, asarda uchraydigan murakkab parchalarni alohida mashq qilish, asarlar va ularning parchalarini tahliliy tinglab o'z xulosasini chiqarish vazifasi qo'yiladi. Bu ko'pqirrali badiiy musiqiy faoliyatni yuqori saviyada bajarish uchun nota ijrosini kuzatish, tinglash va ko'rish, ya'ni audiovizual idrok etish maqsadga muvofiq.

Ushbu ta'limiy vazifalarning barchasini yuqori saviyada amalga oshirishda eng oxirgi kompyuter dasturlari qo'l keladi. Mazkur zamonaviy kompyuter dasturlari sirasiga hozirgi kunda dunyo musiqqa amaliyotida keng tarqalgan va qo'llanilayotgan "**Final**" ("*Finale*") hamda "**Sibelius**" ("*Sibelius*") nota matn



muharriri dasturining 1 – 6 versiyalarini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu kompyuter dasturlari zamonaviy musiqqa amaliyotini uning nazariy asoslariga tayangan holda amaliy tarzda aks ettirish imkoniga egadir.

Jumladan, “*Sibelius 4*” nota matn muharriri dasturi vositasida:

- nota yo‘liga notani yozish;
- uni tahrir qilish;
- tinglash jarayonida qaysi nota ijro etilayotganligini real tarzda kuzatib borish;
- musiqqa asarini boshqa tonallikka transpozitsiya qilish;
- musiqqa asarini oldingi tonalligiga qaytarish;
- ma’lum nota matnini nusxalash;
- tinglangan musiqqa asarining notasini avtomatik tarzda ekranda namoyish etish va zarur bo‘lganda qog‘ozda bosib chiqarish hamda boshqa ko‘pgina operatsiyalarni bajarish mumkin.

### **Xulosalar va takliflar**

1. Keyingi yillarda musiqqa ta'limi yo'nalishi talabalarida ma'naviy yuksalish yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Buning zamirida o'zbek xalqining milliy va tarixiy madaniy taraqqiyoti, yuqori darajadagi ma'naviyati, milliy qadriyatlarimiz, musiqqa nisbatan shakllangan yuksak hurmat-ehtirom va go'zal an'analarning ta'siri bor.

2. Musiqqa ijrochiligida talabaning o'zi predmet faoliyati, ya'ni sub'ekt emas, balki ob'ekt sifatida ishtirok etadi. Demak, faqat boshqa kishilar (professor-o'qituvchi, murabbiy, musiqqa rahbari, o'rtoqlari) emas, o'zi uchun ham tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

3. Talabalarda tafakkur va idrok shakllanishini tarbiyalashda uni jismoniy va psixologik jihatdan tayyorlashni yo'lga qo'yish vazifalarini to'g'ri hal etish zarur.

4. An'anaviy xonandalik va musiqqa tarixi mashg'ulotlarida Sharq allomalarining mumtoz musiqasi va uning tarixiy taraqqiyoti bosqichlari borasidagi fikr, g'oya va qarashlaridan keng foydalanish - talaba-yoshlarning umumiy kasbiy o'sishi, kamolotga erishuvi hamda milliy madaniy merosimizga ijobiy munosabati shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

5. Mumtoz musiqani tinglash va kuylash bakalavrdan jismoniy va psixologik kuchlanishni talab qiladigan faoliyat sohasidir.

6. Musiqqa ijrochiligi faoliyatining yakuniy natijasini bakalavr ongida musiqqa borasida shakllangan fikr va tasavvurlar, qolaversa, musiqqa ijrochiligi ko'rik-tanlovlari, konsertlar tashkil etadi. Ushbu jamoaviy badiiy faoliyat turlari talabalarning har tomonlama takomillashgan, barkamol, aqlan yetuk bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

Ayniqsa, musiqani chuqur va puxta o'zlashtirish talabalarning tafakkur va idrokini takomillashtirishi hamda ularda kasbiy yetuklikni ta'minlashda yuqori natijalarga olib kelishi muqarrar.





## Ilmiy amaliy tavsiyalar

Olib borilgan mazkur ilmiy tadqiqot natijasi asosida kuzatish va o'rganishlardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy xulosalar bayon etiladi:

- Talabalarga musiqqa musiqasi haqida ma'lumot berishda o'tmish allomalarimizning musiqqa hamda uning inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri borasida ma'lumotlar berishni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish;
- Talabalarda mumtoz musiqani o'rganish bilan bog'liq uchraydigan ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- Muntazam amalga oshiriladigan musiqqa sho'balari ijrosi jarayonida irodaviy chiniqishni tarbiyalash;
- Oliy ta'lim muassasalarining musiqqa ta'limi yo'nalishida "Maqom asoslari", "An'anaviy xonandalik" va "Musiqqa tarixi", "O'zbek xalq musiqqa ijodi" kabi fanlarini o'qitish sifatini zamonaviy multimediyaga vositalari yordamida amalga oshirish;
- oliy o'quv yurtlari bakalavrlari o'rtasida musiqqa ijrochiligi bo'yicha ko'rik - tanlovlar sonini ko'paytirish hamda ularning sifatiga e'tiborni qaratish;
- pedagogika oliy o'quv yurtlarida mumtoz musiqasi bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini muntazam olib borish, ya'ni taniqli, el sevgan xonanda va sozandalar, bastakorlar, maqomdon ustozlar bilan suhbat va kechalarni muntazam tashkil qilish;
- Pedagogika oliy o'quv yurtlari kafedralarining professor - o'qituvchilari tomonidan ota-onalar va talabalar o'rtasida mumtoz musiqasi va uning inson kamolotida tutgan o'rnini mavzusiga oid suhbat, debat, munozara va disputlar tashkil qilish;
- Oliy o'quv yurti talabalari uchun professor-o'qituvchilar tomonidan musiqqa bo'yicha suhbat, ma'ruza-konsertlar, ko'rgazmali chiqishlar tashkil qilish va o'tkazish;

Yuqoridagi ilmiy-uslubiy va tashkiliy tadbirlar ma'lum me'yor, mavjud talablar doirasida bajarilsa, bakalavrlarda musiqiy tafakkur va idrokni shakllantirish imkoniyatlari yanada kengayadi.

?	<b>NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:</b>
---	---------------------------------------------

1. San'at haqida tushuncha.
2. Qanday san'at turlari mavjud.
3. Janr tushunchasi
4. Vokal-cholg'u, kamer-simfonik, xor, akademik, xalq, estrada ijrochiligi va boshqa.
5. San'atda sintez.
6. Sintez tushunchasi, tarixiy ildizlari, tabiati. Ichki va tashqi shakllari.
7. Sintez strukturasi, komponentlari.
8. Komponent tushunchasi.



9. Ifoda vositalarining uyg'unlashuvi.
10. Ovozlar klassifikatsiyasi haqida gapirib bering.
11. Jahon operasi yulduzlarini sanab bering.
12. L.Pavarotti, Sh.Mills, T.Xempson, P.Burchuladze kabilardan qaysi biri zamonamizning eng atoqli tenori hisoblanadi?
13. "Shashmaqom" ashula bo'limi tarkibi ayting.
14. O'zbekiston estrada qo'shiqchiligidagi stilistik yo'nalishlar
15. "Etno-jaz" uslubi nimaga tayanadi?
16. N.Abdullaeva, F.Zokirov, K.Razzokovalarning ijodidagi ijro uslubi?

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T.1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.1997
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.: Sharq 1998 y-182 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. T.: O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y 1-3 betlar.
5. Alimov F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, «Musiqqa», 2004.
6. Dadamuxamedov A. Rubob prima darsligi. Toshkent, 2004.
7. Ergashev G'. Afg'on rubobi darsligi. Toshkent, 2004.
8. Nurmatov X. Qashqar rubobi. Toshkent, 2003.
9. Toirov M., Petrosyans A. Musiqqa asboblari - «Nay». Toshkent, 2002.
10. Odilov A., Lutfullaev A. Musiqqa asboblari – «Chang». Toshkent, 2002
11. Qosimov R. Musiqqa asboblari – «Ud». Toshkent, 2002.
12. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002.
13. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent, 1997.
14. Toshmuxamedov M. G'ijjak darsligi. Toshkent, 1996.
15. Petrosyans A. Instrumentovedenie «Uzbekskie narodnye instrumenty». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.
16. M.Asilov, F.Vasilev. Toshkent, Dutor darsligi. 1987.
17. Varelas S. Partitura o'qish kursi. T., "O'qituvchi". 1984.
18. Gienko B. Instrumentovka (dlya orkestra uzbekskix narodnyx instrumentov). Tashkent, 1970.
19. Abdukarimov M. "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2005 y
20. Lutfullaev A . O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.: Musiqqa.



## **2-mavzu. Musiq ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-tadqiqot masalalari. Musiq ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.**

### **Reja:**

1. Musiq ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-tadqiqot masalalari.
2. Musiq ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

**Tayanch iboralar:** musiq o'qituvchisi, zamonaviy talab, ilmiy-tadqiqot, professiogramma, mutaxassislik modeli.

### **1. Musiq ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-tadqiqot masalalari.**

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so'nggi yillarda umumiy tarzda "modernizatsiyalash" tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Falsafiy talqinda ifoda etganda miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga aylanadi. O'rta asrlarda agrar xarakter kasb etgan jamiyat ilm-fan, texnika, san'at va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan industrial jamiyatga aylandi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo'ladi. Jumladan, ta'lim sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir. Ta'lim tizimini yangilash – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishini talab qiladi. Mazkur innovatsion jarayon shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta'lim tizimining barcha sohalarini to'la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimining innovatsion ta'lim jarayonida quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir musiq kasbidagi shaxsning to'laqonli ta'lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash; - uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish;

- yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;

- davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;



- musiqqa ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ot-onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirish.

Barcha davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston sharoitida ham ta'lim tizimini modernizatsiyalashda davlat, jamiyat, mahalliy va ijtimoiy tashkilotlar, yuqori hamda quyi boshqaruv organlarining o'rni va roli, ular o'rtasidagi o'zaro birlik, hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini innovatsion ta'lim resurslari asosida qayta qurishda, uning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar sanaladi:

- elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish;

- o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish;

- musiqqa san'atining o'quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan mustaqillik o'zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Musiqqa ta'limining tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlarini quyidagi ko'rinishda tasavur etish mumkin. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Musiqqa ta'limi-tarbiyasi jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbqiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Avvalam bor texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san'at, “logos” – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Musiqqa ta'limi texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini yanada rivojlantirish, kasbiy (ijodiy) qobiliyatni rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Musiqiy pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga



nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi hamda asosiy diqqatni o’quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. Musiqiy pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko’zlagan o’qitish va boshqalarni o’zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi (YuNESKO). O’z mohiyatiga ko’ra musiqiy pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi. Musiq ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g’oyasi o’tgan asrning boshlarida G’arbiy Yevropa va AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o’rtaga tashlandi. Mazkur g’oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o’quv mashg’ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko’maklashuvchi usul va vositalar yig’indisi” tarzida talqin etildi hamda o’quv jarayoniga o’quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko’rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi. XX asrning 50-yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo’llash “ta’lim texnologiyasi” yo’nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etildi, asosiy e’tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig’imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta’lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob’ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o’quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o’rganishga alohida urg’u berildi. 60-yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko’rila boshlandi. Dasturiy ta’lim talabalarga muayyan bilimlarni alohida qism holda emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta’lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan “Dasturiy ta’lim va o’rgatuvchi mashinalar bo’yicha birlashgan Qo’mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o’zida ta’lim maqsadlari, ularni o’zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o’zgartirish majmuasini to’laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi.

Musiq ta’limida nazariy asoslari, g’oyalari, gipotezalari, qonuniyatlari va tamoyillari bir necha jihatni o’zida aks ettiradi:



Birinchi, musiqqa ta'limi va tarbiyasi hamda yuksak ijrochilik mahoratiga ega shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi;

ikkinchi musiqiy pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum musiqiy fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xosligi;

uchinchidan, asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (modul)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi.

O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun "yadro", "o'zak" sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarga mavjud fanlar sohalari bo'yicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo'lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o'zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo'yicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bo'lish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi.

Musiqqa madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Musiqqa madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar "soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari" g'oyasi yetakchi o'rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

Musiqqa ta'limi mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. "humanus" – insoniylik, "humanitas" – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini,



insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Musiqqa san'ati vositasida esa insonparvarlashtirish – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Musiqqa ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'rganib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi. O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Musiqqa ta'limining uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarining mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar. Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbqiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi. Musiqiy ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin. Ular quyidagilardir:

- ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining o'zida yaxlit as ettira olishi;



- o'zida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi;
  - g'oyaviy jihatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi;
  - o'quv materialining zarur axborotlar bilan to'liq ta'minlanganligi;
  - o'qitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qo'llash imkoniyatini ta'minlanganligi;
  - ta'limning ko'rgazmaliligi va barcha uchun ochiqligini ta'minlash tamoyiliga egaligi;
  - ko'p funksiyali ta'lim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatatsiya qilish imkoniyatining mavjuliigi;
  - pedagogning talabalarga mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga ko'malashish darajasi O'qitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali qo'llash pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog'liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo'llanilishiga ko'ra ham baholash mumkin. Bunda quyidagi mezonlar muhim ahamiyatga ega:
    - pedagogning texnologik madaniyatga egaligi;
    - pedagogning pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida tajribaga egaligi;
    - pedagog tomonidan pedagogik texnologiyalarga "ijodiy" o'zgarishlar kiritilishi va ularning qayta shakllantirilishi;
    - pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik negizida muvaffaqiyatli vaziyatlarning qaror topganligi;
    - pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik;
    - pedagogik texnologiyalarning talabalar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashdagi imkoniyatlarga egaligi;
    - talabalar o'quv-bilish faoliyatining ijobiy ahamiyat kasb etishi
- Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotning muhim yo'nalishi sifatida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan e'tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish quyidagi shartlar asosida ta'minlandi.

## **2. Musiqqa ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.**

O'zbekiston Respublikasida 2017 yildan barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilishi boshlandi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan keng islohotlar o'qituvchining o'z ustida ishlashi, yangilik va innovatsiyalarga bo'lgan talabni bir qadar oshirdi. Har bir o'qituvchining shaxsiy, tabiiy va individual xususiyatlari bo'lib, hozirgi zamon o'qituvchisi mutaxassisligi modelini loyihalashtirish lozim. O'qituvchi mutaxassisligi modelini umumiy va yagona holda tuzish, eng muhimi uning o'z xususiyatlarini rivojlantirishi, o'ziga xosligini saqlab qolishi, o'z qiziqishlariga





muvofig holda ilgari intilishiga imkon berish zarur. Mazkur masalada ko'p yillardan buyon ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, lekin musiqa o'qituvchisi mutaxassisi modelini yaratish va uni amalda qo'llash bo'yicha olib borilgan ishlar hali yetarli emas deb hisoblaymiz, chunki davr, zamon, taraqqiyot o'zgarishi musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasiga qo'yiladigan talablarni o'zgartirishni va takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Mazkur mavzuning asosiy maqsadi ham xuddi ana shundadir. Ushbu jaryonlar musiqa ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni belgilab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. 2018-2019 o'quv yilidan Respublikamizdagi 15 ta OTMda san'atshunoslik fakulteti tashkil etilib, ularda musiqa ta'limdan tashqari "Cholg'u ijrochiligi" (turlari bo'yicha), va vokal ijrochiligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Mutaxassis modeli bu – aniq bir kasb bo'yicha mutaxassisning umumlashgan obrazli tuzilmasi bo'lib, u muayyan tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi<sup>13</sup>. Uzluksiz ta'lim tizimining mazmuni va uning ilmiy-nazariy asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlari o'qituvchining umumiy, kasbiy, ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini zamon talablariga mos bo'lishini taqozo etadi<sup>14</sup>. Shuni alohida e'tiborga olgan holda ta'kidlash joizki uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchisining mutaxassislik modeli singari ayni paytda umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisining mutaxassislik modelini tuzish bugungi zamonaviy fan o'qituvchisining barcha xususiyatlarini ko'z oldimizga keltirish imkonini yaratadi. Shu jumladan musiqa o'qituvchisi model asosini pedagogga qo'yiladigan talablar tashkil etib, u o'zida shaxsning eng yuksak fazilatlarini, pedagogik mahoratini, mutaxassislik nuqtai nazardan o'z bilimi, ilmiy dunyoqarashi, sohasi bo'yicha malaka va tajribaga egaligi, o'quvchilarni fan nuqtai nazardan o'qita olish, tarbiya berish va ta'lim oluvchilar bilimlarini adolatli baholay olish va nazorat qila olish kabi bir qator tarkibiy qismlarni mujassamlashtiradi.

Ushbu masala yirik pedagog olim J.G'.Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida respublika o'qituvchilari shaxsining kasb uchun ahamiyatli xususiyatlari sifatida kirishimlilik, hissiy barqarorlik, yetakchilik, ijtimoiy yetuklik, ishonuvchanlik, ijtimoiy jasorat, dadillik, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat qilish, qo'zg'aluvchanlik, taranglik kabi jihatlarni belgilab bergan<sup>15</sup>.

Nazarimizda, o'qituvchining pedagogik faoliyatiga yordam beradigan fazilatlariga ilmga chanqoqlik, kirishimlilik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, intizomlilik, fidoyilik, mahribonlik, bag'rikenglik, odamoxunlik, xushmuomalalilik<sup>16</sup> kabi bir qator ijobiy shaxs fazilatlarini kiritish ham maqsadga muvofiqdir, chunki yuqorida ta'kidlangan modelning tarbiyalay olish qismiga

<sup>13</sup> [www.Humanties/edu/ru/db/msg/](http://www.Humanties/edu/ru/db/msg/).

<sup>14</sup> Жўраев Р. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга оширишдаги умумий ўрта таълим вазифалари // Педагогик маҳорат журнали. 2/2001., 2-10 бетлар.

<sup>15</sup> Йўлдошев Ж.Ф. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). - Т.: "Ўқитувчи", 1998.- 208 б.

<sup>16</sup> Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.-Т.: "Ўқитувчи", 1992. -160б.



yuqori darajali madaniyat va ma'rifat, shaxsiy odob namunasi, nufuzi, vatanparvarlik va burch hislari, gumanitar va gumanistik tayyorgarlik, o'quv tarbiyaviy ishlarning tashkili kiritilgan. Mazkur talablarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalar hisobga olinishi va aniq belgilanishi kerak edi.

Bu ishda yangilik sifatida o'qituvchining umumlashtirilgan modelida pedagogning o'qita bilish va tarbiyalay olish vazifalarining ajratilishi aslida hali ko'p ilmiy yo'nalishlarga asos bo'ladi, chunki bu ikki faoliyat yagona ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan, Sharq pedagogikasida<sup>17</sup> bir butun holda qo'llaniladigan faoliyat turi xisoblanadi. Shuningdek musiqa o'qituvchisining mutaxassislik modeli, garchan bir necha bor tavsiya etilayotgan bo'lsada, undagi talablar o'qituvchining mutaxassislik ixtisoslashgan modelini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Modelning ta'lim oluvchilar bilimni adolatli baholay olish va nazorat qila olish tarqibiy qismiga talabalarning standartlangan testlarni ishlab chiqish va qo'llay olish kiritilgan. Shuni qayd etish kerakki, musiqa o'qituvchisining mutaxassislik modelida tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va tajribalarini nazorat qilish va baholash, o'quv-tarbiya jarayonidan olingan natijalarni tahlil qilish va mazkur jarayonning borishiga tegishli o'zgartirishlar kiritish kabi yana bir muhim vazifasi kiritilgan bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas va eng muhim zaruriy qismi sanaladi. Shu sababli, pedagogning ushbu tayyorgarligini uning metodik tayyorgarligidan ajratish mumkin emas.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, endilikda musiqa o'qituvchisi modelida maqom san'ati sirlarini egallash, uning struktura (tarkibiy) unsuri sifatida o'rin olishi shart bo'lib qoldi.

Bu jarayonda san'atshunoslik, musiqashunoslik, folklorshunoslik, pedagogika, psixologiya sohasidagi adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatish, ilg'or ish tajribalarini o'rganish, qiyoslash, umumlashtirish tajriba-sinov va matematik statistika usullaridan keng foydalanildi. Respublikamizda tayyorlangan pedagoglarning umumlashtirilgan modelining tahlili va uning bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yana bir qator vazifalarni qo'yilishi bejiz emas. Chunki butun dunyo ta'lim tizimida bo'lgani kabi, uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan talablar davr va zamon o'zgarishlari bilan takomillastirilib, yangi-yangi innovatsion g'oyalarni asosida rivojlantirilib, kam mehnat sarflab, ko'proq natija olish uchun harakat qilinib boriladi. Bu holat bevosita musiqa ta'limi o'qituvchisining mutaxassislik modeli xususiyatlariga ham taalluqlidir. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi asosiy masalalarni kiritish va ilmiy-pedagogik nuqtai-nazaridan qayta ishlash lozimligini ko'rsatdi. Shu sababli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida har bir fan o'qituvchisi, shu jumladan, musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining pedagogik faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda zamonaviy modeli va unga mos holda professiogramma tuzish zaruratini keltirib chiqaradi.

---

<sup>17</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар (Ўзбекистон файласуфлар жамияти). - Т.: "Ўзбекистон", 2001. – 45-49 б.



Mazkur modelning asosini musiqqa o'qituvchisi tashkil qilib, u shaxs sifatida:

- yuksak ma'naviyatli va madaniyatli;
  - uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish uchun istiqbol rejalarni ilgari surish va hal etishga qodir;
  - ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil xulosa qila oladigan va undan amaliyotda to'g'ri foydalanadigan;
  - o'zida milliy istiqbol mafkurasi va g'oyalari singdirgan;
  - jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan;
- shuningdek, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr sifatida:
- ijodiy va ijtimoiy faol;
  - g'oyaviy va ma'naviy-axloqiyetuk bo'lishi;
  - mumtoz musiqani tushunish uchun ijodiy tafakkuri bo'lishi;
  - o'zbek musiqqa merosining sarchashmasi hisoblangan maqom asarlari haqida yetarlicha bilimga ega bo'lish va uni amaliyotda qo'llay olish darajasini egallaganligi;
  - yuqori darajadagi ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy metodik, tashkiliy uslubiy jihatdan tayyorgarlik orqali yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lishi nazarda tutildi.

Musiqqa o'qituvchisining mutaxassislik modelini tuzishda quyidagilar konseptual asos sifatida qabul qilindi:

❖ musiqqa o'qituvchisi yuqori darajadagi ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik va ilmiy-metodik tayyorgarlik orqali yuksak kasbiy madaniyatga ega bo'ladi;

❖ musiqqa o'qituvchisini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida ularning kasbiy tayyorgarligini orttirishda ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik tarkibiy qismlar bilan uzviy ravishda ilmiy-metodik tayyorgarlikni amalga oshiriladi;

❖ o'qituvchining pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'zlashtirgan barcha bilim, malaka va ko'nikmalari pedagogik faoliyatda xususiy metodik darajada, ya'ni musiqani o'qitish jarayonida qo'llaniladi. Shu bois o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismlari ichida metodik tayyorgarlik asosiy o'rinni egallaydi.

Musiqqa o'qituvchisi modelining 1-rasmda chizmasini berishga harakat qilamiz va bu chizmani yaratishda pedagogika fanlari doktori, professor J.Talipovning "Biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi tadqiqot ishlariga asoslandik. Musiqqa o'qituvchisining zamonaviy modeli tarkibiy qismlari va ularning shakllanishi yillar davomida to'plangan tajribalar hamda innovatsion g'oyalardan kelib chiqqan holda takomillashtirib borilishi mumkin. Mazkur modelning tarkibiy qismlari va ularning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va tajribalarning majmuasi yana bir qo'llaniladigan termin – professiogramma deb yuritiladi.

### Musiqqa o'qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli



Bu rasmda, umuman, o'qituvchi modeli aks etgan, musiqqa asarlarini egallash, shu jumladan, yangi talab – maqom nazariyasi va amaliyotini egallagan shaxs ham aks ettirilishi kerak.

Professiogramma – bu mutaxassisning shaxsiy sifatlari va kasbiy faoliyat turlariga kiradigan kasbiy talablar va me'yorlarning ilmiy asoslangan holdagi tavsifi<sup>18</sup>.

Professiogramma o'zida modelning tarkibiy qismlari va ularni shakllantirishga asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida mujassamlashtiradi<sup>19</sup>. Shu sababli profессиogramma muayyan pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun o'qituvchidan amaliy va nazariy fikr yuritishni, ushbu jarayonni amalga oshirish uchun muayyan bilim, ko'nikma va tajribalarni, malakalarni o'zlashtirishni talab etadi.

Nazariy fikr yuritish ta'lim-tarbiya jarayonidagi umumiy qonuniyatlar, ya'ni pedagogik vazifalarni hal etishning prinsiplari va usullarini ishlab chiqish, pedagogik jarayonlarni kuzatish, kuzatish natijalarini umumlashtirish, xulosa yasash, o'z faoliyati bilan taqqoslash va o'zi uchun zarur qoidalarning kelib chiqishiga zamin tayyorlaydi<sup>20</sup>.

Amaliy fikr yuritish asosan musiqani o'qitishning xususiy vazifalarini hal etishga qaratilgan. Bu muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, va muammoli vaziyatlardan chiqib ketish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchining pedagogik faoliyati va mahorati darajasini, amaliy pedagogik vazifalarni hal etish jarayonining ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri asoslanganligi bilan belgilash zarur.

<sup>18</sup> Йўлдошев Ж.Ф. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). - Т.: "Ўқитувчи", 1998. - 208 б.

<sup>19</sup> Йўлдошев Ж.Ф. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). - Т.: "Ўқитувчи", 1998. 102 -136 б.

<sup>20</sup> Исмоилов Н. Миллий менталитетнинг туб илдизи // "Мулокот" журнали, 4/2001. - 29 б.



Musiqqa fani o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilib, ilmiy-nazariy asoslab, o'ziga ma'lum pedagogik prinsiplarni va uni amalga oshirish qoidalarini ishlab chiqadi. Pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, umumlashgan va pedagogik ta'sir ko'rsatishning mantiqiy ketma-ketligini ishlab chiqishi, uning pedagogik mahorat cho'qqisini egallaganligini ko'rsatadi. Pedagogik vazifalarni hal etish, pedagogik vazifalarni tahlil qilish, ya'ni o'qituvchilardan aqliy faoliyat usullari – tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritishni talab etadi.

Mazkur pedagogik faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonini asosiy bo'g'inlarga ajratish va istiqboldagi vazifalarni loyihalash ko'nikmalariga asoslanadi. O'qituvchining pedagogik vazifalarni yaxshi o'zlashtirganligi, o'z kasbdoshlarining ish tajribalarini tinmay o'rganishi, o'z pedagogik faoliyati natijasini umulashtirish va muntazam tahlil o'tkazish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, ta'lim mazmuni hususiyatlarini hisobga olgan holda samarali vosita, metod va shakllarini tanlashga imkon yaratadi.

O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi tahlil qilinganda, uning ilmiy-nazariy, psixologik pedagogik, metodik tayyorgarligi nazarda tutildi<sup>21</sup>.

Quyida musiqqa o'qituvchisining professiogrammasini tarkibiy qismlari va ularga mansub bilim, ko'nikma va malakalarni keltirib o'tamiz:

I. Musiqqa o'qituvchisining ilmiy-nazariy tayyorgarligiga asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi:

- musiqqa fanini ilmiy nazariy jihatdan chuqur o'zlashtirgan holda uning nazariyalari, g'oyalari, qonuniyatlarining mazmun-mohiyatini bilishi, fanning rivojlanishi, fanda erishilgan yutuqlar, yangiliklar, muammolar, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lib borishi;

- umumiy musiqiy va xususiy tushunchalarni ajrata olishi, ularning musiqiy ta'limda tutgan o'rnini, o'qituvchilarda shakllantirish yo'llarini tasavvur qilishi;

musiqqa ilmining umumnazariy va amaliy jihatdan shakllanishida ulkan xissa qo'shgan mutafakkirlarning ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy meroslari hamda musiqqa, musiqqa ta'limi fani rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bilishi va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish malakasiga ega bo'lishi.

Musiqqa o'qituvchisining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi:

didaktika va tarbiya nazariyasi g'oyalari, o'qitish qonuniyatlari, prinsiplari, o'qitish mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg'unligi, uzviyligi, ularning uzviyligini ta'minlash yo'llari bilishi va tahlil qila olishi;

o'qitishning turli texnik-didaktik, audio, video, multimediyaga, On-Layn, prezidentatsion vositalari, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini bilishi;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'qituvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiruvchi usullardan xabardorligi va o'quv mashg'ulotlarida ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

<sup>21</sup> Баротов Ш.Р. Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. - Т.: "Ўқитувчи", 1995. – 58-61 бетлар.



o'quvchilarning mustaqil ishlari va tahsil olishini tashkil etishning tashkiliy va uslubiy ta'minlanishini bilishi;

- o'z kasbiy tayyorgarligi va malakasini muntazam va mustaqil ravishda oshirishning usul va shakllarini bilishi va egallashi;

- o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, diqqat, xotira, tafakkur, temperament, xarakter, qobiliyatlarini aniqlay olishi, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi;

- o'quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy operatsiyalardan o'quv jarayonida foydalanish;

- sinf rahbari ishining mazmun va mundarijasini, o'quvchilar ongiga va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishning mazmuni, shakli va usullarini bilishi va samarali tashkil etish malakasiga ega bo'lishi<sup>22</sup>;

- iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashgan ta'lim berish yo'llari, shakllari hamda usullarini bilishi, amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

II. Musiqqa o'qituvchisining metodik tayyorgarligiga asos bo'ladigan me'yoriy hujjatlar bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi:

- ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ta'lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini tasavvur qilishi;

- musiqqa bo'yicha darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakllari va mazkur mashg'ulotlarni tashkil qilish yo'llarini;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalarini bilishni;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarining tartibi, maqsad va vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi, musiqqa yo'nalishida kasbga yo'llash ishlarini olib borishni;

- musiqani chuqur o'zlashtirishga ixtisoslashgan maktab yoki sinflarda qo'llanilayotgan dasturning, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarining mazmun-mundariyasi, DTS, mazkur ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar<sup>23</sup>, shakl va usullarini;

- musiqani o'qitish jarayonida o'quvchilarni huquqiy, iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga qo'llay olishni;

- musiqani o'qitish jarayonida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga qo'llay olishni;

---

<sup>22</sup> Баротов Ш.П. Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. - Т.: "Ўқитувчи", 1995. – 28-32 бетлар.

<sup>23</sup> Жўраев Р. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга оширишдаги умумий ўрта таълим вазифалари // "Педагогик маҳорат" журнали. 2/2001., 2-10 бетлар.



- musiqadan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni tahlil qilishni;
- musiqani o'qitish konsepsiyasi, metodik yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil eta olishni;
- musiqqa madaniyati fanining asosiy g'oyalari, maqsadi va vazifalari, shuningdek, boblar, mavzularning maqsadi va vazifalarini aniqlay olishni;
- musiqani o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini bilishi va olingan natijalarni tahlil qila olishi, baholash tizimini mukammal bilish va qo'llay olishni<sup>24</sup>;
- musiqqa darslariga qo'yiladigan didaktik talablardan xabardor bo'lishi, ularni kuzatish va tahlil qilish malakasini o'zlashtirishni;
- musiqqa o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalarini aniqlashi va ularni o'zlashtira olishi hamda amaliyotga qo'llash malakasiga ega bo'lishi;
- musiqqa o'quv xonalari, laboratoriyalarini namunaviy jihozlash, tegishli me'yoriy hujjatlarni bilishi, jihoz, ko'rgazmali vosita, didaktak va tarqatma materiallarni tayyorlash, saqlash, butlash va boyitish yo'llarini bilishi, ulardan samarali foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

Musiqqa ta'limi musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni hamda natijasi bo'lib, tahliliy-nazariy jihatdan musiqiy hodisalar o'zlashtirilishini ko'zda tutadi. Bo'lajak musiqqa o'qituvchisi jamiyatda to'plangan musiqiy tajriba namunalarini o'zlashtirish, rivojlantirish hamda yosh avlodga yetkazish vazifasining ijtimoiy mohiyatini chuqur anglashi muhimdir.

Musiqqa ta'limida bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini musiqqa bilan "o'shno qilish" vazifasi o'zgardi, endi har bir o'quvchiga o'z badiiy imkoniyatlarini kengaytirish, musiqqa asarlarini tanlab tinglash, ular borasida tahliliy fikr bildira olish uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratish vazifasi qo'yilmoqda. Bu o'rinda, asosan ikki xil o'quvchi bilan ishlash lozimligini o'qituvchi yaxshi ajratib olishi kerak, ya'ni 1) musiqqa tuyg'usi mavjud bo'lgan o'quvchilar; 2) musiqqa qiziqmaydigan o'quvchilar. Ularga nisbatan xususiy va umumiy talablar hozirgi DTS lar va dasturlarda qayta qo'rib chiqilishi kerak. Bu pedagogik maqsadni amalga oshirish musiqqa o'qituvchisiga, uning ma'naviy-ijodiy faoliyatiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

Musiqqa o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda asosiy e'tibor pedagogik ishning natijasiga qaratiladi. Darsda egallangan nazariy bilimlar amaliyotda, ya'ni o'quvchilar musiqiy-estetik faoliyatining turli ko'rinishlarida namoyon etiladi va rang-barang ish shakllari, metodlari orqali ta'lim oluvchilarning musiqiy bilimlari oshishiga, ularda badiiy-estetik didning shakllanib borishiga qaratiladi.

---

<sup>24</sup> Педагогика тарихи. Ҳасанбоева О. ва бошқалар. (Ўқув қўлланма). - Т.: "Ўқитувчи", 1997. – 124-165 б.



?

## NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Musiqiy fanlarning paydo bo'lishi va o'qitilishi.
2. Musiqiy fanlarning rivojlanish tarixi.
3. Mustaqillik davri musiqiy fanlarning rivojlanishi.
4. Musiqqa o'qituvchisining bugungi kun talabi darajasida tayyorlashda qanday talablar qo'yiladi.
5. Respublikadagi pedagogika sohasida 5111100-Musiqqa ta'lim yo'nalishi DTS va malakala talablari qanday me'yoriy hujjat hisoblanadi.
6. Musiqiy darslarni tashkil etishda konsermeyster faoliyati qanday
7. OTMlarda o'quv-uslubiy faoliyatni samaradorligini oshirish yo'llari
8. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
9. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy fanlarini o'qitishda innovatsiyalar.
10. Milliy sozlarimizning paydo bo'lish tarixi.
11. Talabalarning musiqiy tafakkuri va idrokini yuksaltirishning axborot texnologiyalari vosita sifatida.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T.1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.1997
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.: Sharq 1998 y-182 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. T.: O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y 1-3 betlar.
5. Alimov F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, «Musiqqa», 2004.
6. Dadamuxamedov A. Rubob prima darsligi. Toshkent, 2004.
7. Ergashev G'. Afg'on rubobi darsligi. Toshkent, 2004.
8. Nurmatov X. Qashqar rubobi. Toshkent, 2003.
9. Toirov M., Petrosyans A. Musiqqa asboblari - «Nay». Toshkent, 2002.
10. Odilov A., Lutfullaev A. Musiqqa asboblari – «Chang». Toshkent, 2002
11. Qosimov R. Musiqqa asboblari – «Ud». Toshkent, 2002.
12. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002.
13. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent, 1997.
14. Toshmuxamedov M. G'ijjak darsligi. Toshkent, 1996.
15. Petrosyans A. Instrumentovedenie «Uzbekskie narodnye instrumenty». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.
16. M.Asilov, F.Vasilev. Toshkent, Dutor darsligi. 1987.
17. Varelas S. Partitura o'qish kursi. T., "O'qituvchi". 1984.
18. Gienko B. Instrumentovka (dlya orkestra uzbekskix narodnyx instrumentov). Tashkent, 1970.
19. Abdulkarimov M. "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2005 y
20. Lutfullaev A . O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.: Musiqqa.





### **3-mavzu: O'zbekiston Respublikasida musiqqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari. Musiqqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, "Ustoz-shogird" maktablari.**

#### **Reja**

1. O'zbekiston Respublikasida musiqqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari.
2. Musiqqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish.
3. "Ustoz-shogird" maktablari.

#### **1.O'zbekiston Respublikasida musiqqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari.**

Respublikamizning bir qator OTMlarida bakalavriatning pedagogika sohasi 5111100-"Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishida umumta'lim maktablarining "Musiqqa madaniyati" fani bo'yicha, shuningdek, pedagogika kasb-hunar kollejlari, musiqqa va san'at akademik-litseylari, bolalar musiqqa va san'at maktablari uchun "Musiqqa ta'limi" kasbi beruvchi kadrlar tayyorlanib kelinmoqda va ularga Davlat namunasidagi diplomga "Musiqqa ta'limi yo'nalishi" kasbi berilmoqda.

Musiqqa o'qituvchisining bugungi kun talabi darajasida tayyorlashda, o'quv rejasidagi fanlarni o'qitishda, ta'lim yo'nalishi nomida bir qator muammolar borki, ularni bartaraf etmay turib, sifatli kadrlar tayyorlab bo'lmaydi, qolaversa, quyi ta'lim muassasalarida o'quvchilarni o'qitish uchun tayyorlayotgan o'qituvchilarimiz sinflarga kirib dars o'tishda yetarlicha bilimga ega bo'lmaydilar. Jumladan bular quyidagilar:

Birinchi muammo: Bakalavrit bosqichida "Musiqqa ta'limi" nomi bilan tayyorlab kelinayotgan kadrlar o'qituvchilik faoliyati bilan to'laqonli shug'ullana olmaydilar. Chunki, ular bakalavriat bosqichida 4 yil o'qish davrida xonandalik, cholg'u asbobni chalish malakasini hamda musiqqa nazariyasi bo'yicha bilim va malakalarni to'la egalay olmaydilar. Bunga asosiy sabab, talaba bilan yakkama-yakka holda dars yoki kichik-kichik guruhlarda dars o'tish shaklidan voz kechilganligidir.

Respublika bo'yicha pedagogika sohasi "Musiqqa ta'limi" yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavrit bosqichi talabalari Bolalar musiqqa va san'at maktablarida, musiqqa va san'at ixtisoslashtirilgan akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarda 7 va 10 yil davomida o'rgangan cholg'usi (rubob, dutor, g'ijjak, fortopiano, skripka va hokazo)ni OTMlariga kelib, "Cholg'u ijrochiligi va ansambli" fanida guruhda faqatgina dutor yoki rubobni o'rganishga majbur bo'lmoqda. Chunki, guruhli darsda o'zlari egallagan asbobni a'lohida-a'lohida yoki kichik-kichik guruhlarda o'rganish imkoni yo'q (bunga fanni "amaliy" shaklda o'tilishi sabab). Xuddi shunday, o'quvchi (bo'lajak abituriyent) opera, vokal, estrada, an'anaviy xonandalik, maqom ijrochisi mahoratini 7-10 yil davomida quyi ta'lim muassasalarida egallaydida, talaba bo'lib, OTMga o'qish davrida bir guruhga birlashtirib, o'zi egallagan janr (soha) bo'yicha o'qishni davom ettira olmaydi.



Bundan tashqari rus guruxlarda milliy cholg'ularni o'qitishda ham juda katta muammo va talabalarning e'tirozli norizoliklari ham mavjud. Bunga ham asosiy sabab amaliy darslarni "guruhli" shaklda olib borilishidir. Chunki, fortepiano, skripka, gitara, chalib kelgan talabani qo'lga dutor yoki rubob ushlatib qo'ymoqdamiz. Bu holat vokal xonandalariga ham taalluqli. Opera ijrochisi an'anaviy xonanda aytimlarini ijro etish jarayonida avval egallagan o'zidagi bor mahoratini yo'qotib qo'yadi. To'g'rirog'i, o'zida yetarlicha bilim bo'lmagan ushbu bitiruvchi kadr ertangi kunda sinfga kirib, dars o'ta olmaydi.

**Ikkinchi muammo:** "Cholg'u ijrochiligi va ansambli", "Dirijyorlik", "Vokal va zamonaviy musiqqa", "An'anaviy va xonandalik", "Musiqqa nazariyasi", "O'zbek xalq musiqqa ijodi", "Xor va xorshunoslik", "Bolalar musiqqa adabiyoti", "Musiqqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari" va boshqa shu kabi qator tayanch musiqiy fanlar o'qituvchi va jo'rnavoz (konsertmeyster) hamroxligida musiqiy cholg'ular bilan jihozlangan auditoriyalarda o'tilishi imkoniyat yetarli emas. Chunki, yuqoridagi fanlarni to'laqonli o'tilishida "konsertmeyster" dasturdagi asarlarni fortepiano yoki ansambl shaklida boshqa milliy cholg'ularda jo'rnavoz sifatida chalib, unga musiqiy jo'rnavozlik qilib turishi shart.

**Uchinchi muammo:** "Musiqqa ta'limi" yo'nalishi o'quv rejasidagi umumiy 7344 soatning 3340 (mustaqil ta'lim soati bilan birgalikda) (45,5%) soati (birinchi, ikkinchi va qo'shimcha fanlar bloki) gumanitar va ijtimoiy-siyosiy, matematika va tabiiy-ilmiy, musiqqa taalluqli bo'lmagan qo'shimcha fanlarni tashkil etib kelgan. Mazkur yo'nalishlarda ko'p soat ajratilganligi ham malkali mutaxassis kadr tayyorlashda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda edi, ushbu masala bir qator ijobiy hal etish uchun ilk qadamlar qo'yildi.

**To'rtinchi muammo:** 5111100-"Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi nomiga "o'qituvchi" so'zi qo'shilmaganligi uchun ko'pgina quyi ta'lim muassasalarida mazkur yo'nalish bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilishda tushunmovchilik holatlari ham uchrab turibdi.

Beshinchi muammo: "5111100-Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishini doimiy ravishda musiqiy cholg'ular bilan ta'minlab borish lozim.

Respublikamizning pedagogika sohasi musiqqa ta'lim yo'nalishida tayyorlayotgan kadrlar ya'ni, bo'lajak "Musiqqa ta'limi" kasbi berilayotgan musiqqa o'qituvchisi quyidagi uchta asosiy yo'nalishni ya'ni "Musiqqa nazariyasi" "Cholg'u ijrochiligi" "Xonandalik" mahoratini mukammal egallasa, u to'laqonli o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullana oladi hamda "Musiqqa madaniyati" fanini dastur asosida o'qitadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, keyingi bir necha yildan buyon pedagogika sohasi musiqqa ta'limi yo'nalishida tayyorlanayotgan kadrlar joylarda o'qituvchilik kasbi bilan faoliyatini davom ettira olmayapti. Buning birinchi sababi, ular "Musiqqa nazariyasi" fanini "xuddi alfavitni ko'rib, o'qib, tushunganday" nota yozuv va uning elementar nazariyasini chuqur o'rgana olmayapti. Mazkur fanni laboratoriya mashg'uloti sifatida kichik guruhlar (10-12) rafarga bo'lib, o'qitish zarur. Qolaversa, "Musiqqa nazariyasi" o'z tarkibida "Solfedjio", "Garmoniya" va "Musiqqa asarlari tahlili" kabi fanlarni qamrab oladi. "Musiqqa nazariyasi" fanini talaba mukamal egallashi uchun quyidagi bilimlarni egallagan bo'lishi shart.



Jumladan, musiqiy tizim, tovush, lad, tonallik, interval, akkord, alteratsiya, xromatizm, modulyatsiya, kuy, xalq ladlari, turli xil major va minor gammalar, kvarta – kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, transpozitsiya, tonalliklar pog'onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og'ishma, musiqqa bezaklari, garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlar imkoniyatlarini, stilistik xususiyatlarini bilishlari, musiqqa asarlarini garmonik tahlil usullari, musiqqa shaklining eng muhim asoslarini, musiqiy shaklning muhim elementlarini, musiqaning asosiy rivojlantirish prinsiplari, shaklning qismlari funksiyasi, bayon etish turlari va har bir shaklning tuzilish qonun-qoidalari, bir va ikki ovoqlik kuylarni sof intonatsiyalash, musiqiy diktant yozish, musiqqa elementlarini eshitib aniqlash, kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalarini, major va minorlarning tabiiy, garmonik, melodik gammalarini, tovushdan va tonallikda intervallarni, akkordlarni yechimlarini, har xil tovushlardan xalq musiqqa ladlari tovushqatorlarini, berilgan tonallikda intervallar va akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, major va minor xromatik gammalarini yozma ravishda tuzish va fortepianoda chalish, o'tilgan akkordlarni to'rt ovoqlik tuzilmada turli xil tonalliklarda tuzish va yechib berish, akkordlarni qo'shishda qonun-qoidaga binoan amal qilish, berilgan akkordlar belgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda ijro etib berish, musiqiy asar shaklining qismlarni aniqlash, uning kuy, garmoniya, ritmlarni o'zaro aloqadorligini ko'rsatish, musiqqa shaklida rivojlantirish prinsiplarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko'rsatib, har xil tipdagi shakllarning o'ziga xos xususiyatlar usullarini ajratish, intervallar, akkordlar, gammalar tuzish, uncha katta bo'lmagan musiqqa asarlarining ladi, tonalligi, obrazlar xarakterini aniqlab tahlil qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, garmonik ketma-ketliklarni davriya shaklida chalib berish, oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish, berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, shakldagi yirik belgilarning raqamli sxemasi har-bir asosiy qismning tahlili va ularning bir-biriga umumiy bog'lanishini tahlil qilishi, musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan foydalanish, solfedjioning nazariy va amaliy ahamiyati, turli xil major va minor gammalar, kvarta-kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, xalq ladlari, transpozitsiya, tonalliklar pog'onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og'ishma, kuyni ayrim elementlar o'zaro munosabatlarini malakalarini kichik guruhlarda o'tiladigan darslar orqali egallashi mumkin.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchisi mutaxassis kadr sifatida biror bir cholg'u asbobni ijro etishni (nota yozuvi asosida) mukammal egallagan bo'lishi shart. Darhaqiqat, Bolalar musiqqa va san'at maktablarida, musiqqa va san'at ixtisoslashtirilgan akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari 7 va 10 yil davomida rubob, dutor, g'ijjak, fortopiano, skripka va hokazo cholg'uni o'rganadi, universitetga kelib, "Cholg'u ijrochiligi va ansambli" fanida guruhda faqatgina dutor yoki rubobni o'rganishga majbur bo'ladi. Ularni har birini o'zlari egallagan cholg'ulari bo'yicha o'qitish uchun bir semestrda ajratilgan 38 soat yetmaydi.

Aslida, talaba OTMga kirgunga qadar qaysi cholg'uni chalishni o'rgangan bo'lsa, OTMda o'qish davrida o'sha cholg'uni sir-sinoatlarini o'rganishni davom



ettirib, qo'shimcha cholg'u sifatida fortepianoda chalish mahoratini egallagan bo'lishi shart. Cholg'u ijrochiligi va ansambli" fani o'qitishni yakka tartibda hech bo'lmasa laboratoriya mashg'uloti sifatida kichik guruh (4-6)larda o'qitilsa malakli kadrlar tayyorlashda sifat va samaradorlikka erishish mumkin.

Respublikadagi Pedagogika sohasi "Musiqqa ta'limi" yo'nalishida tayyorlanayotgan kadrlar musiqqa va san'at sohasida tayyorlanayotgan kadrlardan tubdan farq qiladi. Jumladan, O'zbekiston davlat konservatoriyasida tayyorlanayotgan mutaxassislar yo qo'shiqchi – xonanda bo'ladi yoki biror musiqqa cholg'usini mukammal chalishni o'rganadi. Shuning uchun ham ular umumta'lim maktablarida "Musiqqa madaniyati" fanini o'qita olmaydilar. Chunki, yosh kadr maktabga o'qituvchilik qila olmaydi. O'qituvchilik qilishi uchun "Cholg'u ijrochiligi", "Dirijyorlik", "Vokal va zamonaviy musiqqa", "An'anaviy va xonandalik", "Musiqqa nazariyasi", "Xor va xorshunoslik", "Bolalar musiqqa adabiyoti", "Musiqqa o'qitish metodikasi" fanlarini mukammal egallagan bo'lishi lozim. Bo'lajak musiqqa o'qituvchisi fortepiano (yoki o'zbek xalq cholg'ularining biri) yordamida dastur asosida o'rganilayotgan asarni bemalol cholg'uda chalib, uni matnini kuylay olmasa, dirijyorlik qilib, bolalarga o'rgata olmasa albatta sinfga kirib dars o'ta olmaydi. O'qituvchi sifatida yuqorida tilga olingan fanlarni o'qitishni yakka tartibda hech bo'lmasa laboratoriya mashg'uloti sifatida kichik guruh (10-12)larda o'qitilishi shart.

"Xor va xorshunoslik" va "Dirijyorlik" fani o'qituvchisi: Yuqoridi ta'kidlangan bilan bir qatorda musiqqa o'qituvchisi xonanda va dirijyor sifatida ham to'liq shakllangan bo'lishi lozim. Bo'lajak musiqqa o'qituvchisini xonanda va direjyor (maktab o'quvchilari xor jamoasini tashkil etadi) sifatida to'liq shakllanishida xonandalik va dirijyorlik, xor ijrochisi malakalarini egalashi shart. Aks xolda sinfga kirib o'quvchilarga qo'shiq o'rgata olmaydi yoki xor asarlarini dirijyorlik qilib o'rgata olmaydi, umuman olganda xonandalikning sir-sinoatlarini, qolaversa, inson ovozi bilan bog'liq xususiyatlarni bilmay o'sib kelayotgan yosh avlod ovoz apparati bilan ishlay olmaydi. "Dirijyorlik" fanini o'qitishni yakka tartibda hech bo'lmasa laboratoriya mashg'uloti sifatida kichik guruh (4-6)larda o'qitilishi kerak.

Butun dunyoda "Cholg'u ijrochiligi", "Dirijyorlik", "Vokal va zamonaviy musiqqa", "Xonandalik" fanlari yakka tartibda, "Musiqqa nazariyasi" fani kichik-kichik guruhlarda o'qitiladi. Chunki, har bir insonning tabiiy fiziologik rivojlanish jarayoni turli tarzda amalga oshadi, har bir inson musiqani o'z ichki dunyosi va hissiy kechinmalari yordamida turlicha qabul qiladi va uni o'ziga xos ifodaviy vositalar yordamida ijrochiga yetkazib berish uchun ustoz va talaba (yakkama-yakka) ijodiy mashg'ulot yordamida talabani yetuk mutaxassis bo'lib, kompetensiyasini rivojlantiradi. "Musiqqa ta'limi" sohasida kadrlar tayyorlayotgan Respublikamizning barcha Oliy ta'lim muassasalarida bir paytlar tayanch musiqiy fanlar hisoblangan "Cholg'u ijrochiligi va ansambli", "Dirijyorlik", "Vokal va zamonaviy musiqqa", "An'anaviy xonandalik" fanlari yakka tartibda (har bir talaba bilan yakkama yakka holda), "Musiqqa nazariyasi" fani kichik-kichik guruhlarda o'qitilgan. Ular orasidan Respublika va Xalqaro tanlov g'oliblari chiqqan yoki o'sha davrda o'qigan bitiruvchilar joylarda sovrindor o'quvchilarni chiqishiga



xizmat qilgan. Muhtaram Yurtboshimiz Sh.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari e‘lon qilindi. Ana shu davatga mos, sifatli kadrlar tayyorlash endilikdagi burchimiz hisoblanadi.

Respublikadagi pedagogika sohasida 5111100-Musiqqa ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha umumta‘lim maktablarida “Musiqqa madaniyati” fani o‘qituvchisi, qolaversa, pedagogika kasb-hunar kollejlari, musiqqa va san‘at akademik-litseylari hamda bolalar musiqqa va san‘at maktablari uchun musiqqa o‘qituvchisi kasbi beruvchi kadrlar tayyorlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlar asosan ma‘lum cholg‘u yoki xonandalik bo‘yicha ixtisoslashib, xonanda yoki biror bir cholg‘u ijrochisi bo‘lib yetishadi.

Respublikada tayanch oliy ta‘lim muassasasi hisoblangan nafaqat Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti balki, Respublikamizda pedagogika sohasi musiqqa ta‘lim yo‘nalishlarida tayyorlayotgan kadrlar ya‘ni, bo‘lajak musiqqa o‘qituvchisi quyidagi **uchta asosiy yo‘nalishni** mukammal egallasa, u to‘laqonli o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullana oladi.

**Birinchi yo‘nalish,** pedagogika sohasi musiqqa ta‘limi yo‘nalishida tayyorlanayotgan bo‘lajak musiqqa fani o‘qituvchisi “Musiqqa nazariyasi” fanini mukammal egallagan bo‘lishi shart. Mazkur fan o‘z tarkibida “Solfedjio”, “Garmoniya” va “Musiqqa asarlari tahlili” kabi fanlarni qamrab olgan bo‘lib, bunda dastur asosida o‘tilayotgan mashg‘ulotlarni talaba har tomonlama chuqur bilishi, o‘rganishi uchun mashg‘ulotlarda konsertmeyster (jo‘rnavoz) o‘tilayotgan materiallarni musiqiy cholg‘u asosida izohlab turadi. Shunda talabalarni mazkur fanda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurini tarbiyalash va ularni idrok etish qobiliyatini hosil qilish, talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to‘g‘ri yo‘naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish, ularni musiqqa o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat bo‘ladi.

Bo‘lajak musiqqa o‘qituvchisi konsermester (jo‘rnavoz) yordamida mazkur fanda musiqiy tizim, tovush, lad, tonallik, interval, akkord, alteratsiya, xromatizm, modulyatsiya, kuy, xalq ladlari, turli xil major va minor gammalar, kvarta – kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, transpozitsiya, tonalliklar pog‘onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og‘ishma, musiqqa bezaklari, garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlar imkoniyatlarini, stilistik xususiyatlarini bilishlari, musiqqa asarlarini garmonik tahlil usullari, musiqqa shaklining eng muhim asoslari, musiqiy shaklning muhim elementlari, musiqaning asosiy rivojlantirish prinsiplari, shaklning qismlari funksiyasi, bayon etish turlari va har bir shaklning tuzilish qonun-qoidalari, gamma, interval, akkord, bir va ikki ovozlik kuylarni sof intonatsiyalash, musiqiy diktant yozish, musiqqa elementlarini eshitib aniqlash, kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalari, major va minorlarning tabiiy, garmonik, melodik gammalarini, tovushdan va tonallikda intervallarni, akkordlarni yechimlarini, har xil tovushlardan xalq musiqqa ladlari tovushqatorlarini, berilgan tonallikda intervallar va akkordlar ketma-ketligini,



diatonik sekvensiyalarni, major va minor xromatik gammalarini yozma ravishda tuzish va fortepianoda chalish, o'tilgan akkordlarni to'rt ovoqli tuzilmada turli xil tonalliklarda tuzish va yechib berish, akkordlarni qo'shishda qonun-qoidaga binoan amal qilish, berilgan akkordlar belgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda ijro etib berish, musiqiy asar shaklining qismlarni aniqlash, uning kuy, garmoniya, ritmlarni o'zaro aloqadorligini ko'rsatish, musiqqa shaklida rivojlantirish prinsiplarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko'rsatib, har xil tipdagi shakllarning o'ziga xos xususiyatlar usullarini ajratish, intervallar, akkordlar, gammalar tuzish, uncha katta bo'lmagan musiqqa asarlarining ladi, tonalligi, obrazlar xarakterini aniqlab tahlil qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, garmonik ketma-ketliklarni davriya shaklida chalib berish, oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish, berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, shakldagi yirik belgilarning raqamli sxemasi har-bir asosiy qismning tahlili va ularning bir-biriga umumiy bog'lanishini tahlil qilishi, musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan foydalanish, solfedjioning nazariy va amaliy ahamiyati, turli xil major va minor gammalar, kvarta-kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, xalq ladlari, transpozitsiya, tonnalliklar pog'onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og'ishma, kuyni ayrim elementlar o'zaro munosabatlarini malakalarini egallaydi.

**Ikkinchidan,** pedagogika sohasi musiqqa ta'limi yo'nalishida tayyorlanayotgan mutaxassis biror bir cholg'uda ijro etishni (nota yozuvi asosida) mukammal egallagan bo'lishlari shart. U fortepiano (shuningdek, o'zbek xalq cholg'ularidan birini) konsermeyster (jo'rnavoz) yordamida cholg'uchilik sirsinoatlarini mukammal o'rganadi;

**Uchinchidan,** pedagogika sohasi musiqqa ta'limi yo'nalishida tayyorlanayotgan mutaxassis xonanda va dirijyor sifatida ham to'liq shakllanishi lozim. Bo'lajak musiqqa o'qituvchisini xonanda va dirijyor (maktab o'quvchilari xor jamoasini tashkil etadi) sifatida to'liq shakllanishida konsermeyster (jo'rnavoz)lar juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, talaba xonandalik, vokal, xor, dirijyorlik malakalarini egallashlarida o'qituvchi talaba bilan ovoqli, dirijerlik ishoralari( jest) ni ishlasa, konsermester (jo'rnavoz) unga musiqqa cholg'usida o'rganilayotgan asarga jo'rnavozlik qiladi. Odatda, bunday hollarda konsermeyster (jo'rnavoz)lar ansambl bo'lib jo'rnavozlik qilishi talab etiladi.

Shunday bir sharafli va murakkab ishni amalga oshirish yo'lida professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda konsertmeyster (jo'rnavoz)lar faoliyat ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarida "Musiqqa madaniyati" fani o'qituvchisi, pedagogika kasb-hunar kollejlari, musiqqa va san'at akademik-litseyleri hamda bolalar musiqqa va san'at maktablari uchun musiqqa o'qituvchisi, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqqa tarbiyachilari kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislik fanlarini mukammal egallashi lozim.

Yuqorida tilga olingan ushbu uchta asosiy jihatlarni egallagan bo'lajak musiqqa o'qituvchisi to'laqonli o'qituvchi bo'lib shakllanadi va u ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlarini to'laqonli olib bora oladi. Bunda konsermeyster (jo'rnavoz) o'qituvchi bilan bir qatorda mehnat qiladi.



Butun dunyo musiqa san'ati ta'limi tizimida o'quv mashg'ulotlari konsertmeyster jo'rligida o'tiladi. O'qituvchi dastur asosida o'tilayotgan har qanday mashg'ulotda o'quvchi, talaba-yoshlarning ijro ko'nikmasini shakllantirsa, konsertmeyster o'sha asarni asosan yoddan (ba'zan nota yordamida) chalib beradi va birgalikda mukammal ijroga erishiladi.

Konsermeyster (jo'rnavoz)lar mehnat faoliyati o'quv, konsert ijrochilik, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-jamoatchilik jarayonlaridan iborat bo'ladi. Ularning mehnati juda og'ir. Chunki, u o'qituvchi rahbarligida talabalar tomonidan o'rganiladigan asarni talabalardan oldin mukammal o'rganishi, cholg'u jo'rligida kuylash ko'nikmalarini shakllantirgan bo'lishi yoki xonandalik asosida ijro etishda ohangni toza, sof pardalarni aniq va so'zlarni ravon ijro eta olishi, fortepiano (boshqa an'anaviy cholg'ularni chalish)da notaga qarab birdaniga chalib ketishi uchun ishdan bo'sh vaqtlarida (hatto uyda ham) o'z ustida tinimsiz ishlashi lozim.

O'quv jarayonida talabalarga dars mashg'ulotlarida professor-o'qituvchini toshirig'ini bajarishi, o'qituvchi va talabalarni doimiy eshitishi va o'quv mashg'ulotini samarali o'tishini ta'minlaydi. Forteplano cholg'usida jo'rnavozlik qilayotgan konsertmeysterlarni qo'l va asab kasalliklariga tez chalinish holatlari uchraydi. Shu sababli ham 60 yoshdan oshgan konsertmeysterlarga fortepianoda chalish ta'qiqlanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki musiqa va san'at ta'limi yo'nalishlarida mehnat qilayotgan konsermeyster (jo'rnavoz)larning oylik maoshini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholni ijtimoiy himoya qilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2002 yil 2 oktyabr №12/2948-sonli "Konsertmeysterlarning mehnatiga haq to'lashning yangi shartini kiritish to'g'risida"gi me'yoriy hujjatiga ko'ra, konsertmeyster lavozimidagi mutaxassis OTMdagi assistent-o'qituvchi lavozimi mehnatiga haq to'lash oylik maoshi bo'yicha, oliy toifali konsertmeyster esa katta o'qituvchi lavozimi mehnatiga haq to'lash oylik maoshi bo'yicha belgilangan.

**To'rtinchidan.** Kredit-modul tizimida qo'shimcha fanlar blokidan foydalanishni xali tulik o'zlatirgan emas.

<b>4.00.</b>	<b>Qo'shimcha fanlar</b>	300	<b>5,6</b>	<b>124</b>	<b>60</b>	<b>64</b>				<b>176</b>
<b>1</b>	Estrada xonanda ijrochisi	130		<b>50</b>	<b>20</b>	<b>30</b>				<b>80</b>
<b>1</b>	An'anaviy xonanda ijrochisi									
<b>2</b>	Akademik xonandalik ijrochisi	66		<b>30</b>	<b>20</b>	<b>10</b>				<b>36</b>
<b>2</b>	Folklor jamoasi xonandasi ijrochisi									
<b>3</b>	An'anaviy	104		<b>44</b>	<b>20</b>	<b>24</b>				<b>60</b>



	cholg'u sozandasi									
3	Xalq cholg'u sozandasi									
	<b>JAMI</b>	<b>4 980</b>	<b>100</b>	<b>2400</b>	<b>592</b>	<b>824</b>	<b>748</b>	<b>236</b>	<b>3 ki</b>	<b>2580</b>

Beshinchidan. Diplom berayotganimizda “ta’lim yo‘nalishi” deb “mavxum” bo‘lgan kasb berilayapti. Bu masalani shoshilinch tarzda xal etish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda musiqiy ma’lumotga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashda konsertmeyster (jo‘rnavor)larning faoliyatidan unumli foydalanish masalasi o‘ta muhimdir.

**birinchidan**, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida oliy ta’lim tizimida o‘quv-uslubiy faoliyatni davr va zamon talablari asosida takomillashtirib borish, talabalarni har tomonlama bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berish zaruriyati asoslab berildi;

**ikkinchidan**, oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini nazoratini tartibga solishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari asoslantirildi;

**uchinchidan**, oliy ta’lim tizimida o‘quv-uslubiy faoliyatni tartibga solishga qaratilgan normativ - xuquqiy hujjatlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi ochib berildi.

**to‘rtinchidan**, Respublika pedagogika sohasi “Musiqqa ta’limi” yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish, oliy ta’lim tizimida o‘quv-uslubiy faoliyatni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolar taxlil etildi.

**beshinchidan**, kredit-modul tizimida qo‘shimcha fanlar blokini o‘qitishda to‘g‘ri foydalangan holda har bir talabaning bazaviy ixtisosdligidan kelib chiqqan holda ikkinchi ixtisoslikni berish.

oltinchidan, diplom berayotganimizda “musiqqa o‘qituvchisi” ta’lim yo‘nalish emas, ixtisoslik deb kasb berilayapti.

**OTMlarda o‘quv-uslubiy faoliyatni samaradorligini oshirish va yanada takomillashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin.**

1. Fikrimizcha, oliy o‘quv yurtlari pedagog-xodimlarining kasb darajasi va malakasini muttasil bevosita va bilvosita oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlash va ishlab chiqarish va xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta’lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish mumkin bo‘ladi.

2. Musiqqa ta’limi yo‘nalishida bir professor-o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar nisbatini musiqqa va san’at ta’lim yo‘nalishlariga belgilangan me’yorlardan kelib chiqqan holda belgilash lozim.

3. Talabalarga tabaqalashtirilmagan bir xil 0,5 stipendiya tayinlash tizimiga o‘tish (tabaqalashtirilgan (0,5; 0,75; 1,0) stipendiya tayinlash tizimidan voz kechish lozim).





4. OTMlari bakalavriatida malaka amaliyotlarini tashkil etishda amaliyot davrida talaba bajaradigan funksional vazifalarni aniq belgilash, amaliyot o'tadigan ob'ektlarda talabani qabul qilish buyrug'ini chiqarish, talabalar tomonidan hisobotlar tayyorlashni elektron shaklda tashkil etish lozim.

5. Bakalavriat bosqichida tayyorlanayotgan 5111100-“Musiqqa ta'lim” yo'nalishi nomini 5111100-“Musiqqa ta'limi (Pedagogik faoliyat)” deb nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. “Cholg'u ijrochiligi va ansambli”, “Dirijyorlik”, “Vokal va zamonaviy musiqqa” hamda “An'anaviy va xonandalik” fanlarini yakka tartibda yoki (laboratoriya mashg'uloti sifatida kichik guruh (8-10 nafar)larda), “Musiqqa nazariyasi” fanini o'qitilishi (10-12) nafar)da o'qitishni yo'lga qo'yish har tomonlama malakali musiqqa o'qituvchisi kadrlarini tayyorlashda poydevor bo'lib xizmat qiladi.

7. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashda bugungi kunda ichki (joriy, oraliq va yakuniy) nazoratlarni o'tkazish jarayonlari barcha OTMlarda lozim darajada qoniqarli darajada tashkil etilmayapti. Buning asosiy sabablaridan biri talabalarni olishi lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarini aniqlash masalalari o'z xoliga tashlab qo'yilganligi.

Birinchi, ta'lim sifatini nazorat qilish va baxolash mexanizmlarini amalga oshirishda pedagog xodimlar, kafedra mudirlari va fakultet dekanlarining funksional majburiyatlari aniq belgilab qo'yilmagan.

Ikkinchi, professor-o'qituvchilar tomonidan baholash mezonlarini fanlarning o'ziga xususiyatlarini e'tiborga to'liq olinmagan holda ishlab chiqilishi, ya'ni, baholashda 0,1; 0,5; 0,9; 2,5 va hokazo noaniq raqamlar bilan baholanishi, hisoblashda chalkashliklarga duch kelish, bir darsda 25 va undan ortiq bo'lgan talabalarni sun'iy baholashi kabi holatlarni bartaraf etish lozim.

8. 5111100-“Musiqqa ta'limi” ta'lim yo'nalishini doimiy ravishda musiqiy cholg'ular bilan ta'minlab hamda yangilab borish lozim.


## **2. Musiqqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish.**

Musiqqa o'qitish va tarbiyalash metodlari —o'quv-tarbiyaviy jarayon ishtirokchilari orasidagi o'zaro harakatni tashkil etib, musiqiy faoliyat orqali talabada bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishi hamda musiqiy-estetik sifatlar rivojlantirilishiga olib kelishi lozim. Musiqqa o'qitish va tarbiyalash metodlari o'quv-tarbiyaviy jarayonning yaxlit ijodiy xarakterini aks ettiradi.

Musiqqa o'qituvchisining sinf jamoasiga nisbatan munosabat uslublari fanda ajratib ko'rsatiladi. O'qituvchining barqaror-ijobiy uslubi o'quvchilarga nisbatan g'amxo'rlik qilishda, qiyinchilik paytida yordam berishda, o'quv ishi va xulq-atvorda namoyon bo'ladigan kamchiliklarga nisbatan ishchan pozitiv reaksiyada, bolalar bilan muloqotda o'zini xotirjam tutishda namoyon bo'ladi. Bu guruhga mansub o'qituvchi yorqin pedagogik iqtidor, bolalarni ardoqlash xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi va yuqori pedagogik samaradorlikka, ijroviy natijalarga erishishi mumkin.



Passiv-ijobiy pedagogik uslubga mansub o'qituvchi bolalarga nisbatan munosabatda noaniq emotsional-ijobiy ustanovka bilan namoyon bo'ladi. Bunday o'qituvchi jamoaviy ijroda har bir o'quvchining ijrosi sifatini tahlil etmaslik, kamchiliklarni tuzatishga, a'lo darajada ijro etayotgan o'quvchilarni rag'batlantirishga harakat qilmaslik bilan namoyon bo'lishi mumkin (rasmga qaralsin).



O'qituvchida bolalarga nisbatan munosabatdagi beqaror uslub vaziyatga bog'liqlik va umumiy hissiy moyillik bilan namoyon bo'ladi. Bu guruhga mansub o'qituvchilar ba'zan o'zlarining kayfiyat va kechinmalariga bog'lanib qoladigan holatlar uchraydi. Bo'lajak musiq o'qituvchilarida pedagogik muloqotni barqaror ijobiy uslubda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Musiq tili bu hissiyotlar tili bo'lganligi bois, kechinma va holatlarni aynan ifodalash, o'quvchilarni musiq ohanglarining sirli olamiga olib kirish, o'rganiladigan, tinglanadigan yoki tahlil etiladigan asarning badiiy g'oyasini ularga yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagogik texnika o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishda to'g'ri muomala tarzini tanlash imkonini beradi. Muomala tarzi, o'quvchilar bilan munosabat uslubi, diksiya, mimika, imo-ishorani to'g'ri tanlash, bularning barchasi pedagogik texnikaning tarkibiga kiradi.

Musiq darslaridagi muloqot jarayonini quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin:

1. Musiqiy asarlarni mazmun mohiyatini tushuntirishda ularda bilim va ko'nikmani moslashuvchanligini ta'minlash. Bunda sinf jamoasi bilan ijro faoliyatini amalga oshirganda o'quvchilar jamoasiga tez moslashib keta olish imkoniyati tushuniladi. Zero, ushbu imkoniyat interaktiv musiqiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omildir.

2. Musiq asarlarini mazmun-mohiyati nuqtai nazardan hissiy (emotsional) jihatdan murosali bo'lish. Dars jarayonida tanlangan musiq asarlari turli psixologik, hissiy vaziyatlarni yuzaga keltirish mumkin. Ba'zan kayfiyatni tushiradigan (salbiy holatlar uchraganda), agar ular ancha sezilarsiz bo'lsa,



ko'rmalikka olish, agar kattaroq bo'lsa, bosiqlik bilan ushbu masalani hal qilib, tezda asar mavzusi tahliliga o'tish talab etiladi.

3. Hamdardlik. Musiqqa darsini muvaffaqiyatli tashkil etishda o'quvchilarning kayfiyati muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun darsni boshlashdan oldin va dars jarayonida har bir o'quvchining kayfiyatini nazorat qilib borish va zarur bo'lsa, ularni qo'llab-quvvatlash, hamdardlik ko'rsatish katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

4. Musiqiy asar repertuarini tanlashda turli muammoli vaziyatlarga duch kelish mumkin. Chunki, asar xarakteri, mazmuni, yoshga xos xususiyatlari o'quvchilarning o'zaro muloqotini samarali tashkil etishda turli vaziyatlarga duch kelish mumkin. Bu kabi muammoli vaziyatlar uchraganda, avvalam bor uni yengil hal qilish yo'llarini axtarish va eng muhimi o'quvchilar foydasiga hal etmoq darkor.

5. Muloqotda sub'ekt-sub'ekt usulida ish yuritish.

Ta'lim standarti va o'qitish konsepsiyasida milliy musiqqa namunalari umumbashariy musiqqa san'ati bilan birgalikda o'quvchilarda musiqiy estetik tarbiyani shakllantirish vositasi bo'lishi qayd etilgan.

Yosh avlodda komil inson fazilatlarini tarkib toptirishni nazarda tutib, keyingi yillarda og'zaki an'anadagi kasbiy musiqqa janrlaridan namunalar tanlab, o'quvchilarni dars va sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida ular bilan tanishtirishda an'anaviy usullar katorida yangi noan'anaviy usullardan foydalanish xam nazarda tutilgan. O'tmishda asosan og'zaki usulda o'rganilgan, madaniy hayotda keng o'rin tutgan mumtoz musiqiy merosimiz borasida qomusiy olimlarimizdan biri Abu Nasr al-Forobiy "Kimki fe'lu atvori muvozanatini yo'qotgan bo'lsa, uni tartibga keltiradigan, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadigan va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydigan vosita sifatida musiqqa tananing sog'ligi uchun foydalidir", degan edi.

Musiqqa ta'limining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

- maqomlar va kasbiy musiqaning boshqa janrlari (mumtoz kuy va ashula, katta ashula, doston nomalari)ga xos nazariy ma'lumotlar va amaliy ijro xususiyatlari bilan tanishish;
- kasbiy musiqaning yetuk ijrochilari hamda ularning ijro yo'llarini taqqoslab, tahlil qilish;
- xususan maqomlarning turkumliligi, tuzilish xususiyatlari (cholg'uda xona, bozgo'y, ashulada daromad, miyonxat, dunasr, namud, avj, furovard va hanglar)ni ijro davomida bir-biridan ajrata olishni o'rganish;
- maqomlarning nota yozuvlarini o'zlashtirish va notada o'z aksini topa olmagan ijrodagi nozik nuqtalarini topib, ularni jonli ijrodagi holatini ta'minlash;
- audio va video yozuvlardagi maqom numunalarini tinglash;
- maqom va boshqa kasbiy musiqqa janrlaridan ayrim asarlarni muntazam ravishda yuqorida ko'rsatilgan usullar asosida o'rganib borish va o'z ijrosini takomillashtirishga intilish;
- ayrim tadbir va konsertlarda ijro chiqishlarini amalga oshirish;

Respublikada tayanch OTM hisoblangan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida musiqqa ta'limi bo'yicha 1950 yildan buyon uzluksiz



ta'lim tizimi (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus hamda maktabdan tashqari ta'lim – Bolalar musiqqa va san'at maktablari) uchun musiqqa fani o'qituvchisi kadrlari tayyorlanib, Respublikadagi barcha pedagogika sohasidagi musiqqa ta'limiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha tayanch baza hisoblangan. 2009 yillarga qadar universitet San'at fakultetida musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha 5 ta (“Musiqqa o'qitish metodikasi”, “Cholg'u ijrochiligi”, “Dirijyorlik”, “Musiqqa nazariyasi”, “Vokal ijrochiligi”) kafedralari faoliyat ko'rsatgan.

Xorijiy oliy ta'lim muassasalari Budapesht davlat universitetida “Milliy musiqqa ta'limi” fakulteti (**Vengriya**), Frayburg universiteti Musiqqa pedagogikasi (**Germaniya**), Baku pedagogika universitetida Musiqqa fakulteti (**Ozarbayjon**), Xelsinki universitetida san'at fakulteti (**Finlandiya**), Gnesinlar nomidagi Moskva davlat musiqqa pedagogika instituti, Janubiy Qozog'iston davlat pedagogika institutida San'at va ta'lim fakulteti (**Qozog'iston**)da musiqqa ta'limi bo'yicha alohida fakultet bo'lib, ularda bir necha ixtisosliklarda uzluksiz ta'lim uchun musiqqa o'qituvchisi kadrlari tayyorlanib kelinmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aynan ta'lim tizimini tubdan islohi qilish, Respublika Iqtisodiyoti ehtiyojlari bo'yicha musiqqa va san'at sohasida kadrlar tayyorlashni tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ijodiy ishlar amalga oshirildi.

### **Musiqqa ta'limini tashkil etish shart-sharoitlari:**

O'zbekiston Respublikasida Prezidenti Shavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab bergan bo'lsa, 2017 yil 17 noyabrdagi “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida”gi PQ-3391-sonli qarori, 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6000-sonli farmoniga asosan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqqa san'ati instituti tashkil etilishi va qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 86-sonli Bayoni aynan fikrimiz dalilidir. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 2 maydagi “Respublika oliy ta'lim muassaslarida San'atshunoslik fakultetini tashkil etish” bo'yicha 404-sonli buyrug'iga asosan Respublikadagi 15 ta OTMsida San'atshunoslik fakulteti tashkil etilgan bo'lib, “Vokal xonandaligi (turlari bo'yicha)”, “Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha) ixtisosligida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 86-sonli Bayoni, 24-bandi ijrosiga asosan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida “Musiqqa madaniyati” fakultetini tashkil etish taklifini qo'llab – quvvatlagan holda uning tarkibida dastlab, 2 ta (Musiqqa nazariyasi va metodikasi kafedrasida (9 shtat),



Ijrochilik mahorati va madaniyati kafedrasini (9 shtat) faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Musiqa ta'limi faoliyatini takomillashtirish va musiqa ta'limi sohasida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar:**

1. 5111100-Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi nomini "5111100-Musiqa o'qituvchisi" deb klassifikatorga o'zgartirish kiritish;

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 2 maydagi "Respublika oliy ta'lim muassaslarida San'atshunoslik fakultetini tashkil etish" bo'yicha 404-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida universitetda "Vokal xonandaligi (turlari bo'yicha)", "Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;

3. Respublikadagi Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun kadrlar yetishmovchiligini e'tiborga olib, musiqa o'qituvchi (sohalari bo'yicha), kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;

4. Bakalavriat bosqichining o'qish muddati 3 yil bo'lgan kredit-modul tizimida kadrlar tayyorlashni davrida xonandalik, cholg'u asbobni chalish malakasini hamda musiqa nazariyasi bo'yicha bilim va malakalarni to'la egalay olishlarini ta'minlash uchun "Fortepiano va qo'shimcha cholg'u", "Vokal va zamonaviy musiqa", "Maktab repertuari", "An'anaviy xonandalik" fanlarini yakka tartibda, "Dirijyorlik" fanini 4-6 nafardan iborat kichik guruhda, tayanch musiqiy fanlar ("Cholg'u ijrochiligi va ansambli", "Musiqa nazariyasi", "O'zbek xalq musiqa ijodi", "Xor va xorshunoslik", "Bolalar musiqa adabiyoti", "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari", "Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi" va boshqa musiqiy fanlar)ni amaliy (laboratoriya) mashg'ulot shaklida o'qitish;

5. Yakka tartibda, kichik guruhlarda, hamda laboratoriya mashg'ulot sifatida o'qitiladigan fanlarni o'qitishda sarflanadigan mablag'lar to'lov-shartnoma asosida tahsil oladigan talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini oshirish hisobidan qoplash;

6. O'quv rejadagi yakka, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlari bor bo'lgan tayanch musiqiy fanlarni o'qitishda 100% "konsertmeyster"jo'rnavoqligini ta'minlash.

7. Musiqiy fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan shuningdek, musiqiy cholg'u asboblari, nota yozuvli elektron doskalar bilan to'liq ta'minlangan va jihozlangan auditoriyalarda o'qitishni tashkil etish.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 noyabr "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3389-sonli qarorining 1-bandi, uchinchi xat boshida "... abituriyentdan alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, san'atshunoslik, musiqiy ta'lim, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlariga qabul qilishni kirish test sinovlarisiz, ijodiy imtihonlar orqali amalga oshirish..." deb belgilab qo'yilgan.



Shunday ekan, alohida iqtidor talab etadigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lim, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlariga qabul O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 iyuldagi 588-son qarori bilan tasdiqlangan "Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshirishni doimiy ta'minlash.

**9.** Musiqqa san'atini jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida "hayot-mamot" masalasi ekanligini chuqur his qilgan holda umumta'lim maktablarida "Musiqqa madaniyati" fanini 1-4 sinfgacha haftasiga uch soat, 5-8 sinfgacha haftasiga ikki soat, 9-11-sinflarda haftasiga bir soatdan o'qitish tashkil etish choralari ko'rish bo'yicha takliflar kiritish;

**10.** Respublikadagi umumta'lim maktablari "Musiqqa madaniyati" fani bo'yicha 2007 yildan buyon "qayta nashr" etilib kelinayotgan 1-7-sinf musiqqa darsliklarini musiqqa ta'limi sohasida kadrlar tayyorlayotgan OTMlardan hamda umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan ko'p yillik tajribaga ega o'qituvchi-pedagoglardan mualliflar guruhini shakllantirish va bolalarni yoshiga xos hamda ularni qabul qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda darsliklarni yaratishni ta'minlash;

**11.** "Musiqqa ta'limining sifat va samaradorligini oshirish: muammo va yechimlar" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini muntazam tashkil etish.

**12.** Mazkur takliflarni e'tiborga olgan holda OTM PO' vaqt me'yorlariga tegishli qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish.

### **3. "Ustoz-shogird" maktablari.**

O'rta asr musiqqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, "Ustoz-shogird" maktablarining keng miqyosda rivojlanishi bo'ldi. Cholg'u ijrochilari nafaqat bir necha turdagi musiqqa asboblarini chala olgan, balki o'zlari ham musiqqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy asarlari ham ko'paydi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarining yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Forobiyning (873-950) "Katta musiqqa kitobi" ("Kitob al-musiqqa al-kabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ush-shifo") qomusidagi "Musiqqa haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqqa haqidagi risola" kitoblarida musiqqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.



Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'u ijrochisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinning eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir.

Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiqqa haqidagi to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabir fil-musiqiy") uning musiqqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni – musiqada lادلarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Amir Temur saroyida - Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqqa ilmida ohanglar to'plami" ("Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Xusaynning (XV asr) "Musiqiy kanonlar" risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqqa cholg'usi-dutor haqida bir qator musiqiy cholg'ular xususida juda qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida gapirib, inson ovozi musiqqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan. XVII asrda yashagan Buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari "Kitob al – musiqqa al -kabir" ("Musiqqa haqida katta kitob") ulkan ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turadi. O'rta asr olimi o'zining ushbu mashhur kitobida ikki xil musiqqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga ahamiyat beradi va u: "... Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor" deb yozadi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy ahyonlari, balki shahar va qishloq aholisi, chorvodoru-dehqonlar, hunurmandlar orasida shuningdek, musiqqa madaniyati sohasida yetakchi o'rin egallagan.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan-oxir o'sha davr musiqqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun va boshqa musiqqa cholg'ulari izchil va batafsil tahriflanadi. Forobiy torli, mizrobli lyutnyani o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'u hisoblagan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lad)lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Zamonaviy ud namunalarini hozirgi kunda O'zbekiston davlat konservatoriyasining milliy cholg'u laboratoriyasi muzeyida saqlanib kelinmoqda.

"Musiqqa haqidagi katta kitob"da Forobiy yana bir cholg'u asbobi- tanburni ham tahriflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi



cholg'ulardan biri deb hisoblaydi.

Ustoz-shrgird an'analarini rivojlantirish masalasiga mustaqillik yillarida yanada ko'proq e'tibor qaratildi. Bugungi kunda O'zbekistonda maqomotning uch turi – Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga doir ijrochilik **an'analarining** hayoti. Akademik Yu.Rajabiy nomidagi Maqom ansambli faoliyati. Ansambl repertuarida Shashmaqom va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari asosiy o'rin tutishi hamda ular ijrosida Yu.Rajabiy va F.Sodiqovlarning badiiy **an'analari** ijodiy davom ettirilayotgani. Xorazm maqomlariga xos ko'hna badiiy **an'analari** Xorazm viloyatining Hojixon Boltaev nomidagi maqom ansambli tomonidan qayta tiklanganligi. Shuningdek, Farg'ona-Toshkent maqom ijro yo'llariga doir **an'analari** «Tavoyis», «Anor», «Sarvigul», «Meros» kabi ansambllar faoliyatida davom ettirilayotganligi. Maqom ijrochilarining Respublika tanlovlarining ahamiyati.

Buxoro amirligi va Xiva xonligining yemirilishi hamda Buxoro Xalk Sovet respublikasi (1920 y.), Xorazm Xalk Sovet Respublikasi (1920 y.), ular negizida Uzbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (1924 y.), sungra Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (1929 y.)ning tarkib topishi mintakada yangi turmush tarzi, urf-odatlar, jumladan musikiy udumlarning joriy etilishida burilish nuqtasini belgilaydi. Aynan shu vaktida asrlar kahridan kelayotgan klassik musika an'analarida uzgacha karashlar sodir bula boshladi. Yangi siyosiy bulinishlar natijasida makom san'atining kadimiy uchoklari bulmish Buxoro, Xorazm, Fargona va Toshkent Uzbekiston adudiga kirganligi munosabati bilan Buxoro, Xorazm va Fargona-Toshkent uslublari umumlashtirilib, mushtarak an'ana sifatida kurila boshlandi. Shuning uchun A.Fitratning 1927 yilda ChOP etilgan kitobi "Uzbek klassik musikasi va uning tarixi" deb nomlanishi xam bejiz emas. Uzbekistonning markazi dastlab Samarkand buldi. Poytaxtga xos bo'lgan barcha madaniy muassasalar ham shu shakarda joylashdi: markaziy konsert, teatr tashkilotlari, respublika radiosi va o'kuv muassasalari. San'at sohasidagi birinchi va ilmiy dargox, - Musika va xoreografiya instituti ham 1928 yilda Samarkandda ochildi. Bu institutda ukuv va ilmiy-tadkikot ishlari barobariga olib borildi. Ukuv dasturlari an'anaviy xamda yevropa yunalishlarida amalga oshirilgan. Milliy musikadan ta'lim berishda tarixiy shakllangan uchala makom maktabi xam nazarda tug'ilgan. Farg'ona yulidan Abdukodir Ismoilov, Xorazm uslubidan Matyusuf Xarratov, Buxoro Shashmakomidan Domla Xalim Ibodov, Abduraxmon Umarov kabi yetuk ustozlar dare berish uchun jalb etilgan. Yevropa musika savodidan N.N.Mironov o'kitgan. Ayni chokda u institut direktori lavozimida bo'lib, o'zbek va tojik musiqasiga oid ilmiy izlanishlar xam olib borgan (109). Uzbekiston poytaxti Toshkentga kuchirilishi munosabati bilan mazkur institut 1932 yildan ilmiy tadkikotlar markazi sifatida shu yerda faoliyat kursatdi. Tez orada bu shaxar butun Markaziy Osiyoning yirik ma'muriy va madaniy bo'yog'iga aylana boshladi. Ayni paytda 30-yillar mashhum sotsialistik madaniy kurilishning faol boskichiga o'gilganligi bilan belgilanadi. Butun rasmiy siyosat yangi teatr va konsert xayotini joriy etish xamda milliy an'analari asosida yevropacha madaniyatni o'zlashtirishga qaratilgan edi. Ushbu intilishlar bayrogi





ostida an'anaviy musika, makomlar o'tmish sarqiti sifatida qurila boshlandi. Qadimiy musiqiy an'analar turli vajlar bilan asta-sekin chetga chiqarilishiga qaramasdan, uning ishtirokisiz yangi murakkab jarayonlarning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin edi, albatta. Musiqa madaniyati qurilishining barcha soxalarida xizmat qilayotgan san'atkorlar xam ana shu an'anaviy muxitda tarbiya topgan vakillardan iborat bo'ldi. Shu to'lkinda Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarkand va boshqa joylardan yetishib chiqqan e'tiborli ashulachi va sozandalar poytaxtga karab intila boshladilar. Xorazmdan Matyusuf Xarrotov, Madraxim Yokubov, Buxorodan Domla Xalim, Abduraxmon Umarov, Fargona vodiysidan Axmadjon Umrzokov, Abdukodir Ismoilov, Juraxon Sul-tonov xamda ularga ergashgan barkamol avlod ashulachi va sozandalar Toshkentda yashab ijod etdilar. Toshkent klassik musiqaning yirik markazlaridan biriga aylandi. Konsert tomoshalari va radio orqali eshittirilayotgan kuy xamda ashulalarning aksariyati xam shu an'anaviy klassik musika bisotidan olindi. Xullas, ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ko'xna maqom san'ati rasman ko'llab-kuvvatlanmasa xam, tarix saxnasida ta'sirini ko'rsatishni davom ettirdi. 1946 yilda Tojikiston radiosi qoshida Bobokul Fayzullaev raxbarligida "Shashmakom" ansambli tashkil etildi. Bu ishni yo'lga quyish va taraqqiy toptirishda o'sha paytlarda respublika raxbari bo'lgan tarixchi olim Bobojon Rofurovning xizmatlari katta bo'ldi. Akademik B.Rofurov tarix va madaniy merosni o'rganish borasida qizgin faoliyat boshlab, tojik xalkining uzoq o'tmishidan yangi davrlargacha bo'lgan tarixini aks etgiruvchi tadkdkot yaratishga kirishdi. Poytaxt Dushanbeda Shashmakomning turkum tarzidagi ijrolarini yulga ko'yish bilan bir qatorda, uning yangi nota matnlarini yaratishga xam kirishildi. Bu tadbir Bobokul Fayzullaev, Shonazar Soxibov, Fazliddin Shaxobovlar tomonidan amalga oshirildi. Ularning xammasi aslida Buxoroda maktab qurgan va Shashmakomning tub ildizlaridan baxramand bo'lgan yetuk sozandalar edi. Bundan tashkari Sh.Soxibov va F.Shaxobovlar, avvalo, Buxoroda A.Fitrat tashkil etgan Shark musika maktabida, keyinchalik Moskva Konservatoriyasining maxsus kurslari (rabfak)da bilimlarini oshirganlar.

Sh.Soxibov Uzbekiston radiosida milliy ansambl raxbari, F.Shaxobov esa Uzbekiston filarmoniyasi qoshidagi qushiq va raks ansamblining badiiy raxbari vazifalarida ishlagan. Shunday kilib, ko'pchilikning say-xarakatlari bilan Shashmaqomning besh jildlik to'plami yaratilgan. Bu kitoblar 1951-1969 yillar davomida professor V.M.Belyaev taxriri ostida Moskvada chop etilgan. B.Fayzullaev, Sh.Soxibov, F.Shaxobovlar o'zlari biladigan kuy va ashulalarni notaga tushirganlar. Ular Shashmaqomning mavjud ijro variantlarini qamrab oluvchi to'lik xamda tanqidiy matnlarini yaratishni maqsad qilmaganlar. Boshqacha aytganda, bu - nomlari zikr etilgan uch ustoz xotirasidagi "Shashmaqom" edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, B.Fayzullaev, Sh.Soxibov, F.Shaxobov yozuvlari muxim tarixiy axamiyat kasb etdi. Bu vokeaning o'zi Shashmaqomni milliy meros sifatida o'rganishga qaratilgan burilishning boshlanishi bo'ldi. B.Fayzullaevdan keyin Dushanbe "Shashmakom" ansambli Sh.Soxibov (1965-72), Alijon Soliev (1972-74), Axmad Bobokulov (1974-84), Asliddin Nizomov (1989-90), Mastona Ergasheva (1998), endilikda esa Abduvali Abdurashidov raxbarligida faoliyat kursatmokda. Mazkur guruxda uzoq yillar



samarali ijod qilgan yirik sozanda va xofizlar Neryo Aminov, Nison Shoulov, Barno Isxokova, Sharifjon Bobokolonov, Farida Saydullaeva, Boymuxammad Niyozovlar Shashmakomning Tojikiston andozasini paydo qilishga xissa qushdilar. Shashmaqomning ijrolarini tiklash va ularni notaga olish ishlari Uzbekistonda 50-yillarning oxiridan yangidan avj ola boshladi. Avvallari maqom ijrosi Toshkent radiosi qoshidagi milliy ansambl zimmasida bo'lgan edi. Unda klassik kuy va ashulalar respublikaning turli joylaridan to'plangan atoqdi ustozlar, shuningdek, yangi avlod xofiz va sozandalari ijrosida efirga uzatilib turilgan. Mazkur davrda maqom san'atini muntazam rivojlantirish va notaga olish birinchi navbatda Yunus Rajabiy nomi bilan bog'lik. Uning maqomshunoslik faoliyatida bir-biriga uzviy bog'langan ikki yunalish yetakchi o'rin egallaydi. Bir tarafdin Shashmaqomning nota matnlarini, ikkinchi tomondan, ularga muvofik ovoz yozuvlarini yaratish amalga oshirildi. Nota kitoblari avvalo "Uzbek xalk musikasi" to'plamlarida e'lon qilindi. To'planning Yu.Rajabiy tomonidan yozilgan dastlabki besh jildi 1951-59 yillarda aynan shu nom bilan chop etildi. Ulardan 1-4- kitoblar umuman o'zbek xalq musiqasi namunalari, jumladan, maqom yullarini xam o'z ichiga oladi. "Buxoro maqomlari" deb nomlanuvchi 5-kitob esa to'laligicha Shashmaqomga bag'ishlandi. 1958 yilda Uzbekiston Radio va televideniesi davlat qo'mitasi qoshida Yu.Rajabiy raxbarligida maxsus maqom ansambli tashkil etildi. Jamoaning dastlabki maqsadi, Olti maqom turkumini to'laligicha radioning ovoz fondi uchun yozib olish edi. Bu ish oldin Kog'ozga tushirilgan nota yozuvlarini amalda sinab ko'rish uchun xam o'ziga xos ijodiy laboratoriya vazifasini bajardi va bir butun ilmiy-amaliy jarayonda matnlar va ijro darajasi takomillashib bordi. Natijada maqom yullari kaytadan notaga olinib, "Shashmakom" nomi bilan olti kitob xoliga keltirildi (180). "Shashmakom" kitoblaridagi matnlarga mos ijrolar paydo bo'ldi va ular yigirmata plastinkadan iborat audio yozuvlar tarzida chop etildi. Yu.Rajabiy ishlari o'zining keng kulami tufayli Shashmaqom taraqqiyotining ma'lum davrini belgilovchi muxim tarixiy xujjatga aylandi (181). Yu.Rajabiydan keyin maqom ansambliga turli san'atkorlar boshchilik qildi. Dastlabki voris - uzok yillar davomida Yu.Rajabiy yonida musika raxbari vazifasida turgan Faxriddin Sodikov bo'ldi. Undan keyin ansamblni Yu.Rajabiy maktabida voyaga yetgan xofiz Orif Alimaxsumov boshqardi. So'ngra konservatoriyada ta'lim olgan sozandalarning yangi avlod vakillari: Shavkat Mirzaev (Muxammedov), Abduxoshim Ismoilov, Isroiljon Vaxobov va yana Abduxoshim Ismoilov raxbarligida Yu.Rajabiy nomidagi maqom ansambli faoliyat ko'rsatib kelmokda.

?

### NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xalq cholg'u asboblarning takomillashuv jarayoni qaysi davrlarni o'z ichiga oladi
2. Qonun musiqqa cholg'usi.
3. Ud musiqqa cholg'usi.



4. Tanbur va sato musiqqa cholg'usi.
5. Dutor musiqqa cholg'usi.
6. Nay musiqqa cholg'usi.
7. G'ijjak musiqqa cholg'usi haqida turli man'balarda qanday ma'lumotlar berilgan.
8. Qanday rubob turlari bor
9. Rubob musiqqa cholg'usini mohir ijrochilari
10. Doyra musiqqa cholg'usi butun Sharq xalqlarida qanday nomlar bilan ataladi.
11. Mashhur doyrachilar Usta Olim Komilov, Qahramon Dadaev, Talat Sayfiddinov

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T.1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.1997
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.: Sharq 1998 y-182 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. T.: O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y 1-3 betlar.
6. Alimov F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, «Musiqqa», 2004.
7. Dadamuxamedov A. Rubob prima darsligi. Toshkent, 2004.
8. Ergashev G'. Afg'on rubobi darsligi. Toshkent, 2004.
9. Nurmatov X. Qashqar rubobi. Toshkent, 2003.
10. Toirov M., Petrosyans A. Musiqqa asboblari - «Nay». Toshkent, 2002.
11. Odilov A., Lutfullaev A. Musiqqa asboblari – «Chang». Toshkent, 2002
12. Qosimov R. Musiqqa asboblari – «Ud». Toshkent, 2002.
13. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002.
14. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent, 1997.
15. Toshmuxamedov M. G'ijjak darsligi. Toshkent, 1996.
16. Petrosyans A. Instrumentovedenie «Uzbekskie narodnye instrumenty». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.
17. Yu.Rajabiy. «O'zbek xalq musiqasi I, II, III, IV, V». – T., 1958.
18. Turli mualliflar. Nota adabiyotlari. 1956-2008.
19. Razzoqova M.Q. Akademik xonandalik asoslariga kirish. – Toshkent: 2014, Sharq. – B. 200.
20. D.Amanullaeva. «Estrada xonandaligi». Magistrlar uchun darslik (qo'lyozma). – T., 2014.
21. D.Amanullaeva. Vokalizlar (qo'lyozma). – T., 2014.
22. A.Mansurov. "Musiqqa san'ati (turlari bo'yicha)" yo'nalishi "Musiqqa san'atida zamonaviy tendensiyalar" moduli. Toshkent. 2016 y.



**4-mavzu: O'zbek musiqqa merosi qatlamlari, og'zaki an'anadagi kasbiy musiqqa, dostonchilik ijodiyoti, folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari.**

**Reja:**

1. O'zbek xalq musiqasi
2. Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqqa
3. Dostonchilik ijodiyoti
4. Folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari

**Tayanch iboralar:** qo'shiq, terma, yalla, lapar, ashula, katta ashula, doston, maqom, og'zaki an'ana, qadimgi musiqqa, falsafa, kuy-qo'shiq.

**1. O'zbek xalq musiqasi**

Musiqashunos olimlar o'zbek xalq musiqqa ijodi namunalarini ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va bajarayotgan vazifalariga ko'ra quyidagi ikki asosiy guruhga tasnif etadilar:

a) Ijro etilishi ma'lum sharoit va vaziyatlar bilan shartlangan kuy-qo'shiqlar (oilaviy, mavsumiy, mehnat);

b) Istalgan "vaziyat" yoki erkin mavzuli kuy – qo'shiqlar (qo'shiq, terma, lapar, yalla) (2.43; 2.49; 2.51; 2.54).

Bunda birinchi guruh mazmunini mehnat jarayoniga bog'liq aytimlar, oilaviy marosim, mavsumiy marosim va mehnat qo'shiqlari tashkil etsa, ikkinchi guruh tarkibi o'z ichiga qo'shiq, terma, lapar, yalla, ashula kabi aytimlarni oladi.

Shunday qilib, o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti mahsulini ilmiy jihatdan tizimlashtirish masalasida musiqashunos olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tasnifot poydevor asos sifatida e'tirof etiladi. Shunga muvofiq tadqiq qilinayotgan qo'shiqlar ikki yirik bo'limga ajratilib, ulardan biri "ma'lum vaziyat bilan shartlangan qo'shiqlar (yoki qisqaroq qilib "ma'lum vaziyat aytimlari"), ikkinchisi esa "turli mavzuli qo'shiqlar" kabi iboralarda tasnif etiladi.

Tasnifimizdan joy olgan har bir aytim namunasida jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichiga xos ijtimoiy hayot, urf – odat, an'ana, ma'naviy qarash va qadriyatlar o'ta badiiy aks etgan. Demak-ki, xalq qo'shiqlarida muayyan muhit in'ikosini, turlicha vaziyat va sharoitlarga bevosita yoki bilvosita bog'liqligini ko'ramiz. Bu kabi holatlarni atroflicha anglash maqsadida tasnifimizda qayd etilgan har ikkala bo'limni alohida-alohida tasnif etish maqsadga muvofiqdir. Xalq qo'shiqlari ko'pqatlamli, purma'no, serjilo, ohangrabodir.

Ma'lum vaziyat aytimlari:

Oilaviy marosim aytimlari - "Alla", "Yor-yor", "O'lan", "Kelin salom", "To'ylar muborak", "Beshik to'yi", "Muchal to'yi", "To'ylar muborak", "To'ydir bugun yor – yor", "To'y bugun", "Muchal to'ying muborak", "Beshik to'ying muborat", "Omonliq – esonlik", "Isiriq", "Xush kelibsiz bolajon", "Beshik bog'i", "Elimda to'ylar bo'lsin", "Kelin nidosi", "O'ynang momo o'ynang", "Yo'qlov", "Yig'i", "Sadr", "Ayriliq", "Motam".



Mehnat qo'shiqlari - sog'im qo'shiqlari ("Chirey-chirey", "To'ray-to'ray", "Xo'sh-xo'sh"), "Arpa bug'doy pishibdi", "Yozi", "Oblo baraka", "Oq sholi ko'k sholi", "Xo'p mayda", "Mayda – mayda", "Guppi", "Toba toshim", "Shox moylar", "Don septi", "Havvor", "Arpa bug'doy pishibdi-ya og'ajon", "O'roqchilar qo'shig'i", "Otboqar qo'shig'i", "Urchug'im", "Oshpaz qo'shig'i", "Aranji", "O'rmak qurdim", "O'rmak", "Kigizim", "Temir bobom o'tovi", "Kigizim", "Qamish qo'lim kesmasin", "Yorim to'ni", "Jun taroqni tarayman", "Do'ppi", "Belbog'", "Tegirmon".

**Mavsumiy qo'shiqlar** - "Jarchilar qo'shig'i", "Navro'z", "Navro'z ekan", "Hoy bobo", "Lolajon", "Lolachaga ishim bor", "Lolay sayli", "Sumalak", "O'yna lola", "Do'st bo'lamiz lolacha", "Boychechak chiqibdi", "Boychechak", "Turna keldi", "Muborakbod", "Yil boshi", "Hamal", "Halinchak", "Laylak keldi yoz bo'ldi".

**Diniy aytimlar** - "Ramazon" "Olloyorxonlik", "Yassaviyxonlik", "Folbin aytimlari", "Darveshona aytimi", "Duoxonlik". Ularni to'liq tasavvur etishda avvalambor ilmiy tasnif uslublari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Oilaviy marosim qo'shiqlari** ko'p asrlar davomida shakllanib, turli davrda yashab kelgan mahalliy aholi ruhiyatidan oziqlangan holda bizgacha yetib kelgan. Mahalliy xalqning madaniy turmushida muhim ahamiyatga ega ijtimoiy va tabiiy hodisalar o'ziga xos urf hamda turli marosim shaklida nishonlanib kelinayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan (2.14; 2.38; 2.43; 2.48).

Shu o'rinda eng avvalo marosim atamasi haqida ikki og'iz so'z. Mazkur atama aslida arab tilidagi "marsum" so'zidan iste'molga kirib kelgan bo'lib, "chizilgan", "rasm qilingan", "odat bo'lgan" degan ma'nolarni anglatadi (2.66). "Marosim" so'zi, shuningdek, jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ma'nosini ham bildiradi.

Marosim qo'shiqlarining kelib chiqishi, mahalliy xususiyatlari, ijro shakli, maqsadi va vazifalari alohida alohida tadbirlarga bog'liqdir. Ana shunday tadbirlarning aksariyati ko'p hollarda oilaviy sharoitda nishonlangan. Shuning uchun ham ular "oilaviy marosim"lar deb ataladi (2,14; 2,43; 2.48). Oilaviy marosimlarning eng zarur vazifalari qatorida avlodlarni milliy qadriyat, an'ana va ko'rkam odatlar asosida tarbiyalashni qayd etish mumkin. Bu hol o'z navbatida, mazkur vaziyat qo'shiqlarini ijro shakliga ko'ra qator tur va turkumlarga ajratishni taqozo etadi. Shunga ko'ra inson umri davomida unga hamrohlik qilib keluvchi oilaviy marosimlarni shartli ravishda yetti turga ajratish mumkin. Oilaviy marosimlarning yuqori saviyada o'tishida, albatta, ularda an'naviy o'rin tutgan kuy va qo'shiqlarning ahamiyati benihoya kattadir. Xoh u to'y marosimi, xoh motam marosimi bo'lsin – unda ma'lum ko'rinishlardagi ohang (aytim) ifoda etilishi an'ana tusini olgan.

**Alla**<sup>25</sup>. Yangi – inson chaqaloq tug'ilishi bilan islom shariatiga ko'ra, yetti kun ichida unga ism qo'yilib, qulog'iga "Azon" aytiladi. Chaqaloq shu zayl ham musiqiy tovushni ilk bor eshitadi. Ismi bilan chaqirilganda (murojaatga) imo –

<sup>25</sup> "Алла"га доир куйидаги адабиётларга қаранг



harakatlar bilan tovush taralayotgan tomonga qaray boshlaydi. Chilla ((kichik (yigirma) va katta (yigirma))si qirq kun o'tgach, u turli tovushlar (gohida mayin, gohida keskin)ni seza boshlaydi. Ammo, uning tabiiy vaqt mezonlari ona siynasidan ozuqlanib, onaning his – hayajon xususiyatlari bolaga o'ta boshlaydi. Bola bezovtalansa, albatta, ona uni ovitish uchun mayin ovozda “Alla” aytadi. Ba'zan, ona o'zida ustuvor his – tuyg'uni bostirish uchun “Alla”ni kuylaydi. Bunda ovoz yurish diapazoni kvarta – kvinta oralig'ida bo'ladi. Viloyatlar bo'ylab olib borilgan musiqiy folklor ekspeditsiya jarayonida “Alla”larning turli xil ijrolari qayd qilindi. Shunday qilib allalar oilada chaqaloqni beshik yoki belanchakda uxlatish vaziyatida aytiladi. Alla aytuvchi ona, buvi, xola, amma yoki opa alla orqali o'zining ichki his tuyg'ularini ham bayon qiladi, ba'zan, sog'inch iztiroblarini ifoda etadi. Shu bois ularning allalarini she'riy mazmunida sog'inch, qo'msash, xotirlash kabi mavzularga ham o'rin beriladi. Bu xususiyatlar alla aytimlarining mahzun kuy-ohanglarida ham o'zini namoyon qiladi. Zero bunda ayollar folklorining o'rni katta. Tarixiy manbalardan ma'lumki, bu hudud ayollari paranji o'rniga chakmon yopingan. Bu esa bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni beshikka belashdan tortib, voyaga yetishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ona murg'ak chaqaloqqa o'zining bor his-tuyg'ularini “Alla” ohangi orqali singdirgan. “Alla”lar bolaning ruhiy yuksalishiga katta yordam bergan.

### АЛЛА

Ўртача

Тоқ - ка чик - дим дў - ла - на ал - ла - ё ал - ла

Кўш хўк - ки - зим жу - во - на - ё ал - ла - ё ал - ла



## АЛЛА

Ўргача

Ал - ла де - сам ю - ра - гим э - зи ла - ди ал - ла  
 5 ум - рим ў - тиб бор - моқ - да - ей се - зи - ла - ди ал - ла  
 9 Ал - ла ай - тай жо - ним бо - лам ку - лоқ сол - гин ал - ла - ё  
 13 бир кун чи - киш тор - ла - ри у - зи - ла - ди ал - ла

Shu bilan birga o'zbek folklorida erlar allasi ham uchraydi. Ma'lumki, qadimda O'zbekiston aholisining ko'chmanchi tarzda yashaganligi, ularning turmush hayotini ba'zi sharoitlarga moslashishiga sabab bo'lgan. Chunonchi, ayollar beshikdagi chaqaloqni erlariga qoldirib, qo'shni ovulga mehmon yoki guring (suhbat) qilishga chiqishgan. Ular uzoq qolishi bois, beshikdagi chaqaloqni ovutish uchun erlar tomonidan "Erkaklar alla"si alla aytiladi.

## АЛЛА (эркаклар алласи)

Ўргача

Чик - кан жо - йим чу - йин - чи мин - ган о - тим ў - йин - чи  
 3 Ўзбек ки - зи ул туг - са чи - ро - ки дўппи сў - йинчи Ал - ла - я бо - лам о - пайин  
 6 ус - тин га кўр па ё - па - йин бир э - нангбор дар - бадар кай - си уй - дан то - пайин

**Beshik to'yi.** Azal – azaldan quda – anda rishtalari farzand ko'rish bilan mustahkamlangan. Yangi mehmon tug'ilishi bilan yangi baxt, yangi orzu – umidlar qurilib, elu – ulus, qavmu – qarindoshlar hamjihatligida keng bayramona kayfiyatda, tantana qilinib, to'y marosimi tarzida o'tkazilgan. Bu tantana odatda xonadon sohiblarining o'zaro kelishuvlariga muvofiq chaqaloqning kichik yoki katta chillasi chiqqach o'tkaziladi. Bu marosim o'zining xarakter xususiyatiga ko'ra, "Beshik to'yi" marosimi deb ataladi. Respublikamizning janubiy xududlari (Surxondaryo, Qshqadaryo)da "Beshik to'yi marosimi"ni o'tkazish haftaning chorshanba yoki juma kuni tanlanadi va marosimning birinchi bosqichi tanlangan

kunning tong saharidan to quyosh chiqqunga qadar ona bolasi bilan uch – to‘rt yoshi ulug‘ kishilar hamrohligida muqaddas qadam jolar (buzruk, mozor)ga ziyoratga olib boriladi. Mazkur tashrifning asl mohiyati u yerda yotgan o‘tmishdosh hazrat avliyo, alloma-i fuzalo hamda “Hazrati Hizr ko‘rgan” deb e‘tirof etilganlarga ushbu chaqaloqning har qanday falokat, musibat, kulfat, ofat, bemahal o‘limdan saqlash maqsadida “boshi”ni atashdir. Ikkinchi bosqichda esa, xonadonga qaytilgach, chaqaloqni beshikka sola turib: “Egasi keldi! Hoy insu jinlar, beshikdan chiqinglar-uuuv! Bu joy sizlarniki emas, Balki bu joy (chaqaloqning ismini aytib), falonchinikidir! deya, she‘riy ifoda bilan xursandchilikda hayqiriladi. Beshikka belash mobaynida “Beshik to‘ying muborak”, “Xush kelibsiz bolajon”, “Mehmondirmiz”, “Beshik bog‘i” qo‘shiqlari ishtirokchilar tomonidan ommaviy tarzda ijro etilib, o‘yin – kulgi qilingan. Bu kabi qo‘shiqlarning ovoz hajmi odatda kvarta – kvinta doirasida bo‘ladi.

Musiqiy folklor ekspeditsiyasi davrida “Beshik to‘yi” marosimi jarayonida ijro etiladigan, viloyatning boshqa hududlarida kam uchraydigan “Beshik to‘ying muborak” nomli qo‘shiqni Tallimaron jamoa xo‘jaligida bir guruh turli yoshdagi ayollar ijrosida tingladik. Eshmirzaev Ochil boboning nevarasini beshik to‘yi munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda qishloq ayollari bilan ko‘p bolali, farzandlari xalqning hurmatiga sazovor bo‘lgan ayollar ham taklif qilindi. Chaqaloqni beshikka solish jarayonida kayvoni ayollar mahalliy xalqning urf-odatiga aylanib qolgan irim-sirimlar bilan bir qatorda qo‘shiqlar kuylab o‘yin-kulgi qilishdi. So‘ngra “Beshik to‘ying muborak” qo‘shig‘i ijro etdilar.

## БЕШИК ТЎЙИНГ МУБОРАК

Тез

Бе - шик тў - йинг му - бо - рак кут - луг ку - нинг му - бо - рак

5 шу - ги - на жо - ним шу жо - ним бўй - ни - да - ги мар - жо - ним

9 ху - до бер - са сиз - син деб тол бе - шик - ка сол - син деб

Bola beshikka solinib belangandan keyin ayollar kichkina davra qurib birbirlarini o‘yinga tortdi. Qo‘shiq asosan aytishuv shaklida davom etib, ishtirokchilar naqoratga jo‘r bo‘lib turishdi. Ijro davomida doyrada usuli jo‘r bo‘ldi. Azaldan momolar Respublikamiz hududlarida har xil marosimlar, bayramlar va xalq tantanalarining qiziqarli o‘tishida asosiy “fayz kirituvchi”lar hisoblanganlar. Bu esa ularning kuy-qo‘shiqlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, “O‘ynang, momo, o‘ynang” qo‘shig‘i sho‘x va o‘yinbob, aytishuv shaklida ijro etilgan. Naqoratida barcha ishtirokchilar jo‘r bo‘ladi (N-21).





**Sunnat to'yi** xalq orasida “xatna to'yi”, “bolaning qo'lini halolash”, ayrim hududlarda “jangala to'y” kabi iboralar bilan yuritilsa-da va u tong sahardan jarchilar chaqirig'i bilan boshlanadi. Jarchilar qadimdan ot minib, ayrim joylarda to'y bolani birga olib, o'z chaqiriqlarida “Ho' – falonchinikiga sunnat to'yiga-yo” deb xalqni “xabarlaganlar”. Ayrim hollarda to'y egasining topshirig'iga ko'ra, 3–4 ovozdor erkaklar tanlanib, ularning har biriga qishloqlar bo'lib berilgan. Ba'zan esa, jarchiga to'y bolani birga olib yurish topshirilgan. To'yga taklif etilganlar o'z navbatida jarchilarga turli sovg'a – salomlar ulashishgan. Ular to'y bolani qutlovchi to'yonalarni to'y boshiga topshirganlar. Odatga ko'ra to'y bolalar 3–12 yoshigacha davrda sunnat qilingan. Sunnat to'yi marosimi ma'lum belgilangan vaqtda ikki bosqichda o'tkazilgan. Birinchi bosqichda baxshilar erta tongdan davra qurib, chorlov sifatida “Nima aytay”, “Falonchinikiga to'yga keldim”, “Dostonim bor meni”, “Hur Vatan seniki”, “Bu ko'hna dunyo”, “Mehmondirmiz” kabi nasihatimiz termalar ijrosidan so'ng, “Alpomish” va “Go'ro'g'li” turkum dostonlaridan parchalarni ulab kuylashgan. Shu zaylda barcha yoru jo'ralar, qarindosh – urug' va qo'ni – qo'shnilar ishtirokida katta bazm uyushtirilib, “To'ylar muborak”, “To'ydir bugun yor – yor”, “Hay yor – yor aylanay”, “Yaqu – yaqu, yaqu – ya”, “Kovushim” kabi xalq qo'shiqlari kuylangan. To'y egasining niyatiga binoan (to'y uchun yig'ib qo'yilgan (asragan) bisotidan sharoitiga qarab) “Ko'pkari - uloq”, “Kurash” kabi ham musobaqalari uyushtirilgan. Unda nomdor chavandozlar, kuragi yerga tegmagan polvonlar o'zaro kuch sinashib, mahorat ko'rsatganlar. G'oliblarga sovrin sifatida ot, tuya, qo'chqor qo'y va boshqa qimmatbaho mukofotlar topshirilgan. Musobaqaga yig'ilganlarni xushnud etish uchun baxshi shoirlar terma – dostonlarni ijro etib turganlar.

Sunnat to'yining ikkinchi bosqichi xalqning duosini olgan, qo'li yengil, kasbdor ustaning “bolani qo'lini halolash” marosimi o'tkazilishi bilan boshlangan. Bu marosim erta tongdan “peshin” vaqtigacha muvofiq hisoblanib, bola sunnat qilingan. Marosim tugagach, to'y bolaga ota–ona va yaqinlaridan turli sovg'alar ulashilgan. Shu tariqa “sunnat to'yi” oilviy marosim sifatida keng jamoatchilik ishtirokida nishonlangan.

**Muchal to'yi.** Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni Mas'udiy” asarida muchal haqida shunday deyilgan: “Sharq ahli – xitoyliklar, turklar o'z yillarini 12 dan iborat davr tarzida tuzadilar va ularni hayvonlar nomi bilan ataydilar hamda ma'lum tartibda joylashtiradilar. Har bir yil ma'lum bir hayvon nomi bilan ataladi. Inson tug'ilgan yili qaysi vaqtga to'g'ri kelsa, shu yilgi nom bilan muchali nomlanadi”<sup>26</sup> Ma'lumki, ajdodlarimiz qadimdan 12 hayvon nomi bilan (sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz) atalgan yillar hisobini bir muchal deb, ushbu sanaga yetgan bolalarga bag'ishlab, muchal to'yi marosimini o'tkazganlar. Mana shu yillarning birida tug'ilgan bolaga o'sha yilning nomi berilib, u bolaga qaysi muchal yilida tug'ilganligi ma'lum qilingan. Har bir muchal 12 yilda bir marotaba aylanib keladi. Qadimgi davrlarda 13 yoshga kirgan bolani balog'at yoshiga yetgan deb hisoblab,

<sup>26</sup> “Барҳаёт анъаналар” Саодатхон Йўлдошева, Тошкент 1999 йил, 4 бет.



kattalar qatoriga qo'shganlar va ularga oila qurishga ruxsat etilgan. Bu marosim esa xalq orasida katta shodiyona, tantana hisoblanib, to'ydek bazm sifatida nishonlangan. Respublikamizning ba'zi xududlarida muchal to'yi marosimi ikki bosqichda o'tkaziladi. Ajdodlarimiz chorshanba va juma kunlarini muqaddas bilganlari bois tanlangan kunda muchal yoshiga kirgan bolani avliyo va shayxlarning mozori buzruklariga ziyorat uchun olib borib, so'ngida Xudo yo'liga sog'lom hayvon (qo'y, echki)ni qurbonlik qilishgan. O'sha bolaning boshiga atab chiroqlar yoqib, aziz-avliyolarning ruhlariga "Xatmi Qur'on" tushurishgan. Ayrim, jumladan, Boysun tumanida "to'y bola"ga milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarga sodiqlik ruhiyatini shakllantirish uchun ziyoratgoh joylar (mazor)ga olib borib, o'tganlar haqlariga Qur'on tilovat qilingan. Bu holat muchal to'yi marosimining asosiy birinchi bosqichi bo'lib, uning ikkinchi bosqichi oilada o'tkazilgan. Muchal to'yida xonadonga yaqinlar, qo'ni-qo'shnilar va muchal to'yi yoshiga yetgan bolaning tengqurlari taklif qilingan. Qo'ylar so'yilib turli taomlar dasturxonga tortiq qilingan. Taom tannavulidan so'ng marosim ishtirokchilari bazm sababchisini davraga tortib muchal hayvonlari nomi bilan bog'liq "Muchal to'ying muborak" nomli qo'shiqni ijro etgan.

### МУЧАЛ ТҮЙИНГ ҚУТЛУҒ БЎЛСИН

Ўргача

Му - чал тў - йинг кут - луғ бўл - син ўн уч ё - шинг кут - луғ бўл - син

сич - кон - дай эп - чил бўл - гин бо - лам сич - кон - дай кўр - қок бўл - ма - гин.

Muchal hayvonlarining ijobiy tomoni nishonlanayotgan to'y bolaga nisbat qilib kuylansa, salbiy tomonlari qoralanib o'tilgan. Qo'shiqning kuy ohangi kichik tuzilmadan iborat bo'lib, turli yoshdagi ayol va erkaklar tomonidan aytishuv shaklida ijro etiladi. Mazkur marosimda turli hayvonlar nomidan to'ybolaga nisbat berilib har-xil aytimlar to'qilgan. "To'y bugun", "Muchal to'ying muborak", "Omonliq - esonlik", "Isiriq", "Qoraqosh", "O'smalaring" kabilar shular jumlasidandir. Mazkur marosimning azaldan avaylab asrab kelinishi ayni milliy qadriyatlarimizning boqiyligidan dalolatdir. Muchal to'yi oilaviy marosim turkumiga xos tadbirdir.

**Qiz ko'rish marosimi.** Respublikamizning tog'li hududlarida qadimdan (hozirgi vaqtda ham) aholi ko'chmanchi tarzda yashab keladi. Qadimdan balog'at yoshiga yetgan o'smir yigitni uylantirish uchun albatta qo'shni ovul va qishloqlarga kelin tanlash uchun ovullararo "qiz ko'rish" marosimini o'tkazgan. "Falonchi kishining bo'yi yetgan qizi bor" deb eshitgan momolar qizi bor uyga ilgariroq "xabarchi" yuborib, qiz ko'rishga borganlar. Bu haqda qiz (bo'lg'usi kelin)ga xabar berilmagan. Qiz mehmon kutish bilan band bo'lishiga qarmay,



tashrif buyurgan momolar unga juda yaqindan munosabatda bo'lib, turli uy yumushlarini bajartirib sinovdan o'tkazganlar. Momolar bo'lg'usi kelindan ko'ngli to'lgach, har ikki tomon roziligidan so'ng "Ohuva" va boshqa qo'shiqlar kuylanib, xursandchilik qilingan. Marosim qiz ko'rish nomi bilan atalgan. Hozirgi kunda ushbu odat zamonaviylashish tusiga kirgan. "Ohuva" qo'shig'i faqat qiz ko'rish marosimi muvafaqqiyatli yakun topganda kuylanadi (N-46, N-150).

### О ҳува



Халгинчак учган о ҳу-ва ар - ча - миз - да о ҳу - ва



То кўриш гун - ча о ҳу - ва хуш денгиз - ла - р о ҳу - ва.

### О хува



Ў-ра-лите-па ўй-рил-ди-ей о ху-вақўл-лар-гахи-на қў-йил-ди-ей о ху-ва Эт-ган э-линг



сар-кар-да-ей о ху-ва дар банд га бо - риб су - йил ди-ей о ху-ва О ху - ва,



о ху - ва о ху-ва - ей дар банд га бо - риб су - йил - ди-ей о - ху - ва.

**Nikoh to'yi qo'shiqlari.** Bo'yi yetgan qizi bor har bir xonadonga sovchi bo'lib boruvchilar albatta "Sovchi qo'shig'ini" bilishi shart bo'lgan. Sovchi xonadonga qo'shiqni aytib kirgan. Xonadon sohiblari qarindosh-urug'lari bilan maslahatlashib, to'yga rozilik bergach "non sindirish" marosimi o'tkazilgan va shu kuni kuyovga kunda (g'ola, daraxt tanasi) yordirib sinab ko'rilgan. Mana shu jarayonda "O'tin yorish" qo'shig'i kuylangan. Unashtiruvdan so'ng "Qiz kiyit", "Bezak iligi", "Kuyov kiyit" marosimlari o'tkazilgan. "Qiz kiyit" marosimida shu nom bilan bog'liq qo'shiq bo'lib, kuyov tomon qizga "seb" (har xil kiyim sarpolar) yuborgan. Bu qo'shiq yangalar tomonidan ijro etilgan. Ular kuyov yuborgan sarpolarini ko'zdan kechirganlar. "Bezak iligi" marosimida ham shu nom bilan bog'liq qo'shiq bo'lib o'ziga xos irm-sirmlar asosida o'tkazilgan. Bunda qizning tikkan (chevarligi) va to'qigan (hunarmandlikka oid gilam, do'ppi, tilla qosh va boshqa) narsalari namoyish qilingan. "Kuyov kiyit" marosimi ham o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, unda asosan kuyovni kiyintirish jarayoni aks etadi. Kuyov



jo'ralari tomonidan turli qo'shiqlar ijro etilgan. Nikoh kuni kuyov kelinning uyida kelin bilan uchrashtiriladi. Shundan so'ng "Oyna ko'rsatish" marosimi amalga oshiriladi. Bunda kelin va kuyov birgalikda oynaga qaraydi. Kelin kuyovning uyiga kuzatilish jarayonida "O'lan" qo'shig'i, kuyovning uyida esa sho'x "Yor-yor"lar ijro etiladi (N-6, N-7, N-9, N-11, N-22, N-33, N-48, N-49).

Bu marosimda mavzuga bevosita va bilvosita bog'liq qo'shiqlar ijro etiladi. Oilaning eng katta shodiyonasi hisoblangan mazkur to'y har bir viloyatda o'ziga xos shaklda o'tkaziladi. Chunonchi, kuyov tomonidan tayinlangan kuyov jo'ralari bilan oilaning yaqin qarindosh – urug'laridan iborat kichik guruh kelinni tushirib kelish maqsadida belgilangan vaqtda kelinning uyiga tashrif buyuradi. Manzilga yetgach kelin xonadonida sozandalar jo'rligida "Yor – yor" qo'shiqlari ijro etilib o'yin kulgi kilinadi. Mezbonlar bug'doy unini kuyovga hamroh bo'lib kelganlarning kaftiga irim sifatida sepadi. Bu marosim tugagach, kuyov jo'ralari va uning yaqin qarindoshlari uchun maxsus dasturxon tuzalgan xonalarga kiritib, ularni kelin yangalari "etti tovoq", "to'qqiz tovoq", Toshkent-Farg'ona mahalliy uslubida "to'qqiz tog'ora", "qirq tog'ora" deb atalgan aslida yetti xil, keyinchalik "aholi orasida kim o'zar"ga berilib turli xil taom bilan mehmon qiladi. Shu vaqtda kelin dugonalari uni kiyintirib, kuzatishga hozirlaydilar. To'yxonadan kelin - kuyov chiqib ketish arafasida "O'lan" aytimi, kuyovning xonadoniga borib yetganda "Yor – yor" qo'shiqlari ijro etiladi. Kelin yangi xonadonga kirib borgandan so'ng katta bazm uyushtirilib, unda "Elimda to'ylar bo'lsin", "Ohuva", "Yor-yor", "Qiz qochdi", "Yor jamoli". "Oyna ko'rsatish", "Chiroylik", "Qizgina", "Ayriliq", "Judolik", "Yangajon", "Yorim to'ni", "Kampir topaymi dadajon", "Hay yor-yor aylanay", "O zan-zan", "Ho-do'rsi", "Yaqu – yaqu, yaqu - ya", "Kelgin yor o'ynaylik", "Kelin nidosi" va boshqa shu kabi turli qo'shiq va aytishuvlar ijro etiladi. Bazmning ertasi ertalab kuyovning yaqin qarindoshlariga kelinni tanishtirish maqsadida "Kelin salom" marosimida to'y qilgan xonadon sohibi kelin tushurilgan kunning ertasi o'zining tetikligi va hali ham so'zi o'tkirligini, oila boshlig'i ekanligini isbotlash uchun belbog'ini yerga tashlab "Kim oladi-ya shuginani-ya" nomli qo'shiqni "qulli bo'sin" (qulliq bo'lsin)ga kelganlarni vaqtini xushlash uchun ijro etgan (2,80; 6,10; 2,61). Udumga ko'ra keng davrada qo'shiqni yoshu-qari jo'r bo'lib kuylab, avvalo yoshi ulug' otaxonlarga belbog'ni olishga imkon berilgan. Belbog'ni olishda tizzalarni bukmay tishlab olish shart bo'lgan. Hozir ham "Kim oladi-ya, shuginani-ya" qo'shig'i ijro etilmoqda. Bu tantanadan so'ng "Kelin salom" marosimi ayollar tomonidan Oilaviy marosim turkumidagi "Nikoh to'yi" inson hayotidagi eng mas'uliyatli va qadrli tadbir sifatida nishonlanishi har bir viloyatga xos qadimiy an'analardandir.

O'tmishda yosh qizlarni faqatgina ota-onalarning roziligi bilan turli yoshdagi o'zlari ko'rmagan, bilmagan erkaklarga turmushga berganlar. Uzoq yurtlarga kelin bo'lib borgan qizlar kuyov uyidagi muhit va sharoitga ko'nika olmaganlar. Pirovardida ko'p qiyinchiliklar ko'rishgan. Bu holatlarni "taqdiri azal" deb bilib yashaganlar. Ota-onasini ko'rishni xohlasalar-da, biroq, buning imkoni bo'lmagan. Mana shu hayotiy ta'sirlanishlarni o'zlarining qo'shiqlariga solganlar. Ta'kidlab o'tilganidek, yosh kelinchaklarning sog'inch iztiroblari tushirilgan aytimlar aytilgan (N-111, N-134)



**Motam marosimi.** Inson o‘zi bilmagan holda hayotning turli achchiq – chuchuk sinovlarida yaxshi yomon kunlarida albatta musiqaga tayanadi va najot topadi. Respublikamizning barcha xududlarida yashovchi elat – urug‘larda marhum vafoti kunida yoki marosimlarida og‘ir judolikni, kuyunchaklik, achinish, mahalliy aholi tili bilan aytilganda “yig‘lamaganni ham yig‘latish” uchun maxsus go‘yandachilar taklif qilingan. Ular turli yig‘i – sig‘ilarni mungli, motamomuz shaklda nidoi faryod qilib, “Motam”, “Yig‘i”, “Sadr” aytimlarini aytib yig‘laganlar va shu tariq ta’ziya ishtirokchilarini ham yig‘latganlar. Bu marosim oilaviy tumush tarzining belgilanmagan vaqtda sodir bo‘luvchi voqelikning dalilidir. “Motam”, “Yig‘i”, “Sadr” aytimlarini marhum qazosi kunidan to boshqa marakalari o‘tgunga qadar maxsus “aytuvchi” ayol va erkaklar tomonidan aytilgan. Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubiga xos motam marosim aytimini musiqashunos olimlar Ferederik Leotar va Qurbonniyoz Panjievlar tomonidan 1996-2010 yillarda tashkil etilgan musiqiy folklor ekspeditsiyasi jarayonida Boysun tumani Munchoq qishlog‘ida yashovchi Gulandon Rahimova ijrosida magnet tasmasiga yozib olingan.

### Йўқлов



Dafn va ta’ziya marosimlarida chuqur iztirobiy kechinmalarni tasalli sifatida hamdardlik ramzlarini ba’zan turli “marsiya”larni ijod eta oladigan malakali go‘yandachilar taklif etiladi. Marhumni dafn qilish kuni “Sadr” marosimi o‘tkaziladi. Agar marhumning ot ulovi bo‘lsa, uni shu hovlida davra qurgan “Sadr”chilar o‘rtasiga chiqaradi. Ot kishnab, hatto yig‘lab, marosim ishtirokchilarini chuqur o‘y kechinmalarga soladi. Oila a’zolari aza tutib, har turli “Yig‘i”, “Ayriliq” va “Yo‘qlov”lar g‘amgin kayfiyatda aytadilar. Ayrim tumanlarda, xususan Muzrabotda dafn marosimalari marhumning yaqinlari taklif qilgan go‘yandachilar ishtirokida o‘tkaziladi. Go‘yandachilar (o‘z ixtiyori bilan ta’ziyaxonaga kelishi udumligidan o‘sha xonadonda ham erkak ham ayol go‘yandachilar bo‘lishi mumkin) marhumning jinsi va yoshiga qarab, turli she’riy aytimlarni yig‘i ovoz nolishida ijro etadilar. Aytimlar asosan yakka ovozda navbatma – navbat uzatuv tarzida aytilgan. Har bir misra oxirida marosim qatnashchilari o‘zlarining mungli ovozlari bilan aytuvchilarning dardli nolalariga o‘z tasdiqlovlarini izhor etib turishlari rusumga aylangan.

**Mavsumiy qo‘shiqlar** – voha musiqqa ijodiyotining salmoqli qismini tashkil etadi. Insoniyatning ko‘p asrlik umri davomida yil fasllarining tutgan o‘rni benihoyat kattadir. Folklorshunos va musiqashunos olimlarimiz tomonidan yilning to‘rt fasliga xos marosimlar o‘tkazilganligi e’tirof etilgan (2.14; 2.43; 2.102). Bir vaqtlar Respublikamizdagi to‘rtta mahalliy uslubiga xos tarzda an’ana tarzida qish faslida “Gap – gashtak”, bahor faslida “Navro‘z”, “Shoxmoylar”, “Sust xotin”,



“Darvesh oshi”, yoz faslida “Choy momo”, kuz faslida “Oblo baraka”, “Shamol chaqirish” kabi mavsumiy marosimlar o‘tkazilgan (2.43).

“**Gap – gashtak**” marosimi ayrim xududlarda “gap”, “gashtak”, “gap-gashtak”, “o‘tirish”, “tadbir”, “choyxona”, “somovar” kabi turli nomlar bilan atalib, bunda qadimdan ovullarda, urug‘lar orasida erkaklar va ayollar alohida - alohida yig‘ilib, tansiq taomlar tayyorlashgan, ko‘ngil xushlik qilib qo‘shiq – aytimlar ijro etishgan. Hududlarda asosan qish faslida gashtak va o‘tirishlar ko‘plab o‘tkazilgan. Ayrim hollarda gashtak va o‘tirishlarda turli bitimlar, kelishuvlar hal etilgan. Qish mavsumini ulug‘lovchi qo‘shiqlar asosan uzoq bo‘yi davom etadigan gap – gashtaklar, gurung va yig‘inlarda avj oladi. Ushbu mavsumda “Qorbo‘ron”, “Qorxat”, “Ko‘k salla” va boshqa qator qo‘shiqlar ijro etiladi.

Bahor mavsumiga xos qo‘shiqlarni kiritish mumkin. Erta bahorda daraxtlar o‘yg‘onib, tollar kurtak chiqarganda “Tolbargak”, dala gullari ochilganda-“Gul o‘yin”, “Oq terakmi-ko‘k terak” kabilarga ehtiyoj seziladi. “Boychechak chiqibdi”, “Jarchilar qo‘shig‘i”, “Sumalak”, “Navro‘z ekan”, “Hoy bobo”, “Lolajon”, “Hey lola”, “Lola sayli”, “O‘yna lola”, “Lolachada ishim bor”, “Do‘st bo‘lamiz lolacha”, “Boychechak”, “Turna keldi”, “Muborakbod” “Yil boshi”, “Hamal”, “Navro‘zi oy kelip-tu” “Darveshona”, “Qo‘sh haydash”, “Shox moylar”, “Hayinchak” va boshqalar shular jumlasidandir. Ayniqsa, yomg‘ir yoqqanda “yomg‘ir yog‘aloq” qo‘shiqlari bolalar tomonidan ijro etiladi. “Navro‘z” – vohada “yangi kun” deb nomlanib, nihoyatda ko‘tarinkilik, shodiyona kun sifatida keng nishonlanadi. Ajdodlarimiz bahor oyi 21 martda tun va kunning tenglashishi va shu kundan kunning uzayishini, dehqonlarning dala yumushlarini boshlanishi, boychechakni ilk nish urib chiqishini, qishdan eson – omon chiqqanligi katta bayram sifatida erta tongdan jarchilar (qo‘shig‘i) chaqirig‘i bilan boshlangan. Bahor faslining kelinchagi bo‘lmish “Navro‘z” bayramini nishonlash uchun asosan tog‘ yon bag‘ridagi serdaraxt o‘tloq joylar tanlanib, erkaklar, ayollar, bolalar uchun alohida - alohida joylar tayinlangan. Jumladan, Balog‘at yoshiga yetgan qiz - juvonlarga daraxtzor joylar ajratilib, u yerda ular uchun halinchak (osiq arg‘umchoq)lar tutilgan. Qizlar bayramni a‘lo kayfiyatda o‘tkazish uchun “Halinchak”, “Lola sayli”, “O‘yna lola”, “Lolachaga ishim bor” kabi qator mavsumiy qo‘shiqlar, keksa bobo va momolarni ko‘nglini xushnud etish uchun “Muborakbod” qo‘shig‘i kuylangan (2.80; 6.10; 2.43).

Yoz mavsumini ulug‘lovchi qo‘shiqlar ham o‘ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yozning issiq jazirama kunlarida ekinlarga suv kerak. Lalmi maydonlarga ekilgan ekindan ko‘proq hosil olish uchun yomg‘ir chaqirish maqsadida butun qishloq ahli birgalikda “Sus-xotin”, “Talabi boron”, “Suv xotin”, “Chala xotin”, “So‘z xotin”, “Sust xotin” kabi marosimlar o‘tkaziladi (2.14; 2.15; 2.43; 2.102). Shuningdek, “Yozi”, “Arpa bug‘doy pishibdi”, “Choy momo”, “Laylak keldi yoz bo‘ldi”, “Dehqon bobo” kabilar ham aynan yoz oylari ommalashadi.

“Sust xotin” marosimi qadimda ikki bosqichda amalga oshirilgan. Jumladan, o‘n-o‘n besh kishi kadi (ichi bo‘sh qovoq)ga suv to‘ldirib uni uzun g‘arov bilan bog‘lagan. Kadi ko‘targan kishilar suv o‘tmaydigan narsalar bilan



yopinib, har bir xonadonga borib “Sust xotin” qo‘shig‘i (N-75, 2.80; 6.10; 2.43)ni aytgan. Qo‘shiqni eshitgan xonadon sohiblari bir chelak suv sepib, bisotidagi bor narsalardan ularga sovg‘a-salom ulashgan. Ayrimlar qo‘y-echki bergan. Marosimning ikkinchi qismi suvi qurib qolgan soylarda davom ettirilgan. Yig‘ilgan xayriyalardan jonli qurbonlik qilinib, katta bazm uyushtirilgan. Dasturxon atrofiga taklif qilingan aholi turli taomlar bilan siylangan. Soy bo‘yida bir guruh erkak va ayollar oq toshlarni bir-biriga urib, ishqagan, undan chiqqan uchqun tovushni yomg‘ir oldi momaqaldiraq chaqmog‘i ramzi deb bilgan. Shundan so‘ng “Sust xotin” qo‘shig‘ini kuylab raqsga tushgan. 1980 yillarda “Boysun” folklor etnografik ansambli xalqimizning qadimiy qo‘shiqlarini yig‘ib, qayta tiklay boshladi. “Sust xotin” marosim qo‘shig‘i ham aholi orasida so‘rab-surishtirilib qayta tiklanigan “sahnaviy” ko‘rinishda ijro etib, ushbu jarayonni qayta tiklashda o‘zining juda katta xizmatlarini ko‘rsatdi.

Kuz fasliga oid qo‘shiqlarda to‘kin-sochinlik, qut-baraka, xosilning sarhisobi, xirmonga baraka tilash kabi mavzular asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Hosilni yig‘ishda “O‘rim”, oxirgi sholini o‘rib olishda “Oblo baraka” marosimi qo‘shiqlari kuylansa, sholini somonidan ajratib olishda “Oq sholi ko‘k sholi”, “Shamol chaqirish” marosimiga oid qo‘shiqlar rasm bo‘ladi. Don somondan ajratilayotganda “Xo‘p mayda”, “Mayda-mayda” kabilar urfga aylanadi.

Xatak qishlog‘ida ham yuqoridagi marosim va an‘analarda badashlar ijro etilgan. Misol uchun, yoz faslida o‘tkaziladigan marosimlarda “Araz badash” chalinadi. “Angom” xuddi shunday marosimlar jumlasiga kirib, yozda quyosh tik turib zulga chiqqanda, eng uzoq kun va qisqa tun hamda harorat yuqori darajada ko‘tarilib, suvga ehtiyoj ko‘payganda - quyoshga bag‘ishlab o‘tkazilgan. “Araz badash” mana shu “Angom” marosimida ijro etilgan. Bunda ham dappchilar ikki guruhga bo‘linib, qarama-qarshi tomondan chiqib kelishgan. Yonma-yon bo‘lganda bir-birlarining dapplariga dapplarini qattiq urib, go‘yoki quyosh o‘z jazirasini ayab sochib - muruvvat ko‘rsatishini istab, o‘z dapplari bilan yuzlarini pana qilib, yashirib o‘tganlar (bu bilan ular quyoshdan noroziligini, u haddan tashqari qizdirib ekinlarga zarar yetkazayotganligini ifoda etganlar). “Araz badash” ham ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi kirish, ya‘ni muqaddima hisoblanadi. Kirish qismi 5/8 o‘lchovda ikki takt ijro etilgandan so‘ng kuyning asosiy qismiga o‘tiladi. U esa 6/8 o‘lchovda davom ettiriladi (N-153, N-154, N-155, N-156, N-157).

**Mehnat qo‘shiqlari** – mehnat mashaqqatini kuy – qo‘shiqlariga solib kuylash mahalliy aholining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Azaldan bu xalq og‘ir mehnatni yengib o‘tishda ruhiy tetiklik va quvvat bag‘ishlovchi qo‘shiqlar to‘qigan va kuylagan. Xalq qo‘shiqchilik ijodiyotida yuzaga kelgan mehnat ayimlari musiqashunoslikda qayd etilgan uch turga bo‘linish an‘anasiga muvofiq tasnif eildi (2.43):

1. Chorvadorlik qo‘shiqlari;
2. Dehqonchilik qo‘shiqlari;
3. Hunarmandlik qo‘shiqlari.

Chorvadorlik qo‘shiqlari. Ma‘lumki, Respublikamizning ko‘pgina georafik qiyofasi asosan baland tog‘, qir - adir va past - tekisliklardan iborat. Tabiiy iqlim



sharoiti, muhiti aholining chorvachilik bilan mashg'ul bo'lishiga yetarlidir. Shu sababli ham aholi chorva bilan doimiy shug'ullanadi. Bu esa o'z navbatida mazkur mehnat turi bilan bog'liq qo'shiqlarning yaratilishi va ijro qilinishiga olib kelgan. Qo'shiqlar bevosita mehnat mazmun va mohiyatini ifoda etib, shu mehnat jarayonining mashaqqatlarini yengishga xizmat qiladi. Misol uchun "Xo'sh-xo'sh", "To'ray-to'ray", "Chirey-chirey" qo'shiqlarini fikrimizning dalili sifatida tahlil etamiz. "Xo'sh – xo'sh" qo'shig'i sigir sog'ish, sug'orish, uni ozuqlantirish vaqtida yupatish, ba'zan yovvosh bo'lmagan mollarni ovutish uchun ham ijro etiladi. Ayrim hududlarda sog'im paytida o'lgan buzoqning terisiga somon tiqib, sigirni oldiga tirik buzoq singari qo'yib "Xo'sh – xo'sh" qo'shig'i aytiladi. Qo'shiq ixcham doiradagi tersiya oralig'ida kuylanadi (N-81, N-85, N-86, N-89, N-108). "To'ray – to'ray" qo'shig'i qo'ylarni dalalarga boqish, qo'yxonaga chorlash, sog'ish, qo'zisini emdirishda aytiladi. Bu qo'shiq oxista xirgoyi xonish qilinadi (N-108). Misol, "Chirey – chirey" qo'shig'i echkilarni sog'ish hamda chorlash vaqtida ijro etilsada, uning yana bir o'ziga xosligi endigina tug'ilgan uloqni ona echki "olmas" bo'lib qolganda yoki ona echki ko'zi yorib, nobud bo'lganda chorvador boshqa ona echki oldiga uloqchani olib kelgan hissiy ohangda aytiladi. Aytim ta'sirida begona ona echki uloqni o'z bolasidek emizgan holatlari kuzatilgan. Echki yo'qolganda esa cho'ponlar tomonidan tojik tilida "Buzakam" (echkijon, echkicham) qo'shig'i xorg'in kayfiyatda hirgoyi qilinadi. Bu qo'shiq echkining dikir – dikir sakrab o'ynoqiligi va yoqimtoyligini tasvirlash uchun ijod qilingan (N-101 2,80; 6,10). Viloyatlarning ayrim tumanlarida chorvodarlar hayotidan olingan va ilhomlantiradigan qo'shiqlar ham mavjud. "Otboqar qo'shig'i", "Cho'pon qo'shig'i" shular jumlasidandir (N-6.5; 6,10; 2,43). Shu o'rinda chorvoga ixtisoslashgan xudud chanqovuzchilari chorvaga oid "Tuya qaytarish", "Cho'pon kuyi", "Qo'zi ma'rash", "Qo'y boqish", "Echki sakrash" chanqovuz kuy - nag'malarni ijro etayotganini ta'kidlash joiz. Shuningdek, ayollar ijrosidagi "Gupi" qo'shig'ining musiqiy ritmik ta'sirchanligining o'ziga xosligi diqqatimizni tortdi (N-80). An'anaga ko'ra sigir suti pishirilgandan so'ng ma'lum haroratda usti yopib, uytiladi (ivutiladi, uvutiladi). Qatiq holatiga kelgach, maxsus xaltalarga solinib, suvi ajratiladi va quyushgach suzmaga aylanadi. "Suzma" mahalliy aholi tilida "chakki" deyiladi. Uning yog'i maxsus idish – guppi (1) yordamida ajratib olinadi. Qo'shiq mana shu jarayonda aytiladi. Qo'shiqning ritmi "guppi pishish"-yog'ni ajratib olishda foydalanadigan dastakning harakat (go'yo porshen ishlash uslubi) tezligidan olingan.

Dehqonchilik mehnati turkumiga kiruvchi qo'shiqlar mehnat jarayonida shakllangan aytimlarning kattagina qismini tashkil etadi va umumiy nomda "Dehqonchilik qo'shiqlari" deb ataladi. Bu turkum ayimlari viloyatning deyarli barcha tumanlarida uchraydi. Yer haydash mavsumi "Shox moylar" marosimi bilan boshlanadi. Dehqonchilikning ushbu marosimi nihoyatda quvnoq va ko'tarinkilik ruhda o'tkazilgan. Hozirgi kunda bu marosim to'liq o'tkazilmasa-da, milliy musiqiy qadriyat sifatida ayrim yurt tantanalari sharafiga bag'ishlangan tadbirlarda "Shox moylar" (qo'shchi) qo'shig'i ijro etilib kelinmoqda. Marosim bahorgi ilk dehqonchilik qo'sh haydash jarayoniga bag'ishlab o'tkazilgan. Unda aholi dalada to'planib, turli rangli libos yoki tasmali popuklar bilan bezatilgan





qo'shga katta ho'kizni olib chiqib qo'shgan. O'tgan yilgi oxirgi bog'lam bug'doydan un qilib, non pishirgan hamda uni ishtirokchilarga ulashgan. So'ngra yurtning pokiza, nuroniy, dono bobo – momolaridan ikki nafari yog' solingan ikki kosani yurtning nufuzli oqsoqoli qo'liga tutganlar. Oqsoqol qo'lini yog'ga botirib ho'kiz shoxini moylagan shu jarayonda "Shox moylar" qo'shig'i aytilgan (nota yozuvi), so'ngra eng keksa chol-bobo fotiha berib birinchi egatni tortishga ruxsat bergan. Qo'shchi qo'shni boshqarayotib "Qo'shchi qo'shig'i"ni aytgan (2.80; 6.10). Qo'shga yordam berib boruvchilar qo'shiqqa jo'r bo'lgan. Qo'shiq kuylanish xususiyati ko'tarinki kayfiyat bilan dalda berish maylida kuylanadi. Qo'shiqning she'riy matni va ritmik tasvirlanishi qo'shga qo'shilgan ho'kizlarning bir maromda ish harakat suratini susaytirmasligiga qaratilgan (2.43). Ushbu marosim Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida yoppasiga qo'sh haydash ishlarini boshlanishini anglatgan. Ekin yerlari shudgorlangach, "Don septi" marosimi o'tkazilgan. Marosim an'anasiga binoan uni mo'l – ko'lchilik ramzi sifatida ko'p farzandli, munis onaxonlar dastlabki urug'lik bug'doyni dalaga sepib, oq fotiha berish bilan boshlagan. Shundan so'ng marosimiy "Don septi" qo'shig'i ijro etilgan. Hosil yoz yoki ilk kuz fasl oylarida yetilgach, "Arpa bug'doy pishibdi", xirmondagi somondan donni ajratib olishda esa "Mayda", "Xo'p mayda", baland tog' yon - bag'ridagi dalalardan g'alla donini ot yoki eshakka yuklab, qishloqqa olib tushishda "Havvor" kabi dehqonchilikning mashaqatli mehnatini badiiy ifodalovchi qo'shiqlar to'qilgan va ijro etilgan (N-87, N-92, N-93, 2.80; 6.10).

### Хаввор

*Allegro moderato*

Кўз тег-ма-син си-ё-гинг-га ха-вор, ха-вор Тош тег-ма-син ту-ё-гинг-га

ха-вор, ха-вор Ас-та, ас-та же-ба-ла ха-вор, ха-вор

O'zbek xalq musiqqa ijodiyotida mehnat marosimi va unda ijro etiladigan turli tuman qo'shiqlar mavjud. Jumladan, don yetilgach, qishloq oqsoqollari dalaga borib, boshqodagi donni qo'li bilan uvalab boshqodagi bug'doy donini yeb ko'rgan. Ta'midan pishganligi anglangach bobo dehqon haqlariga atab, hosil maydonida jonlig'dan qurbonlik qilib, bo'lg'usi rizq – ro'z ne'mat uchun oq Fotiha berib, shu zaylda "O'roqchilar" marosimi o'tkazilgan. O'rim yig'im – terimiga kirishgan dehqonlar "O'roqchilar qo'shig'i"ni kuylagan. "Oblo baraka" marosimi ham mehnat marosimi hisoblanib, bu haqda ilmiy ishning birinchi bob bandida ta'rif keltirilgan.

O'rim jarayonida ijro etiladigan "Arpa-bug'doy pishibdiya og'ajon" so'zlari bilan boshlanadigan o'roqchilar qo'shig'i, asosan kuz faslida tog'da lalmi yerlardan bug'doyni yig'im-terim vaqtida ijro etilgan (N-99). Xuddi shunday, "Xo'p mayda" qo'shig'ini Respublikamizning ko'pgina hududlarida uchratish



mumkin. Ular bir-biridan ijro uslubi bilan farq qilmasada biroq, ritm jadallashganligi hamda o'yinboblighi bilan alohida ajralib turadi. Qo'shiq mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lsada, xalqning to'y marosimlari, "Navro'z" bayramlari va turli xalq sayillarida ijro etilib kelinmoqda. O'zining kuychanligi, o'yinboblighi bilan ancha ommalashib qolganligi sababli uning ritmik tuzilmasi aholining musiqiy xotirasida o'rnashib qolganligini ko'rish mumkin.

O'rib olingan g'allani yanchib donidan ajratish uchun alohida marosim o'tkazilgan. O'rilgan g'alla quyoshga yoyib quritilgan. So'ng xirmon etib tayinlangan joyga olib kelib (ot, eshak, ho'kkiz, sigir) hayvonlar tomonidan "galagov" qilib yanchilgan. Shu jarayonni ifodalovchi "Xo'p mayda", "Mayda – mayda" qo'shiqlari kuylangan (N-87, N-92, N-93). Galagov Boysun tumanining deyarli hamma hududlarida hozir ham o'tkaziladi. Qo'shiqning ritm va sur'ati galagovga qo'shilgan otning yurish harakat tezligidan olingan. Bugungi kunda ijro etilayotgan "Xo'p mayda" qo'shig'i xalq orasida keng ommalashgan.

"Havvor" qo'shig'i jamoaviy ijro bo'lib, tog'dan g'allani hovliga tashish yumushlarida ijro etiladi. Boshlovchi ijrochi yakkaxon qo'shiqning birinchi misrasini aytgach, ko'pchilik jamoa usulida "havvor" so'zi bilan jo'r bo'lgan. Kundalik hayotda kuylanuvchi "Chirey-Chirey", "Turey-Turey", "Xo'sh-Xo'sh", "Cho'pon qo'shig'i", "Otboqar qo'shig'i" ini hozirgi kunda ham ko'plab uchratish mumkin (N-81, N-85, N-86, N-89, N-108).

Hunarmandlik qo'shiqlari mehnat turlarining kashf qilinish jarayonida yuzaga kelgan. Bunday qo'shiqlar o'z mehnat turi va ish faoliyatiga ko'ra turli mavzularda yaratilgan. San'at darajasidagi gilam to'qish vohada aksariyat hollarda ayollarning asosiy hunarmandlik mehnat faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Ayollar, paxtani chigitidan ajratishda aranj, ip qilib yigirishda urchuq, paxta va junni mayin xolatga keltirishda suba cho'p kabi ish qurollaridan keng foydalangan. Ushbu mehnat jarayonlari ma'lum vaqt talab etganligi bois "Aranji", "Urchug'im", "O'rmak qurdim", "O'rmak" "Kigizim" va boshqa shu kabi turli qo'shiqlar to'qilib, ijro etilgan (N-84, N-90, N-97, N-100, N-105, 2.61) . Kayvoni (ish bilarmon, mohir) ayollar yigirilgan paxta yoki jundan xonadonning o'zida gilam to'qish uchun qo'ni – qo'shnilar yordamida o'rmak o'rnatgan (qo'ygan) va to'qishni xonadon sohibasiga topshirgan. O'rmak to'qishda shu mehnat haqidagi qo'shiqlar ijro etilgan. Qora uy (kapa, o'tov)lar tikilayotganda "O'tov", kapalar yonini to'sish uchun qamishdan yopinchiq tayyorlanib "Qamish qo'limni kesmasin", "Temir bobom o'tovi", charchoqni bostirish uchun "Aranji", "Oshpaz qo'shig'i", jundan kigiz tayyorlanayotganda "Kigizim" qo'shiqlari kuylangan. Bug'doyni un qilishda "Tegirmon" "Yorg'inchoq", non yopishda "Toba toshim", "Novvoychi", temirchilik yumushlarida "Temirchi", kashtachilikda "Yorim to'ni", "Jun taroqni tarayman", "Do'ppi", "Belbog'" qo'shiqlari ijod qilingan va ijro etilib kelinmoqda. Mazkur qo'shiqlar erkin ixtiyoriy ovoz diapazonlarida xirgoyi qilinib, primadan oktavagacha oraliqda kuylangan. Ularning she'riy matnlarida xalq og'zaki ijodidagi barmoq vazn o'lchovi ustvordir. Ma'lumki, Respublikamiz hududlarida mashaqatli mehnatni aks ettiruvchi qo'shiqlar to'qilgan va kuylangan. Ular mehnatning mashaqatini o'zlarining kuy-ohanglariga solib qo'shiq qilib kuylab, o'yin-kulgilari bilan yengishgan. Bu jarayonda ham charchoqni bostirish



uchun “Aranji” va boshqa shu kabi mehnatni aks ettiruvchi qo‘shiqlar kuylangan. Shuningdek, “Urchug‘im”, “O‘rmak qurdim”, “Qamish qo‘limni kesmasin”, “Kigizim” va yakuniy qism yana suporish sifatida “Temir bobom o‘tovi” bilan tugaydi. Hunarmandlik qo‘shiqlaridan “O‘rmak” aytimi Qorasuv jamoa xo‘jaligida yaxshi saqlangan. Qo‘shiq ijro uslubi ohista 4/4 o‘lchovida, asosan o‘rmak to‘qish jarayoni bilan bog‘liq holatda to‘quvchi tomonidan kuylangan.

### Темур бобом ўтови

Ай - ла бўл - син ў - то - вим тўй - лар бўл - син ў - то - вим  
Жонги - роқлар куйиб бер - син ке - ча - сию биз - лар - га

Меҳ - мондан а - йир - ма - син Те - мур бо - бом ў - то - вим  
Те - мур бо - бом тўй - бер - син су - яр ў - гил қиз - лар - га.

### Ўрмак курдим

Ўр - мак кур - дим боғ - лар - га ўр - мак ет - син тоғ - лар - га Ў - то - вим тез - роқ бит - син биз чо - пай - лик

Ўр - моқ - ка Қи - лич қоқ - дим ўр - мак - ка Қў - шик ай - тиб  
бер - моқ - ка Ў - то - вим тез - роқ бит - син биз чо - пай - лик йиғ - моқ - ка

Ma'lumki, ajdodlarimiz Sohibqiron Amir Temir siymosiga juda chuqur hurmat-ehtirom bilan qaraganlar va ul zotni o‘zlarining turli xil marosimlari bilan bog‘liq qo‘shiqlarida bosh qahramon sifatida vasf qilganlar. Mehnat jarayonini ifodalovchi qo‘shiqlarning o‘ziga xosligini Qorasuv jamoa xo‘jaligida tashkil etilgan “Badash” folklor etnografik jamoasi ijrosidagi “Temir bobom o‘tovi” qo‘shig‘i ayni ajdodlarimizning ijodiy mahsulidir. Qo‘shiq mehnat jarayonida kuylangan bo‘lsada, biror vaqtlar o‘tishi va ijrochilarning o‘z ichki imkoniyatlariga moslab kuylashi qo‘shiqning kuy-ohangi va she‘riy matniga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Qo‘shiq 7 ta kichik-kichik qismlarga bo‘lib kuylangan. Unda asosan mehnat ish qurollari, xalqimizning kapa uylari asosiy obekt sifatida tilga olingan. Qo‘shiq aniq va turli o‘lchovlarda ijro etilgan. Qo‘shiqning boshlang‘ich birinchi qismi “Temir bobom o‘tovi” nomi bilan bog‘liq bo‘lib 4/4 o‘lchovda



ohista kuylanadi. Bunda asosiy diqqat Sohibqiron Amir Temirning o'tov bilan bog'liq holati aks ettirilgan. Qo'shiqning ikkinchi qismi "Aranji" mehnat quroli nomi bilan bog'liq. Aranjidani qadimda yengil sanoat uchun paxtani chigitidan ajratishda foydalanilgan. Ayollar ushbu mehnat anjomini 4–5 ta va undan ko'proq aranjlarni qator qilib paxtani chigitidan tozalashgan.

Jumladan, o'rmak, kigiz to'qish jarayonlari, chopon, qoriq tikish va boshqalar. Bu kabi hunarmandlik ishlarini bajarish ayollardan ko'p vaqt talab qiladi. Shu sababli, ushbu mehnat jarayonini boshlashda ma'lum marosim o'tkazilgan bo'lib, unga kayvoni, ish bilarmon ayollar taklif qilingan. Ular xush kayfiyatlik ruhini ifolash uchun maxsus qo'shiqlarni kuylashgan. Xuddi shunday tarzda xonish qo'shiqlardan "Yorim to'ni", "Jun taroqni tarayman" kabilarni ayollardan biri radif sifatida boshlab, aytishuv-mushoira shaklida ijro etishgan. Qolgan ishtirokchilar ohangga qo'shib, o'z baytlarini aytgan (N-100).

### **Turli mavzuli qo'shiqlar.**

Viloyat qo'shiqchilik ijodiyotida yetakchilik qilayotgan ushbu turkumning qo'shiq, terma, lapar, yalla kabi janrlari mavjud. "Qo'shiq" atamasi haqida musiqashunos olimlar tomonidan ilmiy ta'riflar bildirilgan (2.43; 2.49; 2.54).

Qo'shiq - ovoz paychalarining undosh makonlaridan maxraj (tashqari)ga chiquvchi oraliq masofasidagi uyg'unlikni yanada yoqimli, talaffuz qoidasiga monand ohang yurgizishni ta'minlash va unga rioya qilish usul - uslubidir. Unda nutq tovushlarining ma'no anglatish borasida bo'g'inlarga ajralish va ajralishi sodir etilayotgan qisqa yoki cho'ziq unli tovushni keyingi so'zning birinchi bo'g'in boshlovchi undoshiga muqobil ravishda zamin hozirlashidan talaffuz etilmish ritmik cho'zim yoki tezlik aniqlanadi. Qo'shiqning matni xalq og'zaki ijodidagi barmoq vazn asosida to'rt (ba'zan uch) misradan tarkib topadi. Har bir misra 7-11 bo'g'indan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur misraning ma'no anglatgan so'zlari keyingi misrada ikki barobar takroriy vazn muvofiqligida qofiyalanadi. Bu kabi turli qo'shiqlar izohda ko'rsatilgan shakl qurilmalari asosida ifodalanadi (2.38; 2.43). Qo'shiqlar ijro sharoitiga ko'ra vaqt, alohida rasmiyatchilik tanlamaydi. Ayrim qo'shiqlar lirik xususiyatlarga ega bo'ladi. Chunonchi, qo'shiqlarning she'riy matni kishining ichki ruhiy kechinmalari asosida qurilib, undagi his – tuyg'u, lirik kayfiyat qo'shiqning kuy–ohangraboligiga, tashqi muhit bilan o'zaro uyg'unlashishiga mazmun eltuvchi vazifani o'taydi. Bunda kuy - ohang bilan matn so'zlarining o'zaro ajralmas, yaxlit, bir butun ekanligi kuzatiladi. Bu tur qo'shiqlar tabiatan avjsiz bastalangan bo'lib, hamma uchun dil is'hor etishga mosligi bilan xushdildir. Ayrim qo'shiqlar inson tafakkuridagi idrok etilgan voqeliklarni turli ko'ngil kechinmalar (tonalnoslar)da aniq, yoqimli, ta'sirchan, g'oyaviy, falsafiy mushohadalarga undaltiruvchi tarz ijrolarida o'rtacha avj diapazonida ijro etilishi kuzatiladi. Ovoz diapazoni bir oktava oralig'ida va kolorit (shiradorligi) ijrochi qo'shiqlarni o'z ijro mahorati, imkoniyati darajasida bema'lol kuylashi, tinglovchini o'ziga tortadi. Va shu jihatlari bilan ushbu qo'shiqlar barcha uchun manzur bo'ladi. Vohada katta – kichik avjli ashula sifat qo'shiqlar ham uchrab turadi. Bu kabi qo'shiqlar mustaqillik yillarida ijod etilib, asosan "Vatan" mavzusida bo'ladi. Vatan haqidagi qo'shiqlar tuman qo'shiqchilik ijodiyotida munosib o'rin tutadi. Tumanda faoliyat ko'rsatayotgan "Cho'lquvar" folklor-etnografik jamoasi



repertuarida “Surxonim” nomli (N-110, N-116, N-119, N-133, N-136, N-143). Shunday **qo‘shiqlardan** “Oxo chuchu baka bak”, “Huy-ya, huy-ya, huy-ya, huy”, “huya-huya kashtala pisht”, Tom ustida tosh otdim”, “Ohuva” va boqalarni keltirib o‘tish mumkin.

Beshqo‘ton jamoa xo‘jaligida asli Boysunlik o‘troq bo‘lib qolgan bir guruh ayollar ijrosida hayvonlar tilidan (zarbul-masal shaklida) aytilgan qo‘shiqni tingladik. Uning matni quyidagi mazmunlarga yetaklaydi. Boysun bekligi davrida ziqna boylarga kambag‘al dehqonlar yollanib ishlaganlar. Ular o‘z xo‘jayinlarining ziqnaligini o‘zlariga ochiq-oydin aytishdan qo‘rqib, hayvonlar nomidan ular haqida qo‘shiq aytgan (N-95, N-104).

Buyuk Ipak Yo‘li bo‘ylab O‘zbekiston xududidan o‘tgan qishloqlarda karvonchilar qo‘shig‘ining turli shakllarini hozirgi kunga qadar saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Respublikamizning Janubiy xududida yashovchi Fayziev Ibrohim tomonidan aytilgan “Tuya qadam”<sup>27</sup> qo‘shig‘i dalil bo‘la oladi.

### Туя қадам қўшиғи

Нор ту-ям дўр-доқ ла-бинг сўй-лок-дир тиш - ла-ринг са-ни Ас - та ас -

- тайўл ю-риб ман-зил-гаёт-каз-гин ма - ни шу-тур ба-ча-ман шу-тур ба-ча-ман

лаб-ла - рим бор-дур лаб-ла-бан-ги Нор ту-ман дўр-доқ ла-бинг сўй-лок-дир тиш -

-ла-ринг са-ни Ас - та - ас - тайўл ю-риб ман-зил-гаёт-каз-гин ма - ни

Jumladan, Ahmedova Qizlargul<sup>28</sup> ijrosidagi “Do‘stlarim ayb aylamang” qo‘shig‘i ayollarning dil yozar gurunlarida ijro etilgan (N-125). Qo‘shiq ovoz ishlatish diapazoni bo‘yicha shakl jihatdan kengroq, xissalar tartibi va miqdori bo‘yicha aniq ritm o‘lchovi asosida ijro qilinadi. “Ota-ona”lar haqidagi maxsus erkin mavzuli qo‘shiqlar ham o‘zgacha musiqiy ohvangdorlikka ega (N-126, N-129). Ularning o‘ziga xos tomoni shundaki, qo‘shiq matnlari naqoratlari bilan hisoblanganda 20, 30 misrani tashkil etib, har bir misrani lozim nabziya (ritm

<sup>27</sup> Temp jihatidan og‘ir, ashula yo‘lida ijro etilgan qo‘shiqlarni Boysun aholisi “Tuya qadam” qo‘shiqlar deb atashgan. Qadimda karvonchilar bir yurtidan boshqa yurtga har xil yumush bilan qatnab turgan. Yo‘ldagi qiyinchiliklar, tuyaning xorg‘in yurishi ularni og‘ir qo‘shiq kuylashga majbur qilgan. Bu kabi qo‘shiqlar og‘ir ritmda ijro etilib, o‘sha ritm tuyani bosayotgan qadamiga moslab olingan. Tuya qadam bosayotganda ohista, biroq og‘ir qadam qo‘yib, izi yerga botadi va oyog‘ini yana ohista almashtiradi. Bu holat ohistalik, og‘ir (sekin) qadam, oyoq izini yerga botishi va yana oyog‘ni ohista almashtirilish me‘yor ritmik holati og‘ir mumtoz sifat ashulalarni ijro etilishini ta‘minlagan. Keksayib qolgan avlod vakillari xotirasida saqlanib qolgan bu kabi ashulalar har xil to‘y marakalarda, xalq sayllarida va gurunlarda og‘izdan og‘izga o‘tib “Tuya qadam” qo‘shiqlari deb nomlanib ketilgan.

<sup>28</sup> Ахмедова Қизларгул 1941 йилда Шеробод туманида туғилган. Миллати ўзбек, катагон уруғига мансуб.



o'lchovi)ga tushirilib, taktlarga bo'lingan. Har bir davrda kuy ohang ko'chirilishi kvarta, kvinta va seksta oraliqlarida bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Erkin mavzuli qo'shiqlar keng o'rin olgan va asosan an'anaviy tusga ega bo'lganlaridan yana biri "Boysun uforisidir"dir. Bu qo'shiq qadimgi ajdodlarimiz ijodi bo'lib, asosan Buxoro Amirligi davrida Amir saroyida ijro etilgan (N-110). Boysun folklorining o'ziga xosligi – aholining raqsbob kuylari mavjudligidir. "Duchava", "Mavrigi" kuylari shular jumlasidandir. "Duchava" kuyi ikki yog'och bo'lagini qo'lga olib, urishtirib o'ynaladigan qadimiy raqs. Qadimda bu kuyga ikki kishi qilich bilan raqsga tushgan. Raqsga tushish xuquqi faqatgina jang maydonida o'zini ko'rsatgan botirlarga berilgan. "Mavrigi" kuyi ham juda tarixiy bo'lib arablar Markaziy Osiyoni istelo qilgan davrda paydo bo'lgan (2,80; 6,10; 2,43; 2,61). Kuydagi raqs harakatlarida arab raqslariga xos elementlar mavjud. "Mavrigi" arabcha so'z bo'lib – daryo ortidagi yerlik raqs. "Oxo chu-chu baka-bak", "Huy-ya, huy-ya, huya-huy", "Haya-haya kishtala pisht" va boshqa shu kabi qo'shiqlarda qadimgi Surxondaryo-Qashqadaryo shevasiga xos lug'at atamalarini uchratish mumkin (N-123, N-130). Erkin mavzuli "Huy-ya, huy-ya, huya-huy" qo'shig'i, odatda oilaviy marosimlarda ijro etilgan. "Xaya-xaya kishtala pisht" qo'shig'ida qo'ng'iroq urug'ining urf-odatlarini mujassam etuvchi jihatlar namoyon bo'ladi. Balog'at yoshiga yetgan qizlar haqidagi qo'shiqlar odatga ko'ra, tengqur qiz-juvonlar davrasida ijro etilgan. "Tom ustida tosh otdim" qo'shig'i qadimda uzoq yurtlarga savdogarlik va boshqa yumushlar bilan safar qilib, uyoqlardan qaytmagan farzand sog'inch-iztiroblar o'kinchilari haqida bo'lib, onalar kuylagan. Qo'shiq asosan faqatgina oilada yoki ayollar gurung va gap-gashtaklarida ijro etilgan. Qadimdan Respublikamizning tog'li xududlarida ovullararo kelin tanlash "qiz ko'rish" marosimi o'tkazilib, unda "Ohuva" qo'shig'i kuylangan. "Falonchi kishining bo'yi yetgan qizi bor" deb eshitgan momolar qizi bor uyga ilgariroq "xabarchi" yuborib, qiz ko'rishga borganlar. Har ikki tomon roziligidan so'ng "Ohuva" va boshqa qo'shiqlar kuylanib, xursandchilik qilingan.

**Terma** – aytimning o'ziga xos turi bo'lib, inson hayotida xotirlangan his – tuyg'ularga moyilik beruvchi mavzular bilan ijod qilingan musiqiy asar. Lug'aviy ma'nosi "yig'moq," tanlamoq", "saralab olmoq" (2.43,-47; 2.59), "saralab aytmoq", "terib aytmoq", "terib kuylamoq" tushunchalarini anglatadi. Respublikamiz mahalliy qo'shiqchilik ijodiyotida termalarning ikki turi uchraydi. Birinchi turi shoir - baxshi termasi, ikkinchi turi xalq aytim termalari. Baxshichilik maktabi – o'zbek musiqqa merosining ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi (2.2; 2,43; 2,70; 2,64; 2,67). Shoir – baxshilar, ovoz va do'mbira kuy – ohangini sozlash maqsadida an'anaviy doston ijrosidan oldin katta - kichik hajmdagi mardlik, botirlik, jasurlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insoniylik g'oyalarni aks ettiruvchi nasihatomuz "Botirlik maydonda sinaladi", savol tariqasidagi "Nima aytay", "Xush ko'rdik", Vatan hiqida "Vatanim", "Aylanayin", "Tuproq'ingni ko'zga surtay" kabi terma kuylash an'ana bo'lgan. Yirik an'anaviy "Alpomish" dostoni parchalaridan olingan "Yoy – yoy" termasi O'zbekiston xududida an'ana tusiga kirgan katta hajmdagi termalardan biri hisoblanadi. Keyingi davrlarda termalarning o'ziga xos turlari rivojlanmoqda. "Mehmondirmiz" nomli an'anaviy terma shular jumlasidandir. Ushbu terma ko'plab shoir - baxshilar ijrosida

kuylansa-da, biroq, undagi kuy – ohang asosi (poydevori) saqlanganligi, matn va ijro mahorati har bir baxshining o'ziga xos uslubi va qobiliyatiga bog'liqligi kuzatiladi. Shoir - baxshilar terma ijro etayotganda matn so'zlarini mohirlik bilan topib, davraga moslab kuylaydi. Bu kabi termalarning o'ziga xos xususiyati aytm matnlarining ko'p misralardan iboratligi hamda ijro davomida 7-11 barmoq vazn o'lchovlarida o'zgarib turishidir. Shunday termalardan “Nima aytay”, “Xush ko'rdik”, “Vatanim”, “Aylanayin”, “Tuprg'ingni ko'zga surtay”, “Yoy-yoy” alla termalari, “Mehmondirmiz”, “Hur vatan seniki” va boqalarni aytish joiz.

Xalq aytm termalari hayotiy voqelikni aks ettiruvchi musiqiy ijodiyot bo'lib, erkak va ayollarning o'ziga xos ijrosi mavjud. Aytm matn bandlari 10 va undan ziyod baytdan iborat bo'lgan termalarda bir g'oyaning bosh g'oya sifatida e'tirof etilishi, shu g'oya atrofida ijtimoiy voqelik ta'rifi berilib, tasodifiy yoki termachi o'ylagan o'y - xayol va ichki insoniy kechinmalar ifodasini yengil, hajvomuzona tarzda so'z o'yini olib boriladi. Xalq aytm termalari musiqqa cholg'ularisiz, ba'zan, doyra jo'rligida, aniq ritm o'lchovi asosida, naqoratsiz, avjsiz, kvarta - kvinta oralig'ida kuylanadi. Termalarda mujassam bo'lgan musiqiy ijodiyotning barcha tur yo'nalishlari bu uslubning nechog'lik xalqchilligini hamda milliy qadriyat sifatida ardoqlanishini yorqin ifodasidir. Termalarning o'ziga xos yana bir ko'rinishi “Alla” mazmundagi terma aytmnlarning ijrosidir. Bu kabi “Alla” ko'rinishdagi terma aytmnlari oilaviy marosimda kuylansa-da, ma'no mazmun jihatidan u termadir.

### Алла

Ал - ла ал - ла - ё ал - ла, Ал - ла ай - тай бо - лам - га - ё ал - ла - ё ал - ла  
боғ - лар - да - ги ло - лам - га - ё ал - ла - ё ал - ла, Ло - ла гу - лим сўл - ма - си - но ал - ла  
ё ал - ла бо - ла - жон - лар ўл - ма - си - но ал - ла - ё ал - ла,

**Lapar** atamasi haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan Lapar ikki yoki undan ortiq ijrochi tomonidan navbatma – navbat aytiladigan hayotiy voqealarni ifodalovchi kayfiyatga ega bo'lgan raqsga tushib ijro etiladigan aytmidir (2,43; 2,54; 2,55; 2,102). An'anaga ko'ra ko'proq yigit va qiz ijrosida laparlar to'y marosimlarda, aholining bayram tadbirlarida aytiladi. O'zbek musiqqa ijodiyotida yuqoridagilar bilan bir qatorda “qiz va qiz”, “checha va qiz” aytishuv laparlari uchraydi. Bunday aytishuvlar asosan to'y nikoh to'y marosimlarida bo'yi yetgan qizlar va bir uyda yashayotgan qiz va uning chechasi bilan aytishuv tarzidagi laparlar cholg'ular jo'rligida kuylangan. Laparlarning she'riy mazmunidan, ularning hazil mutoyibali, piching aralash sevgi – muhabbat, balog'at yoshiga xos yengil hazil aralash savol va javob xususiyatlari tilga olinib o'tiladi. Laparning kuy



– ohang aytim tuzilmasi masruriy kayfiyatda bo‘lishi bilan birga, Muzrabot tumani hududlarida erkin mavzuli qo‘shiqlar ham keng o‘rin olgan. Rayim Bo‘riev jamoa xo‘jaligida yashovchi Saidova Tursunoy **doyra badashlari** ijrosidagi “Lapar” yigit-qizlarning kelin to‘ylarida bir-biriga hazil mutoyiba tarzida, o‘yinga tushib kuylangan. Misol tariqasida “Qiz va qiz”, “Checha va qiz”, “Yigit va qiz” aytish mumkin.

**Yalla** - Sho‘rchi qo‘shiqchilik ijodiyot an‘anasining xosligi, termalarning turlicha ijro etilishidir. Ularning ayrimlari to‘y-tomosha, xalq bayram va sayllarida (N-112), ayrimlari esa nikoh to‘ylarida (N-135) kuylanib, xarakter mazmuniga ko‘ra lirik qo‘shiq yoki aytimlar shaklida bo‘ladi (N-118). “Hay-hay uka, uka” ishqiy (muhabbat) mavzudagi “Yalla” aynan ufori ohangida ijro etilgan (N-114). “Hay yor-yor aylanay” nomli lirik qo‘shiq chegaradosh tumanlarda bo‘lgani kabi Sho‘rchi qishloqlari to‘y marosimlarida ayollar ijrosida kuylanadi (N-47). Xalq orasida faqatgina ayollarga hos bo‘lgan “Doyra badashlari” qadimiy marosimlardan biri sifatida qisman saqlanib qolgan. Mazkur marosim viloyatning Sherobod, Angor, Muzrabot va Boysun tumanlarida uchraydi. Badashlarni mahalliy aholi doirada chalinadigan usullar, ohanglar deb tushunadi. Bizning diqqat e‘tiborimizda turgan doyra badashlari mavsumiy marosimlarda, to‘y marosimlarida, turli bayram tantanalarida ijro etiladi. Badashlarning yana bir o‘ziga xos xususiyati shunda-ki, u xalqimizning yashash tarzi asosida yuzaga kelgan bo‘lib o‘zlarining turli xarakter xususiyatlari bilan izohlanadi. Ya‘ni, raqs va teatr sanati bilan o‘zaro bog‘liq holda rivojlangan. Ijroda mahalliy dapp cholg‘usi ishlatilib bazan angishvona, qoshiq va sopol idishlardan jo‘rnavoz sifatida foydalanilgan. Misol tariqasida “Hay –hay uka, uka”, “Hay yor – yor aylanay”, “Yallo, yallo qizgina”, “Bozordan oldim” va boqalarni tilga olish joiz.

Xalq ijodiyotining noyob namunalaridan hisablangan “Doyra badashlari” ning mavjudligi tadqiqatimiz uchun yangilik bo‘ldi. “Doyra badashlari<sup>29</sup>” mahalliy aholi tilidan kelib chiqqan holda ishlatiladi. Qadimda yerlik aholi orasida faqat badash so‘zi qo‘llanilgan. Badashlar dapp<sup>30</sup> chalg‘usida chalinadigan doyra-usulli asardir. Ular bevasita kuy, ohang, usul bilan bog‘liq bo‘lganligi hamda asosan ayollar tomanidan ijro etilganligi sababli ham faqatgina qizdirilmagan (ijroda yengil hisoblangan) dapp chalg‘usida chalingan. Shu sababli ham badashlar deb atalgan. Biroq, XX-asrning ikkinchi yarmidan doyra atamasi qo‘llanila boshlagan. Undan oldin so‘zlashuvda faqat badash so‘zi qo‘llanilgan. Diqqat-e‘tiborimizda turgan ushbu doyra badashlari Sherobod tumanining Xatak<sup>31</sup> qishlog‘ida yashovchi o‘zbek millatining qatag‘on urug‘iga mansub aholi musiqqa ijodiyotida saqlanib qolgan. Ular juda qadimgi ajdodlarimizning ijodiy mahsuli bo‘lib, to‘y

<sup>29</sup> Бадаш сўзининг луғавий маъносини “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да учратмадик, бироқ, китобнинг иккинчи томида “бад” сўзи мавжуд бўлиб “ёмон” деган маъно беради.

<sup>30</sup> Дапп, даб, дафф-сўзлари “Ўзбек тилининг изоҳли луғатида” келтирилган бўлиб, “йўқ қилиш”, “фориф қилиш”, “йўқотиш”, “ҳайдаш” маъноларни англатади. Сурхондарёда дапп чолғу маъносида ишлатилади. Дапп терминини В.Беляевнинг “Музыкальные инструменты Узбекистана” (1993), Ф.М.Кароматовнинг “Уз. инс. Муз” китобларида учратиш мумкин.

<sup>31</sup> Хатакнинг асл маъноси “қат”, “тяг” сўзларидан олинган бўлиб, ерлик аҳоли қояни “қат”, қоя тагини “тяг” деб аташган. Аслида қоя тагидаги қишлоқ маъносини беради. Бу эса аста-секин “қат-тяг”, “Хат-тяг”, “Хаттаг”, “Хаттак” ва “Хатак” хр(о)латига келган бўлиб, ушбу номлар бугунги кунда ҳам мавжуддир.





marosimlarda, turli tantana va an'analarda hamda xalqning tarixan qadimgi bayramlari (navro'z, angam, mehrjon)da shuningdek, oilaviy, diniy bayramlarda faqatgina ayollar tamonidan ijra etilgan. Badashlar xalqning urf-odatlari, an'analari, yashash tarzi, sharoiti asosida juda qadimda yuzaga kelgan bo'lib, o'zlarining turli xarakter-xususiyatlari bilan izohlanadi. Ular raqs va teatr san'ati bilan o'zaro bog'liq holda rivojlangan. Badashlar asosan dapp cholg'usida ijro etilib, ba'zan angishvona, qoshiq va sapol idishlardan jo'rnavez sifatida foydalanilgan. Doyra badashlarining 12 turi bugungi kunga qadar yetib kelgan. Ularning usul va ohanglari har xil bo'lib, bir-biridan ritm o'lchovi, ohang shakli, xarakter, mazmun va nomlanishi bilan farqlanadi. Umuman olganda bu turkumning tartiblanishi quyidagichadir.

- |                      |                      |
|----------------------|----------------------|
| 1.Katta badash       | 7.Gijdala gij badash |
| 2.Kichik badash      | 8.Childirma badash   |
| 3.Ko'rishish badashi | 9.O'yin badash       |
| 4.Araz badash        | 10.Kitirka badash    |
| 5.Bijdonba badash    | 11.Davra badash      |
| 6.Shamol badash      | 12.Qasqon badash     |

va hakoza Xatak qishlog'i dappchi ayollarning fikriga qaraganda 70 ga yaqin yuqorida nomlari sanab o'tilgan badash turlari mavjud bo'lib, ular turlicha nomlangan va har xil usul - ohanglarda raqssiz, raqsli sahnalashtirilgan ba'zan erkin ritmlarda chalingan. Har bir badashning boshlanishida kirish yoki muqaddima qismi bo'lib, ular ikki yoki to'rt takt chalingandan so'ng asosiy kuy ohanggiga o'tilgan.

#### Гиждала – гиж



Kuyning asosiy qismi muqaddimaga nisbatan murakkab ritmlarda chalingan. Biroq, kuy ohang ritmlari o'zgarib turgan. Misol uchun, ko'rishish badashiga e'tibar beraylik. Ko'rishish badashi aholining urf-odatlari, an'analari, to'y marosimi bilan bog'liq barcha shodiyona kunlarida ijro etilgan. Bunda dappchi ayollar tarafma-taraf bo'lib, ikki guruhga ajralgan holda, ikki tomondan bir-biriga qarama-qarshi chiqib kelishadi. Shundan so'ng bir-birlarining dapplariga dapplarini mamnun to'qnashtirib, imo-ishoralar orqali salomlashib yana qarama-qarshi tomonga o'tadilar. Qolgan guruh a'zolari shu vaziyatni takrorlagunga qadar



ikki tomonga saflanishib ko'rishish badashi ohangini chalishni davom ettiradi. Bu holat ijrochilarning soniga qarab takrorlanishi mumkin. Agar ijrochilar soni oz bo'lsa, bu vaziyat tez-tez takrorlanib turiladi, agar 80-100 nafar bo'lsa bu holat bir yoki ikki marotaba bo'lishi mumkin. Ko'rishish badashining ishtirakchilari soni qadimda 20 dan 100 tagacha bo'lgan. Guruhlarga kayvoni ayollar boshchilik qilgan. Ular ijro davrasini boshqarishda ko'pincha badashlarning dinamik belgilaridan foydalanganlar. Masalan, ohanglarni past-baland yoki sekin-asta chalib har xil imo-isharalar bilan davradagi ishtirakchilarning harakatini, ularning badash ohanglarini to'g'ri, aniq chalishlarini hamda qadimdan badash ijrosida an'ana bo'lib qolgan ushbu harakatlarning aniq bajarilishin ta'minlagan.

Katta badash doyra badashlari orasida eng kattasi, murakkabi hamda ahamiyatlisidir. U ham faqatgina xalqning urf-odatlariga bog'liq bo'libgina qolmay, balki xalqning tantanalarda doimo birinchilardan bo'lib ijro etilgan. Katta badash boshqa badashlardan ohangdorligi va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Uch qismdan iborat katta badashning ilk qismi kirish yoki muqaddima, asosiy qism va yakunlovchi qismlarga bo'linadi. Ular turli o'lovlarda chalinadi. Asosiy ritm ohanglari kirish va yakuniy qismlarga nisbatan ancha murakkab ritmlardan tashkil topgan bo'lib, juda shiddatli ijro etilgan.

Endi badashlar orasidan o'rin olgan va turli tantanalarda ko'p ijro etiladigan "Bijdonba" badashiga e'tibar beraylik. "Bijdonba badashi" so'z birikmasining birinchi bijdonba so'zi farscha "bashlanish, ilk", don – "biluvchi, ma'no anglatuvchi", arabcha "dzarb, turkiy – "urmoq", "turtmoq" ma'nolari (bosh zarb)da tushuniladi. Bijdonbadagi "bij" bo'g'ini dapp usulini almashish ma'nosida urilgan zarb - tovushidan olingan. Bij bo'g'ini esa qizdirilmay chalinadigan dapplarda to'xtash usulida urilgan zarbdir.

### Биждонба

Жамоа: 

Ҳа                      Ҳа



Қарсақ: 

Bu badash ko'pincha to'ylarda asosan kelin to'ylarda chalingan. U mazmunan o'yinga charlovchi xarakterli ohangdir. Bijdonba badashi ham ikki qismdan ibarat.

Umuman badashlarning umumnazariy masalalarini quyidagilar asosida izohlash mumkin. Jumladan, badashlarning ritm ohanglari sodda usullardan boshlanib, ijro davomida tobora murakkablashib boradi. Ba'zilar ohang yakunida avvalgi boshlang'ich holatiga qaytadi, ayrimlari esa asosiy qism bilan tugallanadi. Badashlar faqatgina qizdirilmagan dapplarda chalinganda o'zining haqiqiy



ohangdorligi va mazmunini ochib beradi. Shu sabali ham ular ko'p qismli bo'lib, turli o'lchovlarda ijro etiladi. Ularning ahamiyatli tomoni ham shunda. Surxandaryoda badashlar faqatgina ayollar tomanidan chalingan. Badashlarga birgina dapp chalib yoki raqs tushib teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarni namoyish qilish bilan chegaralanib qolmasdan, xalqning urf-odatlarini an'alariga bog'liq voqea va marosimlarni ham o'ziga mujassam etgan. Badashlar dapplarda chalinganda o'zlarining ichki va tashqi xususiyatlarini to'raligicha saqlab qoladi. Shu sababli qizdirilgan doyrada chalinmaydi. Badashlar ham xalq iste'molida ritmik jihatdan bo'g'inlangan. Jumladan, Bijdonba badashining ahangini bo'g'inlanishi quyidagichadir.

Bavs bam bam bavs bam bij.

Bavs bam bam bavs bam bij.

Bavs bij, bam bam bij.

Bavs bij, bam bam bij.

Bu yerda "bavs" bo'g'ini Buxoradagi "bum", Xorazmdagi "gup", "bambam" bo'g'ini Buxoradagi "bakka", Xorazmdagi "toq-toq" bo'g'inlariga, "bam" bo'g'ini Buxoradagi "bak", Xorazmdagi "toq" bo'g'inlariga, dam olish belgisi "bij" esa "ist" bo'g'iniga to'g'ri keladi. Ushbu bo'g'inlashlar faqatgina oddiy usulli badashlarga xos. Ko'rinib turibdiki ritmlarning bunday bo'g'inlanishi Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqqa uslubida ham juda qadimdan mavjud ekanligidan dalolat beradi. Badash ijrosida ustoz-shogird an'anasining ahamiyati katta. Jumladan, Xatak qishlog'ining har ikki xonadonidan bittasiga albatta dapp chalg'usi bo'lib, albatta, ona o'z qizlariga badashlarni o'rgatadi. Avvalambor, bu an'ana xonadonda faol olib borilgan. Doyra badashlari 1948 yillarga qadar to'y-tomoshalarda ijro etilib kelingan. Hatto badashlarsiz xalqning bayramlari o'tmagan. To'y yoki sayl deb eshitgan har bir ayol o'z dapi bilan birga borgan. Badashlar hozir ham xalqning bayramlari va boshqa ananalarida ijro etilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida Surxandaryo musiqqa ijodiyotining tarixan boy merasga ega ekanligidan hamda ushbu vaho bo'ylab ko'praq tadqiqot ishlarini olib borishni taqazo etadi.

Daplar mahalliy marosimlarda ham keng qo'llanilgan. Folbinlikda, mushkul-kushodlarda yoki betob kishilarning kasalliklarini har xil irim-sirimlar bilan haydashda, undan foydalanilgan. Boysun, Panjob, Sayrob va boshqa tog'li hududlarida marhumning qazosi kuni sovuq o'limni haydash ma'nasida ayollar dapp chalib, yig'lashgan.

Umuman, badashlarning umumnazariy masalalariga to'xtalmaqchi bo'lsak, quyidagilarni izohlash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni:

- badashlarning ritm ohanglari sodda usullardan boshlanib, ijro davomida murakkablashib boradi;

- ba'zilar yakunida avvalgi boshlang'ich holatiga qaytsa-da, ayrimlari asosiy qism bilan tugallanadi;

- kuylar faqatgina qizdirilmagan dapplarda chalinganda o'zining haqiqiy ohangdorligi va mazmunini saqlab qoladi;



- badashlar ko'p qismli bo'lib, turli o'lchovlarda ijro etiladi;
- doyra badashlari faqatgina ayollar tomonidan chalinadi;
- ayollar badashlarga birgina dapp chalib yoki raqs tushib teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarni namoyish qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki xalqning ko'p asrlik an'analariga bog'liq voqea va marosimlarni o'zida mujassam ettirgan;

Badashlarning xalq iste'molida ritmik jihatdan bo'g'inlanganligi doyra ritmlarining Surxondaryo mahalliy uslubida ham juda qadimdan mavjud ekanligidan dalolat beradi (3,12).

## 2.Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa

**Ashula**<sup>32</sup> – lirik (ishqiy, didaktik yoki sotsial mazmunli) cho'ziq kuyli bo'lib, o'z diapazonining kengligi, ohang rivojining batafsilligi, sinkopali ritm tuzilishining unda serobliligi bilan xarakterlanadi. Bu janrning poetik teksti asosini faqat «barmoq» vaznidagi emas, balki professional she'riyatga taalluqli aruz vaznidagi she'rlar ham tashkil etadilar. Ashula janrining kuylari she'riy tekstini to'laligicha (yoki uning bir necha bandini) qamrab oladi.

O'z rivojlangan namunalarida ashula janri og'zaki an'anadagi professional muzikaga tegishli bo'lib qoladi. Xuddi shu sohaga maqom qismlari tuzilishiga yaqin bo'lgan ashulalardan tashqari yana bir janr – patnis-ashula (yoki katta ashula) ham kiradi.

**Katta ashula** o'z kuyining juda ham rivojlanganligi, diapazonining juda ham kengligi (uch oktavaga yaqin), ohang rivojining ko'lamligiga qaramasdan kuy asosining rehitativsimonligi hamda metro-ritmik erkinligi bilan ajralib turadi. Ijro etilishi ham o'ziga xos uslubda bo'lib, ikki va undan ortiq hamnafas, ya'ni doimo birga yurishadigan mutaxassis ashulachilar kichik ansamblining ma'lum tartibda birin-ketin va birgalashib aytishlaridan iboratki, bunda xalq profesional ijrochiligida qabul qilingan uslubdan chetlashmaslikka harakat qilinadi.

Professionallik (yoki kasbiylik) O'zbekiston muzika san'atida, boshqa ko'pgina sovet Sharqi respublikalari va ajnabiy Sharq davlatlari xalqlarida kuzatilganidek, eramizning birinchi asrlarida shakllandi va asrlar bo'ylab takomillashib, ijrochilik san'ati sohasida hamda turli janrlardagi vokal va cholg'u muzikasi asarlarini yaratishda yuksak natijalarga erishildi. Ammo yerli professional sozandalar, o'zlari ma'lum davrlarda ayrim nota yozuvlarini yaratgan bo'lsalar-da, to bizning asrgacha nota yozuvini ijrochilik tajribasida ishlatmaganlar<sup>33</sup>.

O'zbek klassik muzikasi yoki an'anaviy professional muzikasiga tegishli asarlar (jumladan maqomlar ham) og'izdan og'izga, ustozdan shogirdga, avloddan avlodga o'tib kelgan, shuning uchun ham bu soha muzikalariga nisbatan og'zaki an'anadagi professional muzika iborasini ishlatmoqdamiz.

<sup>32</sup> Бу ерда тор, яъни жанр маъносида. Маълумки, кенг маънода ашула ибораси умуман ашулачиликни англатади.

<sup>33</sup> Раджабов И. К истории нотной письменности на Востоке // «Общественные науки в Узбекистане», 1962, № 10, с. 32–58.



O'zbek an'anaviy professional ijrochilik madaniyatining juda ham rivojlanganligi tufayli uzoq o'tmishdan boshlab mutaxassis ashulachi va cholg'uchilarga nisbatan alohida talabchanlik ko'rsatilgan. Odatda taniqli, yirik ustoz bilan o'tkazilgan ko'p yillik mashg'ulotlardan keyingina professional ijrochi bo'la olardilar. O'qish, o'qitish jarayoni quyidagicha o'tardi: o'z qobiliyati bilan ma'lum ustoz diqqatini jalb eta olgan yosh ashulachi xuddi shu ustozga shogird tutinib ko'p yillar davomida (odatda 7-10 yil) ijrochilik san'atini o'zlashtiradi, juda ko'p asarlarni (ikir-chikirlarigacha mumkin kadar aniqroq o'rganib) yod oladi. Qeyin ustozlar oldida imtihon topshirgach, u teng huquqli ijrochi mutaxassis hisoblanishi mumkin edi.

Xalq professional ashulachi va cholg'uchilarini tayyorlash usullari ma'lum darajada folklor janrlarining ham doimiy yirik ijrochilari (xalfa, yallachi, sozandalar)ni yoshlardan tayyorlashda ham qo'llanilgan.

Ayrim kasb egallari, masalan, dorvozzlar va shunga o'xshagan tomoshalarning boshqa vakillari ma'lum yo'nalishdagi cholg'uchilar (asosan surnaychi, karnaychi, nog'orachi va doirachilar) bilan birgalikda maxsus truppalar tuzganlarki, ularni tajribali muzikachi boshqargan. Ularning har birlarining o'z qoidalari – «risolalari» bo'lgan va uning shartlariga itoat etish hamma a'zolari uchun shart hisoblangan.

Dong'i ketgan mohir ashulachi va cholg'uchilar, bizning sovet davrimizgacha ishlatilgan o'tmish qoidalariga muvofiq, amir saroyi (yoki boshqa darajadagi hukmron o'rdasi)ga jalb etilganlar. Bunday ashulachi va cholg'uchilar xalq ommasiga oldiga o'z sohiblari ruxsatisiz chiqib biror narsa ijro eta olmaganlar. Bu esa ular aytib yuradigan maqom qismlari va ashulalarning mavzui hamda talqiniga putur yetkazmasdan qolmagan, albatta. Jumladan, maqom ayrim qismlarining asosiy she'rlari hukamoga manzur tekstlar bilan almashtirilgan. Ammo shunga qaramasdan saroy ashulachi va cholg'uchilari, aslida milliy muzika merosimizning xalq professional ijrochilari orasidan chiqqanliklari tufayli ko'pincha og'zaki an'anadagi professional muzika vokal va cholg'u asarlarining mohir ijrochilari sifatida qolaverganlar.

Imkoniyati boricha shu zikr etilgan muammolarning hammasini e'tiborga olishga intildik. Ushbu nashrning asosiy vazifasi – o'zbek xalqi muzika merosining janrlar rang-barangligini hamda ko'p qirraliligi, boyligini ko'rsatishdir. Bu vazifani amalga oshirishda hali deyarli nashr etilmagan oxirgi o'n yillikda (aniqrog'i, 1955 yildan boshlab har yili) ushbu satrlar avtoridan tomonidan o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalarining materiallari hal etuvchi tayanch bo'ladi. Yuqorida nomlangan ekspeditsiyalar ishiga ora-orada radiotexnik, fotograf va boshqa texnik xizmatchilardan tashqari Institutimizning ilmiy xodimlari – muzikashunoslar M.Ahmedov, K.Ahmedova va R.Abdullaev, teatrshunoslar M. Qodirov va T. Tursunovlar, arxitektor X.Zohidov (xalq uy-joylari qurilishi bilan shug'ullangan), filolog L.Karomatova qatnashganlar. Oxirgi yillarda esa Toshkent Davlat konservatoriyasi sharq muzikasi kafedrasining pedagogi O. Matyoqubov hamda xuddi shu kafedraning aspirant va studentlari qatnasha boshladilar. Ayrim ekspeditsiyalar ishtirokchilari sifatida O'zbekiston fanlar akademiyasining A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari M. Alaviya,



O. Sobirov va shu institutda 50-yillarda ishlab turgan R. Sultonovalarni ko'rsatish mumkin.

Oldingi yillar nashrlarida asosan 1920–1950 yillarda yozilgan, jumladan, San'atshunoslik institutining 30-yillarda V. Uspenskiy va Ye. Romanovskayalar rahbarligida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalari hamda 50-yillar boshida K. Olimboeva-Ahmedova, M. Ahmedov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalarining ayrim materiallari va asosan, Toshkentning o'zida yoki ayrim boshqa shaharlarda mutaxassis ijrochilardan V. Uspenskiy, Ye. Romanovskaya, N. Mironov, M. Chetvertakov, I. Akbarov, Yu. Rajabiy, M. Yusupov va boshqalar tomonidan yozib olingan turli janrdagi folklor namunalari, doston qo'shiqlari, ashula va katta ashulalar, maqom qismlari variantlari va to'laligicha maqom sikllari qamrab olingandi. Shuning bilan birga o'tgan asrning 70-yillarida A. Eyxgorn tomonidan respublikamizning turli shaharlarida yozib olingan qo'shiq-ashulalar, cholg'u kuylari va usullar ham 60-yillarda nashr etilgandi. Taqdim etilayotgan ushbu to'plamlarda esa oldingi tasavvurni kengaytirish maqsadida hali nashr etilmagan va bugungi kungacha aytilib kelinayotgan (yoki oxirgi o'n yilliklar – 50–70-yillarda aytilgan) o'zbek muzika folklori va og'zaki an'anadagi professional muzika namunalarni kiritiladi.

### 3. Doston ijrochilik maktablari

“Doston” so'zi fors tilidan olingan bo'lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy – ikki misradan iborat, faqat she'riy shaklda yaratiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig»,

Navoiyning «Xamsa» asaridagi beshta doston va hokazolar. Yozma adabiyotdagi dostonlar aruz vaznida yoziladi. Individual ijod mahsuli hisoblanadi. Binobarin, yozma adabiyotdagi dostonlar yakka shaxs ijodi an'analari asosida vujudga keladi.

Ikkinchi tur dostonlar og'zaki ijod mahsuli sifatida folg'klor an'analarga bo'ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov tahrificha, og'zaki ijoddagi dostonlarda she'riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo'lishi lozim (Bu o'rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik musiqqa asari bo'lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do'mbira cherta bilishi yoki qo'biz chala bilishi zarur. To'rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo'lishi va qo'shiq aytish mahoratini egallagan bo'lishi zarur

Xalq og'zaki ijodidagi doston folg'klorshunos olimlarning diqqatini alohida o'ziga jalb etgan, o'zbek xalq og'zaki ijodi tarkibida eng ko'p o'rganilgan, katta munozaralarga sabab bo'lgan, qolaversa, o'zbek xalq og'zaki ijodi merosini butun dunyoga ma'lum va mashhur qilgan janrdir. Dostonni olimlar sinkretik janr deb biladilar. «Sinkretik» so'zi yunoncha birlashgan; qism, bo'laklarga ajralgan ma'nosini beradi. Doston haqida gap borganda, sinkretik so'zi bu janrdagi asarlarda so'z, musiqqa, xonandalik, hofizlik,



badiiy o'qish, notiqlik, aktyorlik san'atlarining uyg'un namoyon bo'lishini izohlaydi. Haqiqatan ham, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Chori baxshi Xo'jamberdiev, Shomurod baxshi Tog'aev, Qahhor baxshi Qodir baxshi o'g'li Rahimov ijrolarini bevosita ko'rish va eshitish jarayonida yuqorida qayd etilgan san'atlarning to'liq go'zallikda uyg'unlashuvini, qo'shimcha ravishda bu ijrochi va ijodkorlarda badiha san'ati mahorati to'liq namoyon bo'lganini ko'rganmiz. Ustoz Muhammadnodir Saidovning yuqorida qo'ygan to'rt talabiga ko'ra doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar doirasida tabiiy vaziyatda ijro mahoratidan bahramand bo'lish shartini ham qo'shimcha ravishda qayd qilmoqchimiz. Bu shartning zarur ekanligi televidenie, radio, fonogrammalar orqali doston ijrosi bilan tanishish natijasida aniq seziladi. Baxshi texnik vositalar (kamera, mikrofon) guvohligidan ko'ra bevosita tinglovchilar uchun tabiiy sharoitda doston ijro etganida o'zini erkin his qiladi, badihago'ylik qobiliyatini yaxshiroq ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Baxshi doston kuylayotganida o'zining ijrosidan o'zi zavqlanadigan payt bo'ladi. Tinglovchilar baxshi mahoratidan bahra olib ehtirosli ovozlari chiqarishadi. Ana shunday holatda baxshining qaynashi ro'y beradi. Tabiiy sharoitda qaynash tezroq amalga oshadi. Undan tashqari do'mbira to'ntarish odati ham bor. Ijrochi bir oz dam olish bahonasi bilan do'mbira to'ntaradi va xonadan havo olish uchun tashqariga chiqadi. Bu vaqtda tinglovchilar o'z atagan hadyalarini to'plab do'mbira yoniga qiyiqchaga solib qo'yishadi. Bu odat ham tabiiy ijro paytida oson va qulay bajariladi. Xullas, baxshi uchun ham, tinglovchi uchun ham oddiy, samimiy, tabiiy sharoitda doston aytish mahqul hisoblanadi. "Doston" so'zining yana bir ma'nosini ham bilib olish kerak. Bu – el orasida gapirilmoq, kuylanmoq, og'izga tushmoq demakdir. Demak, dostonlarda ishtirok etgan qahramonlar, bir tomondan, asardagi obraz sifatida qayd etilsa, ikkinchi tomondan, el og'ziga tushuvchi, shuhrat topuvchi inson tushunchasini ham o'zida singdirgan bo'ladi. Natijada, ayniqsa, ijobiy qahramonlarning og'izga tushishi yoki muhabbat topishi xalq pedagogikasi talablariga ham javob beradigan inson bo'lib tanilishi bilan bog'lanadi. Shunday qilib, «Alpomish», «Go'ro'g'li turkumidagi «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malika Ayyor», «Ravshan» kabi o'nlab asarlar, «Kuntug'mish», «Rustamxon», «Oshiq G'arib va Shohsanam» kabilar xalq og'zaki ijodidagi doston janriga mansub namunalar bo'lib, asrlar davomida el qalbidan samimiy hurmatga sazovor, shuhratga erishgan durdonalardir. Dostonni baxshilar kuylaydilar. Baxshilar esa o'z ustozlaridan maxsus dostonchilik sirlarini o'rgangan san'atkorlardir. Agar maqollarni, topishmoqlarni millatimizning istagan vakili aytishi, qo'shiqlarni har bir oshiq yoki mahshuqa ijro etishi mumkin bo'lsa, doston ijrosi alohida shogirdlik faoliyatini boshidan kechirgan, maxsus ta'lim ko'rgan va muayyan iqtidorga ega shaxsgagina nasib qiladi.

«**Baxshi**» so'zi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da to'rt xil ma'no berishi ko'rsatilgan: 1 – donishmand, 2 – dostonlarni kuylovchi, 3 – dam solib davolovchi tabib, 4 – Buxoro xonligida qurilish mablag'ini nazorat qiluvchi. Yuqoridagi to'rt ma'nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli, desak xato bo'lmaydi. Chunki xalq orasida baxshi bo'lish uchun inson donishmand, aqlli bo'lishi kerak, degan fikr qayta-qayta tahkidlanadi. Ikkinchidan, "baxshi" lug'atda



izoh berilishicha, xalq dostonlarini ijro etadi. Uchinchidan, qadim zamonlardan xalq tasavvuridagi baxshilar soʻzning moʻhijaviy fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forigʻ qiluvchi odamlar hisoblangan. Hozir va oʻtgan asrlarda baxshi davrasida ishtirok etgan odamlar doston eshitish bilan birga dardlaridan ham qutulganlar, turmush tashvishlaridan ozod boʻlganlar, oʻzlarini yengil sezganlar. Oʻzbek folgʻklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning maʼlumot berishicha, baxshi moʻgʻulcha va buryatcha “baxsha”, “bagʻsha” soʻzlaridan olingan boʻlib, “ustod”, “mahrifatchi” maʼnolarida qoʻllangan. Maʼlum boʻladiki, baxshi xalq tomonidan cheksiz hurmatga ega, ehzoz topgan hunar egalari ekan. Folgʻklorshunoslikda baxshilarning turli nomlar bilan atalgani ham maʼlum. Xususan, yuzboshi, soqi, jirov, jirchi, oqin shular jumlasidandir. Bahzan usta soʻzi ham qoʻllangan. Baxshilarning ustoz izidan chiqib, oʻziga xos uslubda, badihagoʻylikdan keng foydalanuvchilari, koʻpincha, shoir deb ham atalgan. Shuningdek, Xorazmda doston aytuvchi ayollar xalfa nomi bilan mashhurlar.

Oʻzbek dostonchiligida doston kuylash anʼanasi qadimda uch yoʻnalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulungʻur, Qoʻrgʻon, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi oʻzbek-laqaq dostonchilik maktablarida doʻmbira chertib yakka holda, boʻgʻiz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, gʻijjak, garmon, bulamon, qoʻshnay, doira joʻrligida bahzan yakka, bahzan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Fargʻona vodiysida dutor joʻrligida ochiq ovozda aytilgan.

Shubhasiz, oʻzbek dostonchiligida keng tarqalgan ijro usuli doʻmbira joʻrligida boʻgʻizda doston aytish hisoblanadi. Baxshining boʻgʻizda ichdan kuch bilan ovoz chiqarishi juda qadim zamonlarda shimol xalqlari afsungarlari – shamanlarda mavjud edi. Demak, oʻzbek baxshilarini uzoq oʻtmish zamonlar bilan qandaydir janr yoki sanʼat ijrosi bogʻlaydi. Ehtimol, keyinchalik bu ijro usuli baxshilar uchun anʼana boʻlib qolgan. Oʻzbek dostonchiligi mif – afsona – rivoyat – naql – ertak – doston bosqichlaridan iborat diffuziya harakatining soʻnggi bosqichida vujudga kelgan deb taxmin qilamiz. Mana shu jarayonning muayyan bosqichida ijro usuli hozirgi baxshilarimizning doston aytishlarini eslatishi mumkin boʻlgandir. Har holda bunday baxshichilik sanʼati bir necha asrlik tajribaga ega ekanligi bilan boshqa ijrolardan ajralib turadi. Filologiya fanlari doktori, professor Toʻra Mirzaev maʼlumotiga koʻra, Bulungʻur dostonchiligida qahramonlik dostonlarini ijro etish koʻproq amalga oshgan. Bu maktabning soʻnggi vakili Fozil Yoʻldosh oʻgʻli (1872-1955) hisoblanadi. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli ijrosidagi «**Alpomish**», «**Yodgor**», «**Yusuf bilan Ahmad**», «**Malika ayyor**» kabi dostonlar yozib olingan. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli Yoʻldosh, Qoʻldosh, Suyar shoirlarning tarbiyasini olgan. Ayniqsa, u ijro etgan «Alpomish» dostoni xalq ijodidagi eng mukammal asar sifatida butun dunyo folgʻklorshunos olimlari tomonidan tan olingan.

Ergash Jumanbulbul oʻgʻlining nomi hamisha Fozil shoir qatorida juft keladi. Ergash shoir (1868-1937) Qoʻrgʻon maktabi vakili edi. Nurota hududining shuhrati aynan ana shu baxshi va Poʻlkan shoir (1874-1941) ijodi bilan bogʻliq. Bu yerda "Alpomish", "Yakka Ahmad", "Kuntugʻmish", "Ravshan" dostonlarini ijro qilish anʼanasi keng rivojlangan edi. Folgʻklorshunoslikda ayol baxshilar: Sulton





kampir, Tilla kampir, shuningdek, Yodgor, Jumanbulbul, Jossoq baxshilar ijodi o'rganilgan.

Shahrisabz dostonchiligida Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957), Narpay dostonchiligida Islom shoir Nazar o'g'li (1874-1953) ijodi alohida qayd etilgan. **"Orzigul", "Sohibqiron", "Erali va Sherali"** kabi dostonlar ijrosini bu maktab vakillari yuqori san'at darajasiga yetkazib kuylaganlar.

Bir baxshining ijodi butun tuman baxshichilik an'anasiga sezilarli ta'sir o'tkazishi hayot tajribasida tasdiqlangan holdir. Masalan, bir paytlar baxshilar sulolasi bilan g'ururlangan maktablar bugungi kunda inqirozga yuz tutgan bo'lishi mumkin. Xususan, hozirgi paytda Bulung'ur, Nurota tumanlaridagi mashhur baxshilar o'z faoliyatlarini to'xtatganlar. Shu bilan birga Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Qodir baxshi Rahimov an'anasini to'la quvvat bilan farzandlari Qahhor, Abdumurod, Bahrom timsolida davom etmoqda.

Doston ijrosida Xorazm usuli Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi an'anadan tamomila farq qiladi. Bu yerda doston ijrosi professional xonandalik yo'lida amalga oshiriladi. Baxshi doston matnini yoddan ijro etadi, shu bilan birga do'mbira chertuvchi baxshilardan farqli ravishda dostonga yo'l-yo'lakay o'zgartirish kiritishdan o'zlarini saqlaydilar. Chunki Xorazm dostonchiligida doston matn, ko'pincha, xalq kitoblari turkumidagi XIX asrda chop etilgan kitoblarga asoslanadi. Matnga o'zgartirish kiritish bu an'ana qoidalari bo'yicha mahqullanmaydi. Tabiiy savol tug'iladi: u holda Xorazm baxshilarining doston aytish mahoratini qaysi mezon belgilashi mumkin? Xorazm baxshilari o'z mahoratlarini dostonni aytishda mumtoz musiqaga, dostondagi she'riy parchalarni alohida qahramonning ariyasi darajasida kuylash bilan ko'rsatadilar. Xorazm baxshilarining ovozi mumtoz ashula aytuvchilar ovozidan deyarli farq qilmaydi. Doston musiqasi ham mumtoz san'at usuliga asoslangan. Ahmad baxshi, Bola baxshi, Qodir sozchi, Boltavoy baxshi kabi san'atkorlar ijodi Xorazmda shuhrat topgan edi.

XX asr Xorazm dostonchiligi rivoji, shubhasiz, Bola baxshi - Qurbonnazar Abdullaev ijodi bilan bog'liqdir. Xorazmda ayollarning doston aytishi ham keng tus olgan edi. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova Xorazm dostonlarini kuylashda yetuk baxshilar qatoridan munosib o'ringa ega bo'ldilar. Bu an'ana bugungi kunda ham to'liq davom etmoqda. Qalandar baxshi Normatov, Norbek Abdullaev, Zulfiya Ortiqova, Nodira Bekova, Rohat Xo'janiyozovalar ustoz baxshilar va xalfalar san'atini davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Bozirgon" kabi dostonlar mahorat bilan ijro etilmoqda. Xalfalar esa dostonidan parchalar, to'y qo'shiqlarini, lapar, yallalarni kuylashda xalqqa rohat bag'ishlamoqdalar.

Xorazm dostonlarini ijro etishda mahalliy sharoitda tajribadan o'tgan tarixiy odatlar haqida baxshilardan ma'lumot olganmiz. Unga ko'ra XIX-XX asrlarda Xorazmda katta to'y bergan odam marosimga uch-to'rt guruh baxshilarni chaqirgan. Guruhlar bir-birlariga xalaqit bermaydigan masofada davra qurishgan. Tinglovchi bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tib yurgan. Qaysi baxshi mahqul bo'lsa, o'sha davrani mahqul ko'rgan. Natijada, to'y oxirida mohir va no'noq baxshi atrofidagi tinglovchilar soniga ko'ra ajralib qolgan. E'lon qilinmagan



musobaqada mag'lubiyatga uchragan baxshi o'z ustida ishlashga majbur bo'lgan. Shuningdek, Bola baxshining eslashicha, Muhammad Rahimxon Feruz xonlik paytida har yili hofiz, sozanda, baxshilarning ko'rigini o'tkazar ekan. Ko'rikdan o'ta olmagan san'atkor tinglovchilar oldida soz chalish, ashula aytish, doston kuylash huquqidan mahrum qilinarkan. Bu san'atkor keyingi ko'rikkacha muttasil mashq qilib o'zini oqlashga uringan. Darvoqe, 1909 yilda 9-10 yashar Qurbonnazar xon huzurida doston aytishga chaqirishadi. Feruz yosh baxshidan uning ismini so'raydi. Bola ismi Qurbonnazar ekanini aytganida, xon tabassum bilan: - Sening isming Qurbonnazar emas, Bola baxshi, - deb unga oq fotiha bergan ekan. Shu-shu Qurbonnazar Abdullaev Xorazm va Turkmanda "Bola baxshi" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Xorazm dostonchiligini chuqur ilmiy asosda o'rgangan filologiya fanlari doktori, professor Safarboy Ro'zimboev Xorazm dostonchiligi, o'z navbatida, Shimoliy va Janubiy an'analarga bo'linishi, ularning o'zaro farqlari va baxshilar, sozchi (garmong' bilan doston aytuvchi ijrochi)lar haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etgan

O'zbek dostonchilik an'anasining yana bir turi Farg'ona vodiysida shakllangan. Namangan viloyatining shimoli Uychi, Yangiqo'rg'on, Chortoq atroflarida Dehqonboy Bahromov, Ikrom Rizaev, Omon baxshi Razzoqovlar ijod qilishgan. Mahalliy xalq og'zaki ijodini o'rgangan olim Abdushukur Sobirov taniqli folg'klorshunos olim Tojiboy G'oziboev bilan hamkorlikda mazkur dostonchilik an'anasini o'rganib, Qo'lbuqon, Sayram, Ariqbo'yi (Ariqmo'yin) maktablari mavjudligini qayd etadi. Ahmadjon Meliboev "Safed Bulon hikoyalari" kitobida Peshqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qilgan Olim baxshidan "Yozi bilan Zebo" dostonini o'n ikki varaqli o'quv daftaridan o'ntasiga yozib olib, Muzayyana Alaviyaga yuborganini ma'lum qilgan. Ammo bugungi kunda Farg'ona vodiysidagi dostonchilik an'anasida doston ijro etadigan baxshilar ijod faoliyatlarini to'xtatganlar. Hamma o'zbek dostonchiligi an'analarda hajman cheklanish kuzatilmaydi. Madaniy merosimiz xazinasida "Bozirgon", "Sohibqironning tug'ilishi" kabi kichik asarlar va ayni paytda, "Alpomish", "Malika Ayyor"dek yirik dostonlar bor. Dostonlar hajmidagi nisbiy o'lchov inobatga olinsa, do'mbira chertib ijro etiladigan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda aytiladigan dostonlar hajmi Xorazm dostonlaridan ham, Farg'ona vodiysi dostonlaridan ham kengligi bilan ajralib turadi. Hajman Farg'ona vodiysidagilar ancha kichik hisoblanadi.

Doston matni she'riy va nasriy parchalardan iborat bo'ladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li Bulung'ur tumanidan bo'lgani uchun do'mbira chertib ijro etiladigan dostonlarni shartli ravishda Samarqand dostonchiligi deb ataymiz. Bu an'ana asarlarida she'riy va nasriy parchalar badiiy jihatdan, voqealar bayonini ifodalash, qahramonlar ruhiy holatini tasvirlash jihatdan teng hisoblanadi. Fikrimizni dalillash uchun Ergash Jumanbulbul kuylagan "Ravshan" dostonidan nasriy parcha keltiramiz: "Oq qiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas, sog' qiz, eri yo'q o'zi – toq qiz, yaxshi – tekis bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q – ahmoq qiz, qora ko'z, bodomqovoq qiz, sinli – siyoq qiz, o'zi semiz – turishi yog' qiz;



o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bo'layroq qiz, o'zi anqov olayroq qiz, tanasi to'sh qo'ygan keng qiz, sag'risi do'ng qiz, urushqoq emas – jo'n qiz, ahzosi bari teng qiz... "

Yigitlar tomonidan ijro etiladigan mahalliy raqs harakatlari qadimdan mavjud. "Zebari" turkum raqslari faqatgina Sariosiyo, Uzun tumanlarida rasm bo'lgan. Dashnobod qishlog'ida esa "Doshnobodcha raqs" ommalashgan. Unda aytishuvlar ham mavjud bo'lib, yigitlar tarafma-taraf holda bir birlariga qarama qarshi aytimlarni aytishadi. Fikrimiz dalili sifatida Dashnobod qishlog'ida qadimdan o'ynalib kelinayotgan "Dashnobodcha" raqs va "Zebari" yigitlar raqsini aytib o'tish lozim. "Dashnobodcha" raqsda "Yor-Yor" termasi ijro etiladi. Unda yigitlar raqsqa tushib oldinda ketayotgan yigitlardan birini qattiq chimchilab oladi va raqsni davom ettiradi. Bundan maqsad kishilarga zavq, o'yin-kulgi ulash. Bu raqsda "Bas-bas" aytishuvi mavjud. Aytishuvda ijrochilar tarafma-taraf bo'lib turli terma baytlaridan ijro etib musobaqa o'tkazgan. "Zebari" yigitlar raqsi juda qadimiy bo'lib, unda faqat yigitlar bir xil o'ynaydi.

Xalq dostonlari va termalarini ijro etuvchi baxshi – shoirlar ijodi alohida ajralib turadi.

Cholg'u kmusiqasidan do'mbira kuylari:

"Nag'ma", "Do'mbira nolasi", "Chertim", "Ohuva", "Qiz quvish", "Qo'y boqish";

Changqovuz kuylari:

Cho'pon kuyi", "Qo'zi mag'rash", "Qo'y boqish", "Echki sakrash", "Tuya qaytarish", "Ohuva", "Qiz chaqirish", "Qiz ko'rish", "Kelin nidosi", "Qiz xonish".

Doston – o'zbek xalqining qadimgi manaviy va badiiy merosining durdonasi bo'lib, ularning asosini xalq hayoti va kurashi, uning orzu umidlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatga muhabbat, do'stlik, sevgi va sadoqat kabi oliyjanob fazilatlar xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlashgan". Xalq dostonlari va do'mbira kuylarini F.M.Karomatli, R.Abdullaev, B.Matyoqubov tadqiqotlarida dunyodagi ayrim xalqlarda o'zining boy tarixiga oid yirik hajmdagi qiziq – qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash "doston" so'zini anglatishini etirof etadi (1.2; 2.16; 2.22; 2.40; 2.52; 2.54; 2.70). Xalq donishmandligining yorqin ifodasi bo'lgan bu obrazli ijodiyot namunalari jamiyat va tabiat xodisalariga inson munosabatining musiqiy – poetik obrazi sifatida baxshilar tomonidan asrlar mobaynida sayqallangan. O'zbekistonda xalq dostonchiligi, shuningdek, epik hikoya, doston janrlari (doston, qissa, hikoya, madhiya yoki qasida, sarguzasht) o'zining nasriy va nazmiy unsurlarini musiqa va cholg'u jo'rnovozligida namoyon etadi.

"Baxshi" so'zi qadimdan bemorni xalqona usullar bilan davolovchi tabib – doira va yoki boshqa cholg'u asbobi chalib, afsungarlik aytimlai orqali kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvadigan davolovchi (hozirgacha saqlanib kelayotgan "ko'ch", "qaytarma", "jahr" marosimlari) – shomon-baxshi yoki shomon – folbin, shuningdek, ayrim hududlarda "ustoz" manolarini anglatgan (2.70). Bugungi kunda bu so'z xalq dostonlarini kuylaydigan ijodkor sanatkorlarni bildiradi.



Doston aytimlaridan “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari. Terma aytimlaridan “Nima aytay”, “Nimadan boshlay”, “Xush ko‘rdik”, “Asl yurtim”, “Mehmondirmiz”, “Termadan boshladim”, “Quloq osing so‘zima”, “To‘y bugun”, “Yoshing qutlug‘”, “Ko‘hna dunyo”, “So‘zima eshit”, “Do‘mbiram”, “Meni eshit do‘mbiram”, “Ota nidosi”, “Haqiqatni bayon aytay”, “Dostondan boshlasam”.

Viloyatda Sherobod va Boysun dostonchilik maktabi mavjud bo‘lib, ushbu maktabni 100 ga yaqin turli yoshdagi baxshilar tashkil etadi. Doston aytuvchilar bayram va oilaviy marosimlarga doim hurmatli mehmon sifatida taklif qilinib kelingan. Jumladan, Qumqo‘rg‘onlik Ismoilxon baxshi Anvarov ijrosida turli mavzulardagi termalarni tinglash mumkin. Zulxumor baxshi esa do‘mbira chalib erkaklardek bo‘g‘iq ovozda doston va terma kuylagan ayollar orasidan chiqqan birinchi baxshidir. U ham “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarni kuylab kelmoqda. Uning ustozlari Shoberdi baxshi Boltaev va akasi Omon baxshi Shernazarovlardir.

Dostonchilik ijodiyoti – baxshi - shoirlarning terma va dostonlari viloyat qo‘shiqchilik ijodiyotining asosini tashkil etadi. Qiziriq tumanida Xushboq baxshi Mardonaqul o‘g‘li, Denov tumanida Boborayim baxshi, Qumqo‘rg‘onda Juma Abrayqulov, Sherobot tumanida Shaymon baxshi, Angorda Chorsha baxshi, Muzrabotda aka uka Qora va Chori baxshi Umirovlar ustoz – shogird an‘anasiga yetakchilik qilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kid etish joizki, voha qo‘shiqchilik ijodiyoti musiqshunos olimlarning tasnifi asosida bir tizimga keltirilib, “ma‘lum vaziyat aytimlari” (oilaviy marosim, mavsumiy) va “turli mavzuli qo‘shiqlar” (qo‘shiq, terma, lapar, yalla) kabi iboralar bilan tasnif etildi.

Bunda, alla, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, muchal to‘yi, nikoh to‘yi kabi qo‘shiq aytimlar ustuvor bo‘lgan oilaviy marosim haqida alohida alohida to‘xtalib, unda ijro etiladigan qo‘shiqlar alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, yil fasllariga xos gap gashtak (qish), bahor mavsumiga xos “Navro‘z” bayrami, sumalak, lola sayli, boychechak sayli, darveshona, shox moylar marosimlari, yoz mavsumida sust xotin, kuz faslida o‘rim, oblobaraka, shamol chaqirish marosimlaridagi qo‘shiqlar mavsumiy qo‘shiqlar, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandlik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari siqatida tadqiq etildi. Turli vaziyat qo‘shiqlari sifatida qo‘shiq, terma, lapar, yallalar o‘rin oldi. Shuningdek, baxshi – shoirlar ijodidagi terma va dostonlar, tadqiqot uchun yangilik deb etirof etilgan “doyra badashlari” haqida ma‘lumotlar keltirildi.

#### **4.Folklor va maqom san‘ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari**

Surxondaryo - Qashqadaryo dostonlari adabiy - musiqiy asar sifatida talqin qilinadi. Ular nasriy va nazmiy qismlarga bo‘linib, o‘zaro bir - biriga bog‘langandir. Doston ijrochilarini baxshi, shoir, yuzboshi deb ataydilar. Dostonlar asosan do‘mbira cholg‘u jo‘rligida bo‘g‘iq ovozda kuylanadi. Bo‘g‘iq ovozni hosil qilish va ishlatish alohida mashqlar natijasida amalga oshiriladi. Ushbu malakani oshirishda ustoz - shogird an‘analariga rioya qilinadi. Natijada shogirdlar ushbu vohalarda mashhur bo‘lgan «Alpomish», «Avazxon», «Go‘ro‘g‘li», «Kuntug‘mish» dostonlarini yod oladilar va ko‘rikdan o‘tadilar. Baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini qo‘shiq shaklida kuylaydilar.



Surxondaryo - Qashqadaryo dostonchilik san'atida Shaxrisabz va Sherobod maktablari asosiy markaz sanaladi. Abdulla Nurali o'g'li va Islom Nazar o'g'li kabi baxshi shoirlar Shaxrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur ijrochilari hisoblanadilar.

Dostonlarni ijro etish ham asosan mavsumiy bo'lib, kech kuzda dehqonlar hosillarini yig'ishtirib bo'lganlaridan so'ng boshlanib, erta bahorgacha davom etadi. Dostonchi baxshilar xonadonlarda uyushtirilgan dostonchilik kechalariga taklif qilinadilar va mahalla, qo'ni - qo'shni yig'ilishib, dostonlar tinglashadi. Bu azaldan odat tusini olgan bo'lib, baxshilarni oilaviy bayramlarga, to'y - tomoshalarga, xosil bayramlariga ham taklif etganlar. Ya'ni dostonchi baxshi o'z dostonlarini qisqacha aytim yo'li bilan ta'riflab beradi va eshituvchilarning xohishiga ko'ra bir dostonni boshlaydi. Dostonchi baxshilar doston ijrolaridan tashqari bag'ishlov ijrolariga ham juda usta bo'lib, biron yaxshi kunga, marosimga, mashhur odamlarning ismlariga monand bag'ishlovlarni nasriy va she'riy yo'llarda ham ijro etadilar. Bu ijro baxshilardan o'ta zukkolikni talab qiladi. Hozirgi davr dostonchilik ijrochiligi Shoberdi baxshi Boltaev maktabi yetakchilik qilmoqda. Surxondaryo - Qashqadaryo musiqasida dostonchilik san'atidan tashqari keng ommalashgan mehnat qo'shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'sh, o'rim, yorg'inchoq qo'shiqlari dehqonchilik bilan bog'lansa, «xo'sh - xo'sh», «Churey», «Turey - turey» qo'shiqlari chorvachilik bilan bog'liqdir. Charh, o'rmak, kashta, bo'zchi qo'shiqlari esa hunarmandlar mehnati qo'shiqlari sanaladi.

Buxoro-Samarqand musika uslubiga doir dostonchilik maktablari asosan viloyat tumanlarida karor topgan bulib, ular, «Bulungur dostonchilik maktabi», «Narpay dostonchilik maktabi» kabi ataladi. Shulardan Bulung'ur va Qo'rg'on dostonchilik maktablari mashhurroq dir. Bulung'ur dostonchilik maktabida «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Rustamxon», «Go'rig'lini tug'ilishi» kabi qahramonlik dostonlari yetakchi o'rin tutadi. Jo'rovoz soz siratida dombra sozi qo'shiladi. Amin baxshi, Chinni Shoir, Tavbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Yo'ldoshbulbul, Yo'ldoshshoir, Qo'ldash Suyar kabi baxshilar bu maktabning o'tmishidagi (XIX asr) yirik namoyondalaridir. Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) bu maktabning so'ngi yirik vakillaridan biri edi. Qo'rg'on dostonchilik maktabida «Alpomish» dostoni ijro etilgan bo'lsa-da, biroq unda ishqiy-romantik dostonlarga jumladan, «Gumor pari», «Qunduz» bilan «Yulduz», «Oysuluv», «Kuntug'mish» singari dostonlarga e'tibor beriladi. Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'tmishdagi yirik vakillari qatori Yodgor, Laras, Mulla-Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul kabi baxshilarni aytish kerak. Ergash Jumabulbul o'g'li (1868-1937) va Pulkan shoirlar (1874-1941) bu maktabning so'ngi yirik namoyondalari edi.

Horazm dostonchilik maktabi o'z an'alariga ega bo'lib, boshqa mahalliy dostonchilik maktablardan farqli jihatlariga ega. Bu farqlar asosan quydagilardan iborat.

A) Xorazm dostonlari «Bo'g'iq ovozd» emas, balki «Ochiq ovoz» uslubida kuylash hususiyatlar bilan ohanglanadi.



B) Ko'pincha mahalliy dostonchilik maktablarida do'bra sozi jo'rnavoz siyratida qo'llanilsa, Xorazm dostonchiligida dutor, tor so'zlaridan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytishda ijrochilik ansambli qatnashadi. Bunda ustoz bahshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar esa g'ijjak, bo'lamon va ba'zan doira sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

V) Xorazm dostonlari repertuarini «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Bozirgon», «Oshiq Oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq, Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub «Alpomish» namunasi uchramaydi. Xorazm dostonchiligining yirik vakillari Axmad baxshi, Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish joizdir. O'tmishda doston aytuvchilarni cho'yanda, ular ijro qiladigan yo'llarini noma deb yuritilgan.

Ergash Jumabulbulning quyidagi she'rida esa Nurota maktabi uslubiga oid dostonlar nomalari sanab o'tiladi:

Yigirma xil ohang bilan so'z aytib,

Yigirma xil noma do'mbra chertib

Xoh katta, xoh kichik eshitsa,

Har qanday odamni balqitib, eritib

Sherobod maktabining mashhur baxshisi Umrshoir Sarar o'g'li ijodiga mansub she'rda esa Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchiligidagi nomalar soni keltiriladi.

Ey do'mbiram kajakdor,

O'tiz ikki nomang bor,

Hammasi ham maftunkor,

Birin chalsam biri bor.

Deb, 32 noma borligi ta'riflanadi. Keyinchalik 60 ga yetkazilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, doston qo'shiqlari qadimdan nomalar deb yuritilgan.

Xorazm nomalari yirik xajm, kuy yo'nalishi, parada, lad va avjlari o'ziga hos yorqin uslubi bilan ajralib turadi.

Maxsus til irodasi, musiqiy nuqtai nazardan Xorazmda ikkita yirik dostonchilik uslubi mavjud. Ular bahshilarning iboralari bilan Shirvoniy va Eroniy yoki Janubiy yoki Shimoliy xorazm uslublari deb yuritiladi. Shirvoniy uslub o'z ichiga Hozarasp, Bog'ot, Yangi ariq, qo'sh ko'pir, Urganch, Xonqa, Shovot, Toshxovus viloyatining Ilonli, Ko'hna Urganch, Qoraqolpog'istonning To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlarini qamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Xiva shahri deb belgilash mumkin. Mazkur uslub nomalari 72 ta bo'lib, ular doston she'rlarining vazni, bo'g'inlariga ijrochi bag'shini ovoz imkoniyatlariga qarab o'qiladi.

Eroniy uslub Gurlan tumanining bir qismini qoraqolpog'istonning Amudaryo, Xo'jayli Toshxovuz viloyatining shimoliy tumanlarini o'z ichiga qamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Mang'it shahri deb belgilash mumkin.

Ustoz baxshilarning fikricha musiqiy mohiyatga ko'ra shirvoniy uslub 72, eroniy uslub 32, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarining Sherobod maktabi 64 nomadan iborat.



Xulosa qilib aytganda doston ijrochiligi o'zbek musiqa san'atining ajralmas bo'lagidir.

### **O'zbek xalqining folklor san'ati**

O'zbek xalqining musiqiy merosini jumladan folklor san'atining ildizlari qadim-qadimlarga bog'lanib ketadi. U o'zining xalq ijodi, xamda kuy tuzilishi jihatdan rivojlangan ashula va cholg'u musiqiy ijrochiligini o'z ichiga oladi. O'zbek musiqa folklori mehnatkashlarning orzu-umidlari, ularning turmushi va axloqi, sotsial va milliy ozodlik uchun kurashining ifodasi sifatida gavdalanadi. O'zbek xalq musiqasining mavzu jixatidan serqirraligi, janrlarga boyligi va xayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi ham ana shu bilan bog'liqdir. O'zbek folklor musiqasi turmushda tutgan o'rniga muvofiq ikki guruxni tashkil etadi.

Birinchisi-ma'lum vaqt yoki ma'lum muddat sharoitda ijro etiladigan ashulalar va cholg'u kuylari. Bular: oilaviy marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylardir. Ikkinchisi-istalgan ijro etiladigan lapar, yalla, ashula, qo'shiq, cholg'u kuylari, cho'lama va dostonchilik kuylar kiradi.

Folklor qo'shiqlar har bir kasbning o'ziga xos faoliyati natijasidan kelib chiqadi. Xalqning turmush tarzi bilan bog'lanadi. Mehnat qo'shiqlari: qo'sh qo'shiqlar, o'rim qo'shiqlar, yorg'inchoq qo'shiqlar bo'lsa, chovachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari: «Xo'sh-xo'sh», «Turey-turey», «Churey-churey» kabi nomlar bilan yuritiladi. Xunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari charx qo'shiqlari va xokazo. Marosim qo'shiqlari folklorshunoslikning eng muxim omillaridan xisoblanadi. O'zbek xalqi barcha xalqlar kabi juda qadimiy boy, xilma-xil an'analarga ega. Marosim qo'shiqlari ikki turkumga ajraladi. Birinchisi-mavsum marosimlari bilan bog'liq folklor qo'shiqlari. Ikkinchisi-turkumdagi marosim, ommaviy turmush bilan bog'liq xolda ijro etiladi.

O'zbek xalqining folklor janrlari juda xilma - xildir. Har bir vohaning etnik joylashishiga, urf-odatiga qarab folklor janrlari va uslublari turlichadir. Farg'ona vodiysida lapar ko'proq ijro etilsa, alla, yor-yor ijrolari turlicha ijro etiladi. Terma, o'lan ijrolari ham har-xil uslubida ijro etiladi. Alla ijrosi xalq orasida juda keng tarqalgan ijrodir. Allaning har bir bandidan keyin «Alla bolam alla», «Jonim, bolam, alla» misralar takrorlanadi. «Yor-yor» o'zbek nikoh to'ylari folklorining musiqiy janrlari xisoblanadi. «Yor-yor» nafaqat o'zbeklarda, balki qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq kabi turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan. Masalan:

Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor-yor,  
Qizni olib yangalari o'tlanadi, yor-yor,  
Qizni olib yangalari tura tursin, yor-yor,  
Oq sut bergan onalari rozi bo'lsin, yor-yor.

Mustaqillik yillarida folklor-etnografik ijodiy jamoalarning ijodiy faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Mustaqillik va Navro'z bayramlarida folklor-etnografik ansambllarining katta sahnalarga chiqish an'ana tusini oldi. Jumladan, bugunga kelib folklor-etnografik ansambllarining umumiy soni 300dan ortib ketganligi qayd qilinmoqda. «Besh qarsak», «Boysun», «Gulyor», «Omonyor», «Gulchehralar», «Doston», «Besperde», «Orzu», «Yor-yor», «Chavgi», «Mohi



sitora» va boshqa ko'plab ansambllar milliy-badiiy merosni, an'analarni o'rganib, yangidan xalqimizga yetkazmoqdalar. Ayni paytda, musiqiy folpklorning xalq ma'naviy xayoti va turmush tarzidagi tabiiy ko'rinishi ham davom etmoqda. Xar bir viloyat bu soxada o'zining ijrochilik uslubiga va ust kiyim bosh ko'rinishiga ega bo'lmoqda va har xil ko'rinish va jihatlari bilan yangi-yangi ijodiy yutuqlari bilan namoyon bo'lmoqdalar.

O'zbek xalqining musiqqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, anhanaviy kasbiy musiqqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folpklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lgi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli anhanalarimizga bo'lgan ehtibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan ehtibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boylklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan mahlum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, anhanaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida ehtirol etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqqa ularga hamroh bo'lgan.<sup>1</sup>

Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lgi bo'lgan, otabobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, anhanaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anhanaviy musiqqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Ashula, musiqqa, raqs, folpklor ijrochiligi sanhati milliy musiqqa sanhatining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy sanhat turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning anhanaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham

---

<sup>1</sup> Қўлланманинг мазкур бобини тайёрлашда Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби, профессор Равшан Юнусов материалларидан фойдаланилди.





«labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy sanhat bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va sanhatkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi.

Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma'naviy jabhalarning barcha yo'nalishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'ziga xos o'rini baholash, uning tahsirchanlik kuchini mustaqillik mafkurasi tomon yo'naltirish uning bosh mezonini ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko'ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo'liga yo'naltirilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folpklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Chunki bahzi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy tahsirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham ehtirol etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa sanhatimizni ilmiy ravishda o'rganish, folpklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli tahsir etdi.

Bu borada V.A. Uspenskiy, Ye.E. Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zarur bo'ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortopiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Natijada, o'zbek xalq musiqalari, qo'shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jildan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko'rdi.

So'nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko'rinishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o'tgan davrlar mobaynida ilm fan, sanhat, jumladan, musiqiy madaniyat sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini ehtirol etish zarur. Yaqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, musiqa ilmi, tahlimi singari sohalarni olish mumkin.



Shu o'tgan davrlarning salbiy oqibatlarini sifatida hayotimizning o'ta siyosiy lashtiriluvini, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, uning toptalishiga yo'l qo'yilishi, xalqchil yo'nalishlarga bepisandlik munosabatida bo'lish, azaliy xalqaro madaniy aloqalar rivojlanishiga sunhiy to'siqlar qo'yilishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi zamon o'zbek musiqqa ijodiyoti serjabha va ko'lami keng, usluban boy va rang-barang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob anhanalarga ega bo'lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo'nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demakki, asrlar osha bizgacha yetib kelgan ardoqli navobaxsh merosimiz qatori bir necha avlod ijodkorlarining ko'rkam musiqiy anhanalari madaniy-ma'naviy mulkimizga aylandi. Har qanday sanhat turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xususan, 20-yillardan ehtiboran kompozitorlikka xos ifoda vositalarining izchil joriy etila boshlanishi musiqiy madaniyatimizda musiqqa ijodkorligining yangi tizimi barpo etilishidan dalolat berdi.

Tabiiyki, tez orada o'zbek xalq ijodiyoti, anhanaviy bastakorlik hamda havaskorlik singari o'zaro chambarchas bog'liq qatlamlar bilan uzviy bog'liq ravishda milliy qadriyatlarimizga, «noanhanaviy» kompozitorlik ijodkorligi muhim tarmoq sifatida qo'shiladi. Umumbashariy madaniy taraqqiyotga mos ravishda mazkur jabha o'lkamizda tarixan juda qisqa muddat ichida uzil-kesil shakllanib, samarali rivoj topganini alohida ehtirol etish lozim.

G'arbiy va Sharqiy Ovrupa mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanibgina qolmay, o'zgacha yaratuvchanlik qonun-qoidalarini o'zlashtirish, uni o'zbek xalq musiqasining boy imkoniyatlari bilan mohirona payvand qilish maqsadida ilg'or kompozitorlarimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq mintaqasi doirasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar.

Yangicha musiqiy uslubda noyob zamonaviy asar yaratish, jahon xalqlari musiqasi rivojlanishini hisobga olib, tobora yangidan - yangi ijodiy ufqlarni ochib berish bilan tavsiflanuvchi baynalminal jarayonga O'zbekiston o'z munosib ulushi bilan dadil kira oldi. Kasbiy ulg'ayish bosqichlarini tezkorlik bilan o'tab, har tomonlama yetuklik pallasiga ko'tarilishi bilan «O'zbek kompozitorlik maktabi» dunyo musiqqa madaniyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga intildi.

Asosan XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ana shunday ijodga moyillik darajasi ilgari ayricha holda bo'lgan ikki toifadagi musiqiy tafakkur anhanalarining o'lkamizda uzviy mushtarakligiga erishilganligi bilan ham xarakterlanadi. Shu boisdan ko'p ovozlik uslub ila bunyod etilgan turli janrlardagi badiiy jihatdan barkamol, mumtoz asarlar ma'naviy qadriyatlarimizning jahonshumul salohiyatini yanada oshirdi.

Musiqiy madaniyatimizning yangi yo'nalishi bo'lgan o'zbek simfonik musiqasi 70-80-yillarda peshqadam safga chiqib olganini eslab o'taylik. Bu o'rinda respublikamizda, qo'shni va qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan nufuzli madaniy tadbirlar, konsert, ko'rik-tanlov hamda festivallarda katta muvaffaqiyat bilan ijro etilgan o'zbekona poemalar, syuitalar, uvertyuralar, fantaziyalar, cholg'u



konsertlar va simfoniyalar xalqaro musiqa jamoatchiligi diqqat-ehtiborini qayta-qayta o'ziga jalb qilgan.

Bugungi kunda o'zbek musiqa sanhati nafaqat asl an'anaviy ko'rinishlarida, balki kompozitorlik yo'nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Bu mahnoda sof cholg'u musiqasi, xususan, uning ancha murakkab sanalmish simfonik ijodiyoti alohida ehtiborga molik. Endilikda respublikamiz kompozitorligi shunchaki xilma xil musiqa janrlarida yozish va izlanish tajribalaridan iborat bo'lmay, balki noyob anhanalariga, mumtoz namunalar xazinasiga ega sermahsul oqimdir. Uni turli yillarda xalqchil kuy ohanglar zaminida yaratilgan noyob va betakror asarlar tashkil etadi. Zero, har qanday andozada bastalangan musiqaning milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, tahsirchanlik kabi fazilatlarini hamisha qadrlidir.

Yuksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy anhanalarga tayanib yaratilgan asarlarning umri boqiyiligini birgina o'zbek simfonik musiqasi misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Jumladan, 30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan Aleksey Kozlovskiyning ovoz va simfonik orkestriga moslashtirilgan ehtirosli «Tanovar» poemasi, «Lola» syuitasi, Reyngolpd Glierning «Farg'ona bayrami» shodiyona uvertyurasi tinglovchilarga hamon olam-olam zavqu shavq bag'ishlab kelmoqda. Simfonik orkestr ishtirokida ijro etishga mo'ljallangan o'lmas kashfiyot darajasidagi asarlar orasida Mutal Burhonovning yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Alisher Navoiyga qasida»si, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushelp, Sulaymon Yudakovlarning qator simfonik asarlari, Doni Zokirovning «Lirik poema»si, Boris Nadejdinning «Bolalarga» syuitasi, Ikrom Akbarovning «Shoir xotirasiga», «Epik poema»lari, «Samarqand hikoyalari» turkumi, Sayfi Jalilning «Samarqandnoma» simfoniyasi, To'lqin Qurbonovning simfonik kuylari, Mirsodiq Tojievning «Shoir sevgisi» poemasi va 19 ta muhtasham simfoniyalari, Mirxalil Mahmudovning 3 ta simfoniyasi, Nurilla Zokirov, Mustafo Bafoev, Rustam Abdullaev, Habibullo Rahimov, Bahrullo Lutfullaev va boshqa ijodkorlarning yutuqlari musiqiy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Zaminimizdagi musiqa sanhatining rivoji uch ming yilga borib taqaladi. O'tgan bu zalvorli davrlar mobaynida musiqiy madaniyatimiz juda ko'p marta o'zining uzoq rivojlanish davrini bosib o'tdi va xalqimiz ma'naviy boyligining negizi sifatida ezgulik va taraqqiyot uchun xizmat qildi. Shuning uchun ham biz juda boy, rang-barang, ko'lami keng, usluban xilma xil, qiymati chin mahnoda bebaho darajali ulug'vor musiqiy merosga egamiz.

O'rta asrlarda faqat mumtoz ijodkorlik qatlamida «O'n ikki maqom»dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha yetib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, anhanaviy ijrochilik va surnay yo'llari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik sanhati musiqiy madaniyatimizning sarchashmalari sifatida bahramand qilib kelmoqda.

Diniy-falsafiy ashulalar masalasiga kelsak, bular, avvalo bizning tarixiy boyligimizdir. Kingadir g'ayri tabiiy tuyulsa ham, bu yo'nalishga to'siq bo'lmaslik aslida ozodlik, erkinlik, yuksak madaniyatga xos chinakam demokratik tamoyillarning amaldagi yaqqol ifodasi bo'lsa kerak. Chunki mumtoz sharq



shehriyatida bitilgan ilohiy, tasavvufona mavzular o'tmish musiqamizda o'zining ohanrabo, tahsirchan ifodasini topgan va qadrlangan. Bunday ashulalarning o'z tinglovchilari, asosan, keksalar orasida shinavandalari, muxlislari bor. Buni albatta, hisobga olish zarur bo'ladi.

Kezi kelganda shuni ham ehtirol etish kerakki, Ovro'paga turdosh zamonaviy musiqqa ijrochiligi bo'yicha, jumladan, fortepiano, torli, damli va zarbli cholg'ular, akademik uslubdagi xonandalik ixtisosliklaridan ko'plab iqtidorli yosh musiqachilarimiz voyaga yetmoqda. Ularning aksariyati respublika va chet mamlakatlarda nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etishib, g'olib va sovrindorlikni qo'lga kiritishayotgani quvonarli holdir.

?	<b>NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:</b>
---	---------------------------------------------

1. Ma'lum vaziyat aytimlari.
2. Oilaviy marosim kuy-qo'shiqlari.
3. Mavsumiy marosim aytimlari.
4. Mehnat qo'shiqlari
5. Musiqashunos olimlar o'zbek xalq musiqqa ijodi namunalarini ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va bajarayotgan vazifalariga ko'ra necha guruhga tasnif etadilar:
  6. Ijro etilishi ma'lum sharoit va vaziyatlar bilan shartlangan kuy-qo'shiqlarga nimalar kiradi
  7. Istalgan "vaziyat" yoki erkin mavzuli kuy – qo'shiqlarga nimalar kiradi.
  8. Qo'shiq nima
  9. Terma nima
  10. Lapar nima
  11. Yalla nima
  12. Ashula nima.
  13. Katta ashula nima
  14. Maqom nima
  15. Oilaviy marosim qo'shiqlari nima
  16. Marosim nima
  17. Mavsumiy qo'shiqlar nima
  18. Mehnat qo'shiqlari necha turga bo'linadi
  19. Chorvadorlik qo'shiqlari nima
  20. Dehqonchilik qo'shiqlari nima;
  21. Hunarmandlik qo'shiqlari nima
  22. Dostonchilik maktablari.
  23. "Doston" so'zi qaysi tildan olingan va mahnuosi nima
  24. «Alpomish», Go'ro'g'li turkum dostonlari deganda nima tushunasiz.
  25. «Baxshi» so'zi ma'nosi nima
  26. O'zbek dostonchiligida doston kuylash an'anasi qadimda uch yo'nalishda rivojlangan. Ular qaysilar.



27. Xorazm dostonchiligi
28. O'zbek dostonchilik an'anasi

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T.1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.1997
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.: Sharq 1998 y-182 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. T.: O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y 1-3 betlar.
5. Karomatov F.M. O'zbek xalq muzika ijodi tarixi. 1-qism, 1972, 1981, 2-qism.
6. Ibroximov O. O'zbek xalq musiqqa ijodi. 1994 y. 81 b.
7. Panjiev Q. O'zbek xalq musiqqa ijodi. O'quv qo'llanma. 2020 y. 274 b.
8. Odilov A., Lutfullaev A. Musiqqa asboblari – «Chang». Toshkent, 2002
9. Qosimov R. Musiqqa asboblari – «Ud». Toshkent, 2002.
10. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002.
11. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent, 1997.
12. Toshmuxamedov M. G'ijjak darsligi. Toshkent, 1996.
13. Petrosyans A. Instrumentovedenie «Uzbekskie narodnye instrumenty». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.
14. M.Asilov, F.Vasilev. Toshkent, Dutor darsligi. 1987.
15. Abdukarimov M. "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2005 y. Lutfullaev A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.:



## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

**1-amaliy mashg'ulot: Musiqqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari. Musiqqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.**

### Reja

1. Musiqqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari.

2. Musiqqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.

**Tayanch tushunchalar:** g'oya, nazariya, taraqqiyot tendensiyalari, tamoyil, konsepsiya, qonuniyatlar, taraqqiyot, tarix, musiqiy taraqqiyot.

1. Musiqqa ta'limining g'oyalari, nazariyalari, qonuniyatlari va tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari. Musiqqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar, yangilanishlar o'zining ko'lami va ahamiyati bilan muhim voqea sifatida tarixda muhirlanib qolmoqda. Ayniqsa, Respublikamizni mustaqil hayot kechirishi, tenglar ichra tengligi, o'zining kelajagini qurishda ildam qadam tashlab borayotganligi bugungi globallashuv jarayonida o'zining mustaqil rivojlanish yo'lidan sobit qadam tashlab, butun dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

2. **Musiqqa ta'limining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari. Jumladan, musiqqa** ijrochiligida tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi xususida xorijiy adabiyotlar (tahlili, ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari). Mumtoz musiqani o'rgatish uslubining zamonaviylashtirilishi. Ta'lim tizimida cholg'u ijrochiligini o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalar. Musiqiy asarlarni o'zlashtirishda ijrochilikning an'anaviy va zamonaviy uslublar. Repertuar tanlash va cholg'u ijrochilarini tayyorlashda individual yondashuv masalalari. Mashhur cholg'uchilarning ijodi. Ular yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari.

Professional ijrochilik o'zining mukammalligi, har bir kuyga oqilona yondashishi bilan ajralib turadi. Mukammalligi shundaki: ijro paytida o'zini tutishi, har bir shtrix, har bir zarb, har bir parda o'z o'rnida bo'lishi; har bir kuyga oqilona yondashishini shunday izohlash mumkin: cholg'uchi ma'lum bir kuyni ijro etishdan oldin yaxshilab o'rganib chiqadi, kuyning murakkab jihatlari, pardalari, tarixiy kelib chiqishi, ruhiyatidan kelib chiqib, ijodiy yondashadi.



Havaskor ijrochilik esa aksincha, sahnada o'zini tutishi, kuyning ba'zi jihatlari, unsurlarini sezmay tashlab ketishi, shtrix va zarblarini poyma-poy ketishi, chalayotgan kuyga xos bo'lmagan pardalarini ijro etishi bilan farqlanadi.

### **Mashhur cholg'uchilarning ijodi.**

Mashhur cholg'uchilarning ijodi bilan talabalarni tanishtirib borish ham ustoz sozanda zimmasidagi vazifalardan biridir. Har bir kuyni ijro etishdan oldin ushbu kuyni mashhur ijrochilari, ijrochilarning qaysi maktab vakillari ekanligi haqida gapirish ustoz uchun ham qarz, ham farzdir. Bu ijrolarni magnit yozuvlarini eshitirib, dars o'tilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Mashhur cholg'uchilar yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifa yana ustozlar zimmasiga yuklatiladi. Har bir berilgan kuyni ijrochi ustoz kayfiyati chog' paytida uz uslubida ijro etib, magnit tasmalariga yozmog'i kerak. Ushbu berilgan kuyni boshqa ijrochilar, boshqa ijrochilik maktabi vakillarini ham magnit yozuvlarini topib talaba sozandaga navbatma-navbat eshittirib, ustoz ijrochilik maktablarini farqini, yutuq va kamchiliklarini aytib talabaga tushuntirsa ustoz-shogird tizimining zamonaviy ko'rinishi bo'ladi.

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida musiqiy avangardizmni o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.



Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### **Guruhda ishlash qoidalari**

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

### **Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

1. Individual o'qish-2 minut.
2. Muhokama qilish -3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

### **2-amaliy mashg'ulot: Metodologiya va zamonaviy metodologik yondashuvlarni tanqidiy tahlil va tasniflash. Musiqqa ta'limi fanlari integratsiyasi natijasida shakllangan soha tarmoqlari va ularning ilmiy-tadqiqot metodlari va ularni rivojlantirish strategiyalari.**

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida mashhur cholg'uchilarning ijodi; mashhur cholg'uchilar yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalarini tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

O'qituvchi talabalarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini





aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### Guruhda ishlash qoidalarini

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga

cho'kamiz.

### Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

1. Individual o'qish-2 minut.
2. Muhokama qilish –3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

### Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Mashhur rubob cholg'uchilaridan kimlarni bilasiz?		
G'ijjakda an'anaviy ijro bilan akademik ijroning nima farqi bor?		



An'anaviy cholg'u ijrochiligida qaysi zarbli cholg'ular ishlatiladi?		
----------------------------------------------------------------------	--	--

### Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Mashhur g'ijjak cholg'uchilaridan kimlarni bilasiz?		
Rubobda an'anaviy ijro bilan akademik ijroning nima farqi bor?		
Akademik cholg'u ijrochiligida qaysi zarbli cholg'ular ishlatiladi?		

2-ilova

### Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblar-ning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

### 3-amaliy mashg'ulot: Musika ta'limi ukituvchilarini tayyorlashning ilmiy-tadqiqot masalalari. Musika ta'limi ukituvchisiga kuyiladigan zamonaviy talablar.

Ilm-fan, texnika, ishlab chikarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat xayotining barcha soxalarida tarakkiyotining yangi istikbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat kurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilgor yondashuvlarning karor toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning moxiyati sunggi yillarda umumiy tarzda "modernizatsiyalash" tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmokda. Birok, ilm-fan, texnika, ishlab chikarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat xam rivojlanishning muayyan boskichidan yanada takomillashgan boskichga utadi. Falsafiy talkinda ifoda etganda mikdor uzgarishlari tub sifat uzgarishlariga aylanadi. Urta asrlarda agrar xarakter kasb



etgan jamiyat ilm-fan, texnika, san'at va ishlab chikarishning rivojlanishi bilan industrial jamiyatga aylandi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochik fukarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi negizida jamiyatning ijtimoiy katlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir buladi. Jumladan, ta'lim soxadagi yangilanishlar xam shular jumlasidandir. Ta'lim tizimini yangilash - jamiyatning ijtimoiy, iktisodiy va madaniy extiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bulgan talabini kondirish, ta'lim tizimini barkaror rivojlanishini ta'minlash maksadida mavjud mexanizmning kayta ishlab chikilishi yoki takomillashtirilishini talab kiladi. Mazkur innovatsion jarayon shaxsni ukitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saklab kolgan va boyitgan xolda majmuaviy xarakter kasb etib, ta'lim tizimining barcha soxalarini tula kamrab oladi va jamiyatda karor topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi extiyojni kondirishga xizmat kiladi. Ta'lim tizimining innovatsion ta'lim jarayonida kuyidagi ustuvor vazifalar xal kilinadi:

- xar bir musika kasbidagi shaxsning tulakonli ta'lim olishida boshkalar bilan teng xukukliligi va ta'lim olishning ochikligini ta'minlash; - uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat kursatkichlariga erishish;

- yangi ta'lim resurslarini jalb kilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy-xukukiy va tashkiliy-iktisodiy mexanizmlarni shakllantirish;

- davlat va jamiyatning kullab-kuvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy makomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;

- musika ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshkaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofik ta'lim jarayoni ishtirokchilari - talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirish.

Barcha davlatlarda bulgani kabi Uzbekistan sharoitida xam ta'lim tizimini modernizatsiyalashda davlat, jamiyat, maxalliy va ijtimoiy tashkilotlar, yukori xamda kuyi boshkaruv organlarining urni va roli, ular urtasidagi uzaro birlik, xamkorlik muxim axamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini innovatsion ta'lim resurslari asosida kayta kurishda, uning ustuvor yunalishlari kuyidagilar sanaladi:

- elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish;

- ukitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini uzaro muvofiklashtirish;

- musika san'atining ukuv xamda mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan mustakillik uzlashtirilishi uchun kulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Musika ta'limining tasnifi, konuniyatlari, tamoyillari va mezonlarini kuyidagi kurinishda tasavur etish mumkin. Ayni vaktida Respublika ijtimoiy xayotiga



shiddatli tezlikda axborotlar okimi kirib kelmokda va keng kulamni kamrab olmokda. Axborotlarni tezkor sur'atda kabul kilib olish, ularni taxlil etish, kayta ishlash, nazariy jixatdan umumlashtirish, xulosalash xamda talabaga yetkazib berishni yulga kuyish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri xisoblanadi. Musika ta'limi-tarbiyasi jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbik etish yukorida kayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy xal etishga xizmat kiladi. Avvalam bor texnologiya (yunon. "techne" - maxorat, san'at, "logos" - tushuncha, ta'limot) - muayyan (ishlab chikarish, ijtimoiy, iktisodiy va b.) jarayonlarning yuksak maxorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi (ingl. "an educational technology") - ta'lim (ukitish) jarayonining yuksak maxorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi - ta'lim maksadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyixalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, boskichma-boskich amalga oshirish, anik maksadga erishish yulida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chikish, ulardan samarali, unumli foydalanish xamda ta'lim jarayonini yukori darajada boshkarish Ta'lim metodi - ukuv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yunaltirilgan ukituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bulsa, ta'lim metodikasi esa muayyan ukuv predmetini ukitishning ilmiy asoslangan metod, koida va usullar tizimi. Ukituvchining samarali faoliyat kursatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chikishdan farkli ularok, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yunaltirilgan bulib, u talabalarning shaxsiy xamda ukituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan xolda, ukuv materiallarini mustakil uzlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat kiladi. Musika ta'limi texnologiyasining markaziy muammosi - ta'lim oluvchi shaxsini yanada rivojlantirish, kasbiy (ijodiy) kobiliyatni rivojlantirish orkali ta'lim maksadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Musikiy pedagogik texnologiya nazariyasi utgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bulsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbik kilinadigan muayyan pedagogik tizim loyixasi" deya ta'riflaydi xamda asosiy dikkatni ukuv-pedagogik jarayonni oldindan loyixalashga karatadi. Musikiy pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini kuzlagan ukitish va boshkalarni uzlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi xarakterlari vositasida yaratish, tadbik etish va aniklashning izchil metodi (YuNESKO). Uz moxiyatiga kura musikiy pedagogik texnologiya vakt taksimotiga muvofik dasturlanib, ilmiy jixatdan asoslangan xamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha boskich va kismalarining vazifalari anik belgilangan tizimni ifodalaydi. Musik ta'lim tizimini texnologiyalashtirish Foyasi utgan asrning boshlarida Farbiy



Yevropa va AKShda ta'lim tizimini islox qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy xarakterga kelgan davrda ilk bora urtaga tashlandi. Mazkur Foya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi "ukuv mashFulotlarini anik va samarali tashkil etishga kumaklashuvchi usul va vositalar yivindisi" tarzida talkin etildi xamda ukuv jarayoniga ukuv va laboratoriya jixozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini kursatmali kurollar yordamida tushuntirish kabi xolatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baxolandi. XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni kullash "ta'lim texnologiyasi" yunalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sigimini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga karatildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuktasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni kabul kilindi, shuningdek, ukuv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jixatlarini urganishga aloxida urFu berildi. 60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining moxiyatini ochib beruvchi omil sifatida kurila boshlandi. Dasturiy ta'lim talabalarga muayyan bilimlarni aloxida kism xolida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, makbul dasturga muvofik tashkil etish taklifi ilk bora AKShda faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va urgatuvchi mashinalar buyicha birlashgan Kumita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim uzida ta'lim maksadlari, ularni uzgartirish va baxolashning mos ravishdagi mezonlari xamda ta'lim muxitining anik tavsifini kamrab oladi. Bu esa uzgartirish majmuasini tulaligicha kayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi.

Musika ta'limida nazariy asoslari, Foyalari, gipotezalari, konuniyatlari va tamoyillari bir necha jixatni uzida aks ettiradi:

Birinchi, musika ta'limi va tarbiyasi xamda yuksak ijrochilik maxoratiga ega shaxs kamoloti (tarakkiyoti) birligi;

ikkinchi musikiy pedagogik texnologiyaning muayyan, kat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu urinda xam ma'lum musikiy fanini ukitish jarayoniga, xam umumiy ta'lim jarayoniga xosligi;

uchinchidan, asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning urganish ob'ekti, ichki moxiyati va xususiyatlariga kura turli yunalish (modul)larga bulib urganish



afzalliklarini ifoda etadi.

Ukuv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Xar bir ukuv fani uning uchun “yadro”, “uzak” sanaluvchi axborotlarga ega bulib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining urganilishi, anik mutaxassislik buyicha mustakil bilim olish, uzlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yulida tayanch tushunchalar bulib xizmat kiladi. Bunday yondashuv ma'lum yunalish buyicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo alokadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini xam beradi. Ukuv fanlarining muayyan yunalishlar tarzda biriktirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zurikishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash kuvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelshini ta'minlaydi. XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarga mavjud fanlar soxalari buyicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talkin etilgan balsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi uzlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, anik fan buyicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bulish uchun kulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi.

Musika madaniyatni anglash (madaniy xayotning rivojlanishiga muvofiklik) tamoyili nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bulib, bugungi kunga kadar xam uz axamiyatini yukotmagan. Musika madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy tarakkiyoti darajasidan kelib chikib ta'lim berilishini nazarda tutadi. Utgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va maxorati e'tirof etilgan balsa, bugungi kunda ukituvchining bilimi, saloxiyati xamda maxoratining yukori darajada bulishi bilangina muvaffakiyatlarni kulga kiritib bulmasligi barchaga ayon. Mazkur urinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iktisodiy tarakkiyotining e'tiborga olinishi muxim axamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar “soxa (yoki yunalish)larning uziga xos jixatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chukur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda anik vazifalarni xal etishga ulgurishlari xamda ma'lum yutuklarga erisha olishlari” Foyasi yetakchi urin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

Musika ta'limi mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan xar ikki tushuncha xam luFaviy jixatdan (yunon. “humanus” - insoniylik, “humanitas” - insoniyat), bir uzakka ega balsa-da, ularning xar biri uziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida urganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshkalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Musika san'ati vositasida esa insonparvarlashtirish - inson



va jamiyat urtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning kadr-kimmati, sha'ni, or-nomusi, xukuk va burchlarini xurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bulsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (tarakkiyoti) uchun” degan Foya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Musika ta'lim jarayonini loyixalashtirishda xar bir ukituvchi ushbu tamoyilga kat'iy amal kilishi lozim yoki uz mutaxassisligiga oid muammolarni xal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uYFun bulishiga e'tibor berishi maksadga muvofikdir. Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar (yakka xokimlik) tarzida boshkarmay, balki ta'limiy xamkorlik Foyalariga sodiklik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshkacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal kilinishini ta'minlaydi. Ushbu xolat uz navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Urganib tadmik etish, tadmik etib ukitish tamoyili. Ushbu tamoyil kuyidagi ikki jixatni yoritishga xizmat kiladi: 1) ta'lim muassasalarining xar bir ukituvchisi uz fani soxasiga talabalarni jalb kilgan xolda tadmikotlarni olib borishi lozim; 2) ukituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chikadi, uni amaliyotda sinab kuradi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadmik etadi. Ukitish jarayonining mazkur ikki jixati muxim axamiyatga ega bulib, u ukituvchining kasbiy xamda pedagogik maxoratini oshirib borishga va talabalarni bulajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Musika ta'limining uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlariga ega bulishlari, mavjud sifatarning xayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun askotishi mumkin bulgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar xar besh-un yil mobaynida uzgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil ukituvchining uz faoliyatida mustakil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarning mustakil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bogaikdigiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi kuyidagi ikki xil ma'noda izoxlanadi: a) ta'lim oluvchilar uzlashtirishi lozim bulgan bilimlar; b) ular tomonidan uzlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida kullaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar. Bilimlar faoliyat jarayonida mustaxkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda kullay olish iktidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbikiga ega bulmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi. Musikiy ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baxolash xam muxim axamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chikkan xolda ularni amaliyotga tatbik



etishning samaradorligini bir kator mezonlar bilan aniklash mumkin. Ular quyidagilardir:

- ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining uzida yaxlit as ettira olishi;
- uzida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi;
- Foyaviy jixatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi;
- ukuv materialining zarur axborotlar bilan tulik ta'minlanganligi;
- ukitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni kullash imkoniyatini ta'minlanganligi;
- ta'limning kurgazmaliligi va barcha uchun ochikligini ta'minlash tamoyiliga egaligi;
- kup funksiyali ta'lim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatatsiya kilish imkoniyatining mavjuligi;
- pedagogning talabalarga mustakil ishlarni samarali tashkil etishga kumalashish darajasi Ukitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali kullash pedagogning kasbiy kompetentligiga xam bog'liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning kullanilishiga kura xam baxolash mumkin. Bunda quyidagi mezonlar muxim axamiyatga ega:
  - pedagogning texnologik madaniyatga egaligi;
  - pedagogning pedagogik texnologiyalarni kullash borasida tajribaga egaligi;
  - pedagog tomonidan pedagogik texnologiyalarga "ijodiy" uzgarishlar kiritilishi va ularning kayta shakllantirilishi;
  - pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbik etishda ukitiuvchi va talabalar urtasida uzaro xamkorlik negizida muvaffakiyatli vaziyatlarning karor topganligi;
  - pedagogik texnologiyalarning tarkibiy kismlari urtasidagi uzaro alokadorlik;
  - pedagogik texnologiyalarning talabalar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashdagi imkoniyatlarga egaligi;
  - talabalar ukuv-bilish faoliyatining ijobiy axamiyat kasb etishi

Mustakillik yillarida Uzbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish yulida olib borilayotgan isloxotning muxim yunalishi sifatida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan e'tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi ukitiuvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol kullanilishi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida kullanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bulishkuyidagi shartlar asosida ta'minlandi.

Uzbekiston Respublikasida 2017 yildan barcha soxalarda bulgani kabi ta'lim tizimida xam rivojlanishning yangi boskichiga kutarilishi boshlandi. Ta'lim





tizimida olib borilayotgan keng islohotlar ukituvchining uz ustida ishlashi, yangilik va innovatsiyalarga bulgan talabni bir kadam oshirdi. Xar bir ukituvchining shaxsiy, tabiiy va individual xususiyatlari bulib, xozirgi zamon ukituvchisi mutaxassisligi modelini loyixalashtirish lozim. Ukituvchi mutaxassisligi modelini umumiy va yagona xolda tuzish, eng muximi uning uz xususiyatlarini rivojlantirishi, uziga xosligini saklab kolishi, uz kizikishlariga muvofik xolda ilgarigi intilishiga imkon berish zarur. Mazkur masalada kup yillardan buyon ilmiy izlanishlar olib borilmokda, lekin musika ukituvchisi mutaxassisi modelini yaratish va uni amalda kullash buyicha olib borilgan ishlar xali yetarli emas deb xisoblaymiz, chunki davr, zamon, tarakkiyot uzgarishi musika ukituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasiga kuyiladigan talablarni uzgartirishni va takomillashtirish zarurligini kursatmokda. Mazkur mavzuning asosiy maksadi xam xuddi ana shundadir. Ushbu jaryonlar musika ta'limi ukituvchisiga kuyiladigan zamonaviy talablarni belgilab berdi desak mubolaFa bulmaydi. 2018-2019 ukuv yilidan Respublikamizdagi 15 ta OTMda san'atshunoslik fakulteti tashkil etilib, ularda musika ta'limdan tashkari "Cholg'u ijrochiligi" (turlari buyicha), va vokal ijrochiligi buyicha kadrlar tayyorlash yulga kuyildi.

Mutaxassis modeli bu - anik bir kasb buyicha mutaxassisning umumlashgan obrazli tuzilmasi bulib, u muayyan tarkibiy kislardan iborat buladi<sup>34</sup>. Uzluksiz ta'lim tizimining mazmuni va uning ilmiy- nazariy asosi bulgan Uzbekistan Respublikasining "Ta'lim tuFrisida"gi xamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tugrisida"gi Krnunlari ukituvchining umumiy, kasbiy, ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini zamon talablariga mos bulishini takozo etadi<sup>35</sup>. Shuni a'loxida e'tiborga olgan xolda ta'kidlash joizki uzluksiz ta'lim tizimi ukituvchisining mutaxassislik modeli singari ayni paytda umumiy urta ta'lim maktabi musika madaniyati fani ukituvchisining mutaxassislik modelini tuzish bugungi zamonaviy fan ukituvchisining barcha xususiyatlarini kuz oldimizga keltirish imkonini yaratadi. shu jumladan musika ukituvchisi model asosini pedagogga kuyiladigan talablar tashkil etib, u o'zida shaxsning eng yuksak fazilatlarini, pedagogik maxoratini, mutaxassislik nuqtai nazardan uz bilimi, ilmiy dunyokarashi, soxasi buyicha malaka va tajribaga egaligi, ukuvchilarni fan nuqtai nazardan ukita olish, tarbiya berish va ta'lim oluvchilar bilimlarini adolatli baxolay olish va nazorat kila olish kabi bir kator tarkibiy kislarni mujassamlashtiradi.

Ushbu masala yirik pedagog olim JT.Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida respublika ukituvchilari shaxsining kasb uchun axamiyatli xususiyatlari sifatida

---

<sup>34</sup>[www.Humanties/edu/ru/db/msg/](http://www.Humanties/edu/ru/db/msg/).

<sup>35</sup> Juraev R. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi umumiy urta ta'lim vazifalari // Pedagogik maxorat jurnali. 2/2001., 2-10 betlar.



kirishimlilik, xissiy barkarorlik, yetakchilik, ijtimoiy yetuklik, ishonuvchanlik, ijtimoiy jasorat, dadillik, mustakillik, uz- uzini nazorat kilish, kuzFaluvchanlik, taranglik kabi jixatlarni belgilab bergan<sup>36</sup>.

Nazarimizda, ukituvchining pedagogik faoliyatiga yordam beradigan fazilatlariga ilmga chankoklik, kirishimlilik, kamtarinlik, mexnatsevarlik, intizomlilik, fidoyilik, maxribonlik, bagrikenglik, odamoxunlik, xushmuomalalilik<sup>37</sup> kabi bir kator ijobiy shaxs fazilatlarini kiritish xam maksadga muvofikdir, chunki yukorida ta'kidlangan modelning tarbiyalay olish kismiga yukori darajali madaniyat va ma'rifat, shaxsiy odob namunasi, nufuzi, vatanparvarlik va burch xislari, gumanitar va gumanistik tayyorgarlik, ukuv tarbiyaviy ishlarning tashkili kiritilgan. Mazkur talablarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalar xisobga olinishi va anik belgilanishi kerak edi.

Bu ishda yangilik sifatida ukituvchining umumlashtirilgan modelida pedagogning ukita bilish va tarbiyalay olish vazifalarining ajratilishi aslida xali kup ilmiy yunalishlarga asos buladi, chunki bu ikki faoliyat yagona ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan, Shark pedagogikasida<sup>38</sup> bir butun xolda kullaniladigan faoliyat turi xisoblanadi. Shuningdek musika ukituvchisining mutaxassislik modeli, garchan bir necha bor tavsiya etilayotgan bulsada, undagi talablar ukituvchining mutaxassislik ixtisoslashgan modelini ochib berishda muxim axamiyatga ega.

Modelning ta'lim oluvchilar bilimni adolatli baxolay olish va nazorat kila olish tarkibiy kismiga talabalarning standartlangan testlarni ishlab chikish va kullay olish kiritilgan. Shuni kayd etish kerakki, musika ukituvchisining mutaxassislik modelida taxsil oluvchilarning uzlashtirgan bilim, kunikma va tajribalarini nazorat kilish va baxolash, ukuv-tarbiya jarayonidan olingan natijalarni taxlil kilish va mazkur jarayonning borishiga tegishli uzgartirishlar kiritishkabi yana bir muxim vazifasi kiritilgan bulib, u ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas va eng muxim zaruriy kismi sanaladi. Shu sababli, pedagogning ushbu tayyorgarligini uning metodik tayyorgarligidan ajratish mumkin emas.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, endilikda musika ukituvchisi modelida makom san'ati sirlarini egallash, uning struktura (tarkibiy) unsuri sifatida urin olishi shart bulib koldi.

Bu jarayonda san'atshunoslik, musikashunoslik, folklorshunoslik, pedagogika, psixologiya soxasidagi adabiyotlarni urganish, taxlil kilish, pedagogik

---

<sup>36</sup> Yuldoshev JT. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari: (yoxud ukituvchi bulish osonmi?). - T.: "Ukituvchi", 1998.- 208 b.

<sup>37</sup> Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axlok.-T.: "Ukituvchi",1992. -160b.

<sup>38</sup> Milliy istiklol Foyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (Uzbekistan faylasuflar jamiyati). - T.: "Uzbekiston", 2001. - 45-49 b.



kuzatish, ilFor ish tajribalarni urganish, kiyoslash, umumlashtirish tajriba-sinov va matematik statistika usullaridan keng foydalanildi. Respublikamizda tayyorlangan pedagoglarning umumlashtirilgan modelining taxlili va uning bugungi kun talabidan kelib chikkan xolda yana bir kator vazifalarni kuyilishi bejiz emas. Chunki butun dunyo ta'lim tizimida bulgani kabi, uzluksiz ta'lim tizimi oldiga kuyilgan talablar davr va zamon uzgarishlari bilan takomillashtirilib, yangi-yangi innovatsion Foyalarni asosida rivojlantirilib, kam mexnat sarflab, kuprok natija olish uchun xarakter kilinib boriladi. Bu xolat bevosita musika ta'limi ukituvchisining mutaxassislik modeli xususiyatlariga xam taalluklidir. Ukituvchilarning pedagogik faoliyatidagi asosiy masalalarni kiritish va ilmiy-pedagogik nuqtai- nazaridan kayta ishlash lozimligini kursatdi. Shu sababli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida xar bir fan ukituvchisi, shu jumladan, musika ukituvchisi mutaxassisligining pedagogik faoliyatidagi uziga xos xususiyatlarni xisobga olgan xolda zamonaviy modeli va unga mos xolda professiogramma tuzish zaruratini keltirib chikaradi.

Mazkur modelning asosini musika ukituvchisi tashkil kilib, u shaxs sifatida:

- yuksak ma'naviyatli va madaniyatli;
  - uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish uchun istikbol rejalarni ilgari surish va xal etishga kodir;
  - ijtimoiy-siyosiy xayotda mustakil xulosa kila oladigan va undan amaliyotda tuFri foydalanadigan;
  - uzida milliy istiklol mafkurasi va Foyalarini singdirgan;
  - jamiyat tarakkiyotiga munosib xissa kushadigan;
- shuningdek, yukori malakali rakobatbardosh pedagogik kadr sifatida:
- ijodiy va ijtimoiy faol;
  - Foyaviy va ma'naviy-axlokiyetuk bulishi;
  - mumtoz musikani tushunish uchun ijodiy tafakkuri bulishi;
  - uzbek musika merosining sarchashmasi xisoblangan makom asarlari xakida yetarlicha bilimga ega bulish va uni amaliyotda kullay olish darajasini egallaganligi;



Bu rasmda, umuman, ukituvchi modeli aks etgan, musika asarlarini egallash, shu jumladan, yangi talab - makom nazariyasi va amaliyotini egallagan shaxs ham aks ettirilishi kerak.

Professiogramma - bu mutaxassisning shaxsiy sifatleri va kasbiy faoliyat turlariga kiradigan kasbiy talablar va me'yorlarning ilmiy asoslangan xoldagi tavsifi<sup>39</sup>.

Professiogramma uzida modelning tarkibiy qismlari va ularni shakllantirishga asos buladigan bilim, kunikma va malakalarni uzida mujassamlashtiradi<sup>40</sup>. Shu sababli professiogramma muayyan pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun ukituvchidan amaliy va nazariy fikr yuritishni, ushbu jarayonni amalga oshirish uchun muayyan bilim, kunikma va tajribalarni, malakalarni uzlashtirishni talab etadi.

Nazariy fikr yuritish ta'lim-tarbiya jarayonidagi umumiy konuniyatlar, ya'ni pedagogik vazifalarni xal etishning prinsiplari va usullarini ishlab chikish, pedagogik jarayonlarni kuzatish, kuzatish natijalarini umumlashtirish, xulosa yasash, uz faoliyati bilan takkoshlash va uzi uchun zarur koidalarning kelib chikishiga zamin tayyorlaydi<sup>41</sup>.

Amaliy fikr yuritish asosan musikani ukitishning xususiy vazifalarini xal etishga karatilgan. Bu muayyan vaziyatlarni taxlil kilish, takkoshlash, umumlashtirish, xulosa chikarish, va muammoli vaziyatlardan chikib ketish kabi

<sup>39</sup> Yuldoshev JT. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari: (yoxud ukituvchi bulish osonmi?). - T.: "Ukituvchi", 1998. - 208 b.

<sup>40</sup> Yuldoshev JT. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari: (yoxud ukituvchi bulish osonmi?). - T.: "Ukituvchi", 1998. 102 -136 b.

<sup>41</sup> Ismoilov N. Milliy mentalitetning tub ildizi // "Mulokot" jurnali, 4/2001. - 29 b.



kunikmalarni uz ichiga oladi. Ukituvchining pedagogik faoliyati va maxorati darajasini, amaliy pedagogik vazifalarni xal etish jarayonining ilmiy-nazariy jixatdan tuFri asoslanganligi bilan belgilash zarur.

Musika fani ukituvchisi uz pedagogik faoliyatini taxlil kilib, ilmiy-nazariy asoslab, uziga ma'lum pedagogik prinsiplarni va uni amalga oshirish koidalarini ishlab chikadi. Pedagogning uz faoliyatini taxlil kilish, umumlashgan va pedagogik ta'sir kursatishning mantikiy ketma- ketligini ishlab chikishi, uning pedagogik maxorat chukkisini egallaganligini kursatadi. Pedagogik vazifalarni xal etish, pedagogik vazifalarni taxlil kilish, ya'ni ukituvchilardan akliy faoliyat usullari - tankidiy-taxlilii, mantikiy fikr yuritishni talab etadi.

Mazkur pedagogik faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonini asosiy buFinlarga ajratish va istikboldagi vazifalarni loyixalash kunikmalariga asoslanadi. Ukituvchining pedagogik vazifalarni yaxshi uzlashtirganligi, uz kasbdoshlarining ish tajribalarini tinmay urganishi, uz pedagogik faoliyati natijasini umulashtirish va muntazam taxlil utkazish, ta'lim- tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, ta'lim mazmuni xususiyatlarini xisobga olgan xolda samarali vosita, metod va shakllarini tanlashga imkon yaratadi.

Ukituvchilarning kasbiy tayyorgarligi taxlil kilinganda, uning ilmiy-nazariy, psixologik pedagogik, metodik tayyorgarligi nazarda tutildi<sup>9</sup>.

Kuyida musika ukituvchisining professiogrammasini tarkibiy kismlari va ularga mansub bilim, kunikma va malakalarni keltirib utamiz:

I. Musika ukituvchisining ilmiy-nazariy tayyorgarligiga asos buladigan bilim, kunikma va malakalar majmuasi:

- musika fanini ilmiy nazariy jixatdan chukur uzlashtirgan xolda uning nazariyalari, Foyalari, konuniyatlarining mazmun-moxiyatini bilishi, fanning rivojlanishi, fanda erishilgan yutuklar, yangiliklar, muammolar, ilmiy-tadkikot ishlari xamda izlanishlar natijalaridan xabardor bulib borishi;

- umumiy musikiy va xususiy tushunchalarni ajrata olishi, ularning musikiy ta'limda tutgan urnini, ukuvchilarda shakllantirish yullarini tasavvur kilishi;

musika ilmining umumnazariy va amaliy jixatdan shakllanishida ulkan xissa kushgan mutafakkirlarning ilmiy-nazariy, ma'naviy- ma'rifiy, madaniy meroslari xamda musika, musika ta'limi fani rivojiga salmokli xissa kushgan olimlarning ilmiy-tadkikot ishlarini bilishi va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish malakasiga ega bulishi.

Musika ukituvchisining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga asos buladigan bilim, kunikma va malakalar majmuasi:

didaktika va tarbiya nazariyasi Foyalari, ukitish konuniyatlari, prinsiplari, ukitish mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uygunligi, uzviyligi, ularning uzviyligini ta'minlash yullari bilishi va taxlil kila olishi;



ukitishning turli texnik-didaktik, audio, video, multimediya, OnLayn, prezidentatsion vositalari, mavjud darsliklar, ukuv kullanmalari, ukuv-metodik adabiyotlarni taxlil kila bilishi, ularning bir-biridan farki va afzalliklarini bilishi;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ukuvchilarning ukuv faoliyatini faollashtiruvchi usullardan xabardorligi va ukuv mashFulotlarida ulardan foydalanish malakasiga ega bulishi;

ukuvchilarning mustakil ishlari va taxsil olishini tashkil etishning tashkiliy va uslubiy ta'minlanishini bilishi;

- uz kasbiy tayyorgarligi va malakasini muntazam va mustakil ravishda oshirishning usul va shakllarini bilishi va egallashi;

- ukuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, diqqat, xotira, tafakkur, temperament, xarakter, kobiliyatlarini aniklay olishi, ukuvchilar bilan mulokotga kirishish kunikmalarini egallagan bulishi;

- ukuvchilarda mantikiy va ijodiy fikr yuritish kunikmalarini rivojlantirish, mantikiy operatsiyalardan ukuv jarayonida foydalanish;

- sinf raxbari ishining mazmun va mundarijasini, ukuvchilar ongiga va kalbga milliy istiklol Foyasini singdirishning mazmuni, shakli va usullarini bilishi va samarali tashkil etish malakasiga ega bulishi<sup>42</sup>;

- iktidorli ukuvchilarni aniklash, saralash va ularga tabakalashgan ta'lim berish yullari, shakllari xamda usullarini bilishi, amaliyotda kullay olish kunikmasiga ega bulishi;

II. Musika ukituvchisining metodik tayyorgarligiga asos buladigan me'yoriy xujjatlar bilim, kunikma va malakalar majmuasi:

- ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ta'lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini tasavvur kilishi;

- musika buyicha darsdan, sinfdan va maktabdan tashkari ta'lim- tarbiya ishlarining mazmuni, shakllari va mazkur mashFulotlarni tashkil kilish yullarini;

- umumiy urta va urta maxsus, kasb-xunar ta'limi xamda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini;

- umumiy urta va urta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalarida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-koidalarini bilishni;

- umumiy urta va urta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalarida ukuvchilarni kasbga yullash ishlarining tartibi, maksad va vazifalari xakida ma'lumotga ega bulishi, musika yunalishida kasbga yullash ishlarini olib borishni;

- musikani chukur uzlashtirishga ixtisoslashgan maktab yoki sinflarda kullanilayotgan dasturning, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarining mazmun- mundarijasi,

---

<sup>42</sup> Barotov Sh.R. Ukuvchi shaxsini urganish usullari. - T.: "Ukituvchi", 1995. - 28-32 betlar.



DTS, mazkur ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga kuyiladigan didaktik talablar<sup>43</sup>, shakl va usullarini;

- musikani ukitish jarayonida ukuvchilarni xukukiy, iktisodiy, ekologik, sanitariya-gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga kullay olishni;

- musikani ukitish jarayonida ukuvchilarni milliy va umuminsoniy kadriyatlarga xurmat, mustakillik prinsiplari va Ona-Vatanga sadokat ruxida tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga kullay olishni;

- musikadan ukuv dasturi, DTS, darsliklar va ukuv-metodik kullanmalarni taxlil kilishni;

- musikani ukitish konsepsiyasi, metodik yondashuvlar asosida ukuv jarayonini tashkil eta olishni;

- musika madaniyati fanining asosiy Foyalari, maksadi va vazifalari, shuningdek, boblar, mavzularning maksadi va vazifalarini aniklay olishni;

- musikani ukitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini kullay olish;

- ukuvchilar bilimini nazorat kilish va baxolashning zamonaviy usullarini bilishi va olingan natijalarni taxlil kila olishi, baxolash tizimini mukammal bilish va kullay olishni<sup>12</sup>;

- musika darslariga kuyiladigan didaktik talablardan xabardor bulishi, ularni kuzatish va taxlil kilish malakasini uzlashtirishni;

- musika ukituvchilarining ilFor ish tajribalarini aniklashi va ularni uzlashtira olishi xamda amaliyotga kullash malakasiga ega bulishi;

- musika ukuv xonalari, laboratoriyalarini namunaviy jixozlash, tegishli me'yoriy xujjatlarni bilishi, jixoz, kurgazmali vosita, didaktak va tarkatma materiallarni tayyorlash, saklash, butlash va boyitish yullarini bilishi, ulardan samarali foydalangan xolda ukuv mashFulotlarini tashkil etish va utkazish tajribasiga ega bulishi lozim.

Musika ta'limi musikiy bilim, malaka va kunikmalarni egallash jarayoni xamda natijasi bulib, taxliliiy-nazariy jixatdan musikiy xodisalar uzlashtirilishini kuzda tutadi. Bulajak musika ukituvchisi jamiyatda tuplangan musikiy tajriba namunalarini uzlashtirish, rivojlantirish xamda yosh avlodga yetkazish vazifasining ijtimoiy moxiyatini chukur anglashi muximdir.

Musika ta'limida bulajak musika ukituvchilarini musika bilan "oshno kilish" vazifasi uzgardi, endi xar bir ukuvchiga uz badiiy imkoniyatlarini kengaytirish,

---

<sup>43</sup> Juraev R. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi umumiy urta ta'lim vazifalari // "Pedagogik maxorat" jurnali. 2/2001., 2-10 betlar.



musika asarlarini tanlab tinglash, ular borasida taxliliy fikr bildira olish uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratish vazifasi kuyilmokda. Bu urinda, asosan ikki xil ukuvchi bilan ishlash lozimligini ukituvchi yaxshi ajratib olishi kerak, ya'ni 1) musika tuYFusi mavjud bulgan ukuvchilar; 2) musikaga kizikmaydigan ukuvchilar. Ularga nisbatan xususiy va umumiy talablar xozirgi DTS lar va dasturlarda kayta kurib chikilishi kerak. Bu pedagogik maksadni amalga oshirish musika ukituvchisiga, uning ma'naviy-ijodiy faoliyatiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

Musika ukituvchisini kasbiy tayyorlashda asosiy e'tibor pedagogik ishning natijasiga karatiladi. Darsda egallangan nazariy bilimlar amaliyotda, ya'ni ukuvchilar musikiy-estetik faoliyatining turli kurinishlarida namoyon etiladi va rang-barang ish shakllari, metodlari orkali ta'lim oluvchilarning musikiy bilimlari oshishiga, ularda badiiy-estetik didning shakllanib borishiga karatiladi.

### 1-ilova

#### Birinchi gurux uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharx	Izox
Xavaskorona ijro tushunchasi nimani anglatadi?	Xavaskorona ijro xar taraflama sodda, mukammal bulmagan ijro tushuniladi, saxnada uzini tutishi, kuyning ba'zi jixatlari, unsurlarini sezmay tashlab ketishi, shtrix va zarblarini poyma-poy ketishi, chalayotgan kuyga xos bulmagan pardalarini ijro etishi bilan farklanadi.	Oddiy ijro.
Professional ijrochilik xakida gapirib bering	Professional ijrochilik uzining mukammalligi, xar bir kuyga okilona yondashishi bilan ajralib turadi. Mukammalligi shundaki: ijro paytida uzini tutishi, xar bir shtrix, xar bir zarb, xar bir parda uz urnida bulishi; xar bir kuyga okilona yondashishini shunday izoxlash mumkin: cholFuchi ma'lum bir kuyni ijro etishdan oldin yaxshilab urganib chikadi, kuyning murakkab jixatlari, pardalari, tarixiy kelib chikishi, ruxiyatidan kelib chikib, ijodiy yondashadi.	Mukammal ijro.





An'anaviy ijrochilik nima?	An'anaviy ijrochilik soxasi kadim musikiy san'atimiz borasida chukur izlanishlar olib borib, ustoz-shogird tizimi orqali bizgacha yetib kelgan musikiy asarlarni asl xolicha ijro etish, uch voxa makomlarini chukur urganish, taxlil etish va moxirona ijro etish bilan shug`ullanadi.	UzDK an'anaviy ijrochilik kafedrasini va shu yunalish buyicha ijod kiladigan sozandalar
----------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------

### Ikkinchi gurux uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharx	Izox
Makom ijrochiligining sub'ektlari va ob'ektlarini tushuntirib bering.	Makom ijrochiligining sub'ekti sifatida uch voxa makomlari, ya'ni Xorazm makomlari, Shashmakom va FarFona-Toshkent makomlarining barcha shu'balari tushuniladi. Ob'ektlari esa makomlar asosida bastakorlar tomonidan yaratilgan kuylar, xalk musikalari va voxaga mansub janrlardir.	Asosiy makom va makomsifat musikiy asarlar
An'anaviy ijrochilikning yunalishlari xakida suzlab bering.	“An'anaviy ijrochilik” soxasi, ya'ni makom va mumtoz musikiy asarlarimizni urganuvchi xonanda va sozandalar Yevropa temperatsiyasiga asoslangan pardalarda emas, balki ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan milliy pardatuzuk, ya'ni tekis temperatsiyalashmagan, xalk tili bilan aytganda nim pardalarda ijod etish, unga mos nota yozuvlarini uylab topish kuzda tutiladi. Bunday pardatuzuklar, ya'ni lad asoslari Shark xalklarining kupchiligida mavjud. Misol uchun: Xindiston, Xitoy, Eron, Turk, Arab	Ushbu tizim Al Farobiyning “Kitab Al Musikiy”, Ibn Sinoning “Kitab ush Shifa”, Safiuddin Urmaviyning “Sharafiya” va “Kitab ul advor”, Kutbiddin Sheroziyning “Durratud toj”, Abdulkodir MaroFiyning “Makasid ul advor” va

	<p>musikalarida mavjud bulgan nim pardalarini notada belgilash uslubini uylab topishgan. Shark musikasining lad-tovushkator tizimi, jam va jins, intervallari-bakiya-komma, mujannab, taniniy, chorak va nimchorak pardalari, ya'ni yarim parda oraligidagi bakiya va kommalar nazariyasi, makomlar va ularning parda tizimi, usullari xakida tushunchalardan tashkil topadi. Xozirda bizda amal kilayotgan sakkiz noFOnali unikki donayarim pardali temperatsiya kilingan tizim emas balki, yigirma turt nim chorak pardali Shark parda tizimi asos kilib olingan.</p>	<p>“Jomi’y ilxon”, Xizir bin Abdulloxning “Advor”, Berdi Dilshodning “Murodnoma” kabi risolalarida batafsil keltirilgan.</p>
<p>An’anaviy ijrochilikda ukitish uslublarini kandy tasniflash mumkin?</p>	<p>Xar bir yosh sozanda-xonanda ijrochini kamolotga yetkazish, musikiy asarlarni Foyaviy va badiiy tarzda chukur uzlashtirish, uz ijrochilik maxoratini xamda san’atini kup sonli tinglovchilarga tula yetkazib bera olish an’anaviy xonandalik va cholg’u ijrochiligi soxasi buyicha ta’lim berish yulidagi umumiy tarbiyaning muxim omilidir. An’anaviy ijrochilikning asoslari, ya’ni negizi, tarixiy kelib chikishini urganish, ijodni ma’lum yunalish buyicha davom etirish kafedra professor-ukituvchilarining asosiy maksadidir. An’anaviy ijrochilikka xos nazariy</p>	<p>Talabalar an’anaviy sozanda ijrochiligining konun-koidalari, milliy ijrochilikka xos uslublarni, parda asoslarini mukammal egallaydilar.</p>

	<p>bilimlarga ega buladilar. Uz ixtisosliklari buyicha talab darajasida bilim olish imkoniyatiga ega buladilar.</p> <p>Buning natijasida talaba davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, malaka va kunikmalarga ega bulishi nazarda tutiladi, xususan:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Pedagogik amaliyotni nazariy va psixologik asoslarini;</li><li>- Xonandalik va cholg'u sozlari buyicha ta'lim uslubiyotini;</li><li>- Ukuv jarayonini rejalashtirishni;</li><li>- Ustoz-shogird uslubida yakka va ansambl ijro dasturlarini baxolash va urganishni;</li><li>- Konsert va tanlovlarda ishtirok etishni;</li><li>- Milliy ijrochilikda maxoratini rivojlantirishni;</li><li>- Mavjud makomlar va voxalarga xos janrlar, bastakorlar ijodi maxsuli bulmish mumtoz asarlarni tug'ri va tulik ijro etish, umulashtirish xamda keng yoyish malakalariga ega bulmoFi kuzda tutiladi.</li></ul>	
--	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

**Guruxni baxolash jadvali.**

<b>GURUH-lar</b>	<b>Javoblarning anik, ravshanligi</b>	<b>Axborotning ishonchliligi</b>	<b>GURUH a'zosining faolligi</b>	<b>Umumiy ballar</b>	<b>Baho</b>
1-gurux					
2-gurux					

**4-amaliy mashg'ulot: O'zbekiston Respublikasida musiqa ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va zamonaviy talablari. Musiqa san'ati yo'nalishlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, "Ustoz-shogird" maktablari.**

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida xorijiy davlatlarda musiqa ta'limi maktablari; ijrochilik san'atida artistik mahorat va sahna madaniyatini o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

**Ishni bajarish uchun namuna**

O'qituvchi talabalarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### **Guruhda ishlash qoidalari**

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

### **Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

Individual o'qish-2 minut.

2. Muhokama qilish –3 minut.

3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.

4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

5. Guruhlar boshqa guruhlarini prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida musiqiy asarlarni o'zlashtirishda ijrochilikning an'anaviy va zamonaviy uslublar; repertuar tanlash va cholg'u ijrochilarini tayyorlashda individual yondashuv masalalarini tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

O'qituvchi talabalarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

#### **Guruhda ishlash qoidalari**

- Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.
- Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.
- Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.
- Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.
- Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.
- Har kim aniq tushunishi kerakki:
  - boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.
  - kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

#### **Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

- Individual o'qish-2 minut.
- Muhokama qilish –3 minut.
- Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.
- Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
- Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
- Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

**Birinchi guruh uchun vazifa.**

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Musiqiy asarni o‘zlashtirish nimani anglatadi?		
Zamonaviy ijro uslubi qanday bo‘ladi?		
Ansamblida ijro nima?		

**Ikkinchi guruh uchun vazifa.**

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Repertuar tanlash nimani anglatadi?		
An’anaviy ijro uslubi qanday bo‘ladi?		
Yakkanavozlik nima?		

2-ilova

**Guruhni baholash jadvali.**

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a’zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

**5-amaliy mashg‘ulot: O‘zbek musiqa merosi qatlamlari, og‘zaki an’anadagi kasbiy musiqa, dostonchilik ijodiyoti, folklor va maqom san’ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari.**

1. O‘zbek xalq musiqasi
2. Og‘zaki an’anadagi kasbiy musiqa

3. Dostonchilik ijodiyoti

4. Folklor va maqom san'ati, ularning qadimiy tarixi va falsafiy ildizlari

**Tayanch iboralar:** qo'shiq, terma, yalla, lapar, ashula, katta ashula, doston, maqom, og'zaki an'ana, qadimgi musiqa, falsafa, kuy-qo'shiq.

### 1. O'zbek xalq musiqasi

Musiqashunos olimlar o'zbek xalq musiqasi ijodi namunalarini ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va bajarayotgan vazifalariga ko'ra quyidagi ikki asosiy guruhga tasnif etadilar:

a) Ijro etilishi ma'lum sharoit va vaziyatlar bilan shartlangan kuy-qo'shiqlar (oilaviy, mavsumiy, mehnat);

b) Istalgan "vaziyat" yoki erkin mavzuli kuy – qo'shiqlar (qo'shiq, terma, lapar, yalla).

Bunda birinchi guruh mazmunini mehnat jarayoniga bog'liq aytimlar, oilaviy marosim, mavsumiy marosim va mehnat qo'shiqlari tashkil etsa, ikkinchi guruh tarkibi o'z ichiga qo'shiq, terma, lapar, yalla, ashula kabi aytimlarni oladi.

2-ilova

### Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

### An'anaviy musiqa ijrochiligi

O'zbek xalq musiqasi merosi, tarixi, shakllanish jarayonlari, tasnifi va takomillashuv jarayonlari.

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida musiqiy avangardizm yo'nalishida asarlar yaratgan va yaratayotgan O'zbekiston kompozitorlari ijodida shakl va uslub muammosi; zamonaviy dirijyorlik san'ati maktablari; kompozitor va folklor; Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlarga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

### Ishni bajarish uchun namuna

O'qituvchi talabalarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida



ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### **Guruhda ishlash qoidalari**

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

### **Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

Individual o'qish-2 minut.

2. Muhokama qilish –3 minut.

3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.

4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

## V. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Pedagogika</b>	Pedagogika – ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlari haqidagi fandır	Pedagogy is the art or science of teaching and educational methods
<b>Pedagogik mahorat</b>	Pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xusu-siyatlari sintezi	It is an art of communicating a message with impact on audience.
<b>Metod</b>	Metod – eng umumiy ma’noda maqsadga erishish yo‘li, usuli	Method – a way of reaching the goal in a systematic way
<b>O‘qitish metodi</b>	O‘qitish metodlari ta’lim maqsadiga erishishga doir usul va qoidalar yig‘indisi	Teaching methods – the principles and methods of instruction
<b>Akmeologiya</b>	Insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan fan tarmog‘i	Acmeology is a new direction of interdisciplinary researches of the person. It is a science studying laws and mechanisms of development of the person during its maturity.
<b>Takt</b>	Takt ahloqiy tushuncha bo‘lib, u insonlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solishni talab etadi	Tact is a verbal operant which is controlled by a nonverbal stimulus (such as an object, event, or property of an object) and is maintained by nonspecific social reinforcement
<b>Pedagogik taktika</b>	Pedagogik takt – o‘qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo‘lib, o‘quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta’sir o‘tkazish, muloqotni insonparvarlik	The pedagogical tact is the the base of professional skill of a teacher, which helps in communication with children in the most diverse fields of activity, the ability to choose

	tuygʻulari asosida oʻrnatish oʻlchovi, oʻquvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish koʻnikmalarini hosil qilish shaklidir.	the right approach to students
<b>Nutq</b>	Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikrdir	Speech is the vocalized form of communication used by humans, which is based upon the syntactic combination of items drawn from the lexicon.
<b>Qobiliyat</b>	Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim hususiyatlaridan biri boʻlib, bilim, koʻnikma va malakalarni egallash dinamikasida aks etadi	Possession of the qualities required to do something; necessary skill, competence, or power
<b>Kommunikativ qobiliyat</b>	Oʻqituvchining taʼlim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni oʻrnata olish koʻnikmasi	Communication skills are the key to develop friendships and build a strong social support network with students and other group of people, in order to achieve a pedagogical aim
<b>Pedagogik artistizm</b>	Pedagogik artistizm – pedagogik ijodkorlikning barcha bosqichlarida oʻz aksini topuvchi voqelikdir.	Pedagogical artistry is the phenomenon functioning with varying degrees of activity in the process of pedagogical creativity.
<b>Artikulyatsiya</b>	Nutq organlarining muayyan tovushni talaffuz qilishdagi faoliyati.	Manner of articulation describes how the tongue, lips, jaw, vocal cords, and other speech organs are involved in making a sound make contact.
<b>Battarizm</b>	haddan ziyod tezashtirilgan nutq. Bunda soʻzlar nihoyatda tez, noaniq talaffuz etilishi, fikrning izchil bayon etilmasligi kuzatiladi.	Pathologically accelerated rate of speech, in which there is an incorrect formation of the phrase, the words are pronounced indistinctly, do not

		agree.
<b>Verbal muloqot</b>	ikki yoki undan ortiq shaxslarning soʻz, nutqiy vositalar yordamida fikr almashinishlari.	Verbal communication refers to the use of sounds and language exchange ideas
<b>Noverbal muloqot</b>	axborot, fikrni soʻzlashuv nutqidan boshqa tana xatti-harakati vositalari yordamida yetkazish (imo-ishora, xatti-harakat va b.)	Forms of communication which do not rely on the spoken or written word
<b>Intonatsiya</b>	(lot.intonare-qattiq talaffuz qilaman), nutqning ritmik-melodik tomoni, gapning sintaktik maʼnolari va emotsional tomonlarini ifodalash vositasi	intonation is variation of spoken pitch that is not used to distinguish words; instead it is used for a range of functions such as indicating the attitudes and emotions of the speaker
<b>Istiora (metafora)</b>	bir predmet-hodisaga xos xususiyatni boshqa predmet-hodisaga ular oʻrtasidagi oʻxshash belgi asosida koʻchirish.	Metaphor is a figure of speech that makes an implicit, implied, or hidden comparison between two things that are unrelated, but which share some common characteristics.
<b>Kommunikativ qobiliyat</b>	kishilar bilan shaxsiy va ishga oid munosabatlarda qulaylik tugʻdiradigan shaxsiy qobiliyatlar majmui; oʻzgalarni tushunish, qoʻllab-quvvatlash, xayrihohlik va hokazo.	A complex of personal skills which creates an easy way of communication in personal and professional contacts; understanding the others, supportng and so on.
<b>Kommunikativ malaka</b>	kishilar oʻrtasida shaxsiy munosabatlarni oʻrnatish usuli.	The way of creating personal relationship
<b>Kommunikativ kompetentlik</b>	ravon, chiroyli nutq, notiqlik usullaridan xabardorlik, hamsuhbatga individual yondasha olish malakasi. Aloqa va munosabatlar oʻrnatish, muloqotga moyillik	A social knowledge about how and when to use utterances appropriately

	layoqati.	
<b>Kommunikativ madaniyat</b>	yuksak darajadagi muloqot ko'nikmalariga egalik.	Ones having high level communication skills
<b>Kommunikativ texnologiya</b>	shaxslarning o'zaro muloqotga kirishishini ta'minlovchi texnologiya.	Technology which helps people to communicate
<b>Leksika</b>	tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, ya'ni tilning lug'at tarkibi.	A lexicon is the vocabulary of a person, language, or branch of knowledge
<b>Logik urg'u</b>	so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash maqsadida gapdagi biror so'zni boshqalarga nisbatan kuchliroq talaffuz etish.	Logical Stress serves to mark the semantic center of the utterance (a word or a word-group that carries new information important for the speaker).
<b>Mimika</b>	(yunon.mimikos-taqlid qiluvchi) –turli his-tuyg'u va emotsiyalarning yuz mushaklari harakatlari va imo-ishoralar orqali ifodalanishi.	It is a form of non-verbal communication or non-vocal communication in which visible bodily actions communicate particular messages, either in place of, or in conjunction with, speech. Gestures include movement of the hands, face, or other parts of the body.
<b>Muomala madaniyati</b>	atrofdagilar bilan munosabatlarini jamiyatda ishlab chiqilgan insonparvar qadriyatlar va me'yorlarga asosan olib borish	culture of speech is the correctly usage of words and sentences, following the standards of word usage and norms of literary language.

## VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008

### II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947- sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5763-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF- 5789sonli Farmoni.

### III. Maxsus adabiyotlar

10. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
11. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy Slastenin V.A. i dr. Pedagogika. Ucheb. pos. 4-ye izd. –M.: Shkolnaya pressa, 2004.

12. Golovko Ye.A. *Texnologiya formirovaniya kommunikativnoy kompetentnosti molodых specialistov na etape adaptatsii k pedagogicheskoy deyatel'nosti*. Stavropol, 2004.
13. Zanina L.V., Menshikova N.P. *Osnovy pedagogicheskogo masterstva*. – Ros-tov-na-Donu, 2003
14. kompetentnosti uchitelya v obrazovatel'nom protsesse VUZa: *Monografiya / – Kolomna.: Pozitiv*, 2012.
15. Yakusheva S.D. *Osnovy pedagogicheskogo masterstva. Uch.pos.* – Orenburg. 2004.
16. Zimnyaya I.A. *Klyuchevыe kompetentnosti kak rezultativno- selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii*. Moskva, 2014.
17. Zhabkina I.G. *Razvitie kommunikativnoy kompetentnosti studentov pedagogicheskogo kolledja*. M.,2014.
18. Yemelyanova M.V., Jurlova I.V., Savenko T.N. *Osnovy pedagogicheskogo masterstva: Kurs leksiy dlya studentov dnevnoy i zaочноy otdeleniy pedagogicheskogo universiteta*. – МОЗЫР: УО «МGPU», 2005. – 150 s.
19. Isaev I.F. *Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I. F. Isaev*. – M.: Akademiya, 2002.
20. Xoshimov K., Nishonova S. *Pedagogika tarixi*. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
21. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. *Pedagogika. // O'quv qo'llanma*. – T.: Fan, 2004.
22. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat*. –T., 2010.
23. Ishmuxamedov R. va b. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar*. – T.: Iste'dod, 2008.
24. Nurmonov A. *Talabalarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari*. “Ma'rifat” gaz. 2014 y. 18-son.
25. Maxmudov N. *O'qituvchi nutqi madaniyati*. – T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
26. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. *Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma*. –T., 2014.
27. Muslimov N.A. va b. *Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari*. –T., 2009.
28. Omonov N.T. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.
29. *Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi*. (M.X.Toxtaxodjaeva va b.) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.



#### IV. Internet saytlar

30. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
31. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
32. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
33. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet
34. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.